

ATAKULOV J.O., YUSUPOV SH.A.  
RAXIMOV F.E., BAYMURADOV N.S.

## BOLALAR XIRURGIYASI

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PEDIATRIYA  
FAKULTETI V KURS BAKALAVR TALABALARI  
MUSTAQIL ISHI UCHUN MO'LJALLANGAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

Atakulov Jamshed Ostankulovich  
Yusupov Shuxrat Abdurasulovich  
Raximov Faxridin Eshmamatovich  
Baymuradov Nemat Sadirdenovich




**BOLALAR XIRURGIYASI  
TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PEDIATRIYA FAKULTETI V  
KURS BAKALAVR TALABALARI MUSTAQIL ISHI UCHUN  
MO'LJALLANGAN**

**O'QUV QO'LLANMA**

Bilim sohasi: 500 000 - "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot"

Ta'lim sohasi: 510 000 - "Sog'liqni saqlash»

Pediatriya yo'nalishi -(5510200)



UO'K 617-053.2(075.8)

KBK 54.5ya73

B 83

Atakulov J.O., Yusupov Sh.A., Raximov F.E., N.S. Baymuradov  
“Tibbiy olyi ta’lim muassasalari pediatriya fakulteti v kurs bakalavr talabalarini  
mustaqil ishi uchun mo’ljallangan” [Matn]: O’quv qo’llanma / Atakulov J.O., Yusupov  
Sh.A., Raxmatov B.N., Boyjigitov N.I., Raximov F.E.– Toshkent: Samarqand 2022 –  
348 b.

**Tuzuvchilar:**

*J.O. Atakulov*

–Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1son bolalar  
xirurgiyasi kafedrasi professori, t. f. d.

*Sh.A. Yusupov*

–Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 1-son bolalar  
xirurgiyasi kafedra mudiri, t. f. d.

*F.E. Raximov*

–Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1son bolalar  
xirurgiyasi kafedrasi katta o’qituvchisi.

*N.S. Baymuradov*

–Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1son bolalar  
xirurgiyasi kafedrasi doiseni, t. f. n.

**Taqrizchilar:**

*N.Sh. Ergashev*

–Toshkent Pediatriya Tibbiyot Universiteti gospital  
bolalar xirurgiyasi kafedrasi mudiri, professor, t.f.d.

*Yu.M. Axmedov*

–Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 2-son bolalar  
xirurgiyasi kafedrasi mudiri, professor,t.f.d.

*Har bir sohadagi bolalar shifokori (pediatr. bolalar jarrohi, bolalar asab  
kasalliklari shifokori va b.q.) o’z ish faoliyatida o’sib borayotgan yosh organizmning  
o’ziga xos anatomo-fiziologik xususiyatlarini inobaiga olmog’i lozim. Shuning uchun  
ham, bolalar jarroxligi mutaxassisligining ajralib chiqishi bejiz emas. Bolalar  
jarrohligi kasalliklarini davolashda o’sayotgan yosh organizmning anatomo-fiziologik  
xususiyatlarini o’rganish bolalar jarrohi hamda anesteziologi uchun eng zarur  
hisoblanadi. Inson tug ilganidan to 14—18 yoshgacha ma’lum bir o’ziga xos anatomo-  
fiziologik o’zgarishlarni bosib o’tadi.*

ISBN 978-9943-8265-9-5

© Atakulov J.O., Yusupov Sh.A., Raxmatov B.N.,  
Boyjigitov N.I., Raximov F.E.  
© Samarqand\_2022y

## MUNDARIJA

Nº	Mavzularning nomi	sahifasi
	Kirish	5
1	O'pkaning tug'ma nuqsonlari	13
2	Qizilungach tug'ma nuqsonlari.	42
3	Diafragma churralari.	71
4	Oshqozon va 12- barmoql ichak yara kasalligi	100
5	Tug'ma va ortuqilgan mexanik sariqlik	114
6	Bolalarda churralar va urug'tizimi kasalliklari.	156
7	Exinokokkoz kasalligi.	188
8	Yumshoq to'qimalami yirin gli yallig'lanishi.	209
9	Qorin orti bo'shlig'i a'zolari shikastlari.	235
	Adabiyotlar.	259

## **Qisqartirilgan so'zlar ro'yxati**

AT	- anti-refluks to'siq
TMI	- talabaning mustaqil ishi
UASH	- umumiy amaliyot shifokori
KQVD	- ko'krak qafasining voronkasimon deformatsiyasi
OIT	- oshqozon-ichak trakti
GI	- I.Gizitskiy indeksi
QQS	- quyi qizilo'ngach sfinkteri
PG	- Portal gipertenziya
UZI	- Ultratovush tekshiruvi
EKG	- elektrokardiografiya
ExoKG-	- ekokardiyog'rafiya
SWOT -	- Strengths (kuchli tomon), Weakness (zaif tomon); Opportunities (imkoniyatlar); Threats (kasallikning bezovta qiluvchi tomonlari)

## **KIRISH**

### **UMUMIY NIZOM**

### **TALABA MUSTAQIL ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining raxbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

### **TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI**

#### **QUYIDAGILARDAN IBORAT:**

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish:

- kerakli ma'lumotlarni izlab topish qulay usullari va vositalarini aniqlash:

- axborot manbaalari va manzillaridan samarali foydalanish

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar bilan ishlash

- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash

- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish

- berilgan topshiriqning ratsional echimini belgilash

- ma'lumotlar bazasini taxlil etish

- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi assosida qayta ishlash

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish

- ishlab chiqilgan yechim, loyixa yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida ximoya qilish.

**Pediatriya fakulteti 5-kurs talabalarining bolalar xirurgiyasi  
fanidan tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar mavzulari ro'yxati**  
**Ajratilgan soat-36**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ish mavzulari</b>	<b>Ajratil- gan soat</b>	<b>Mustaqil ishning bajarilishi</b>
1	O'pka tug'ma nuqsonlari.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
2	Qizilo'ngach tug'ma nuqsonlari.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
3	Diafragma churalari.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
4	Oshqozon va 12-barmoqli ichak yara kasalligi.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
5	Tug'ma va orttinilgan mexanik saniqlik	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
6	Bolalarda churtalar va unug'tizimi kasalliklari.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
7	Exinokokkoz kasalligi	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallami intemet orqali olish va uni qayta ishlab, tavyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish

8	Yumshoq to'qimalami yirin gli yallig'lanishi.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallarni internet orqali olish va uni qayta ishlab, tayyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
9	Qonin orti bo'shlig'i a'zolari shikastlari.	4	Referat prezentatsiyasi, test, vaziyatli masala, OSKE, interfaol o'yin tuzish, tarqatma materiallarni internet orqali olish va uni qayta ishlab, tayyorlash, dasturlashtirilgan karta to'ldirish. Tungi navbatchilikda turish
	Janii	36	

### Mustaqil ish nazorati va qayd qilish tartibi:

O'qituvchi talabalar bajargan mustaqil ishni mustaqil ish uchun mo'ljallangan jurnalda belgilaydi. Mustaqil ish turlari (shakllari) almashtinlib bajarilishi o'qtuvchilar tamonidan nazorat qilinadi. Barcha mavzular bo'yicha talaba bajargan ishlar blok yakunida hisoblanadi, o'rtacha ball chiqariladi. Bundan tashqari fan bo'yicha o'tkazilgan oraliq va yakuniy nazorat topshiriq savollarida mustaqil ish savollari kiritilgan bo'lib shu orqali ham talabalar o'zlashtirilganligi nazorat qilinadi.

**Pediatrlik fakultetining Skurs talabalar uchun bolalar xirurgiyasi sanidan mustaqil ishni baliolash mezonlari**

Muvzu	Mustaqil ish shakli nazorati	Mustaqil ish shakliga ajratilgan vaqti va baholash	Mavzuga ajratilgan umuniy vaqt va o'tadigan joyi				
1.	1.Rentgenogramma 2.Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, lashrix, operatsiya xonalarida)	Rentgenogrammani tushuntura bilish va yozma ravishda topshirish O'pka tug'ma nuqsonlari	30 daqiqa 30 ball  30 daqiqa 30 ball  50 daqiqa 30 ball  60 daqiqa 15 ball  60 daqiqa 15 ball  60 daqiqa 15 ball  40 daqiqa 10 ball	4 soat  4 soat  4 soat  4 soat  4 soat  4 soat  4 soat	Yu.F.Isaqov Detskaya xirurgiya. M. 1982 G.A.Bairov  Neotlojnaya xirurgiya u detcy. M. 1983. Yu.F.Isaqov i dr. Abdominal'naya xirurgiya u detcy. M.		
2.	Qizil- o'ngach I tug'ma nuqsonlari	Kentgenogramma 1.Rentgenogramma 2. Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, lashrix, operatsiya xonalarida)	tushuntura bilish va yozma ravishda topshirish Bajara bilish va yozma ravishda topshirish	20 daqiqa 30 ball  20 daqiqa 30 ball  40 daqiqa 20 ball	4 soat  4 soat  4 soat	Yu.F.Isaqov Detskaya xirurgiya. M. 1982 G.A.Bairov  Statcionarda, navbatchilik vaqtida, kulubxonada, kompyuler markazida, internida ishlash	Neotlojnaya xirurgiya u detcy. M. 1983. A.S.Suleymanova va ham.mual.

				«Bolalar xirurgiyasi» T. 2000 y.
3.Mavzu bo`yicha vaziyatli masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatli masalalar teksti tuzib topshiriladi	50 daqiqa 15 ball	markazida, internetda ishlash	
4. mavzu bo`yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	50 daqiqa 15 ball		
5. kasallik bo`yicha mikroko`ratsiya (kasallik tarixi)	Mikroko`ratsiya (kasallik tarixi) topshiriladi	40 daqiqa 10 ball		
6.mavzu bo`yicha savollar tuzish	Kamida 10 savol tuziladi va yozma ravishda topshiriladi	40 daqiqa 10 ball		
3.	Rentgenogrammani rushuniura bilish va yozma ravishda topshirish	20 daqiqa 30 ball		
1. Rentgenogramma	Bajara biliш va yozma ravishda topshirish	40 daqiqa 20 ball	4 soat	A.I.Lenyushkin Rukovodstvo po detskoy
2.A maliy ko`nikmalar (bog`lov, muolaja, tashrix, operatsiya xonalarida)	Kamida 10 vaziyatli masalalar teksti tuzib topshiriladi	50 daqiqa 15 ball	Statsionarda, nav`batchilik vaqtida, kutubxonada, kompyuter markazida, internetda ishlash	poliklinicheskoy xirurgii. L. 1986. Yu.F.Isaqov Detskaya xirurgiya. M. 1982. G.A.Bairov Xirurgiya porokov razvitiya u detey. L. 1963
3.Diafragma churralari	5.Mavzu bo`yicha vaziyatli masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatli masalalar teksti tuzib topshiriladi		
4.mavzu bo`yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	50 daqiqa 15 ball		
5.mavzu bo`yicha referat	Referat yozib topshiriladi va mavzu bo`yicha suhbat o`ikaziladi	40 daqiqa 10 ball		
6.kasallik bo`yicha mikroko`ratsiya (kasallik tarixi)	Mikroko`ratsiya (kasallik tarixi) topshiriladi	40 daqiqa 10 ball		

	1. Rentgenogramma ruşhuntura bilish va yozma	30 daqqa 30 ball	Yu.F.Isaqov Detskaya xirurgiya. M. 1982.
2. Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, lashrix, operatsiya xonalarida)	Bajara bilish va yozma ravishda topshirish	50 daqqa 30 ball	G.A.Bairov Xirurgiya porokov razviliya u detcy. L. 1963
3. Mavzu bo'yicha vaziyatlari masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatlari masalalar teksti tuzib topshiriladi	60 daqqa 15 ball	A.S.Suleymanova va vaqtida, kutubxonada, kompyuter markazida, internetda ishlash
4. mavzu bo'yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	60 daqqa 15 ball	A.I.Lyonyushkin Rukovodstvo po detskoy koloproktologii. M. 1992
5. mavzu bo'yicha referat	Ravishda topshiriladi va mavzu bo'yicha suhbat o'tkaziladi	40 daqqa 10 ball	«Bolalar xirurgiyasi» T. ham.mual. 2000 y.
1.UZL-xulosasi, 2.KT-xulosasi	Rentgenogrammani ruşhunlura bilish va yozma ravishda topshirish	20 daqqa 30 ball	4 soat
2. Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, lashrix, operatsiya xonalarida)	Bajara bilish va yozma ravishda topshirish	40 daqqa 20 ball	Yu.F.Isaqov Detskaya xirurgiya. M. 1982. G.A.Bairov.
3.Mavzu bo'yicha vaziyatlari masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatlari masalalar teksti tuzib topshiriladi	50 daqqa 15 ball	L.M.Roshal' Gnoynaya xirurgiya delskogo vozrasta. S-Peter. 1991 A.S.Sulcymanova va kompyuter markazida, internetda ishlash
4. mavzu bo'yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	50 daqqa 15 ball	«Bolalar xirurgiyasi» T. ham.mual. 2000 y.
5. mavzu bo'yicha referat	Referat yozib topshiriladi va mavzu bo'yicha suhbat o'tkaziladi	40 daqqa 10 ball	

9.	ng yirinligi kasalligi	2.Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, tashrix, operatsiya xonalarida)	Bajara bilish va yozma ravishda topshirish	60 daqiqa 40 ball	Stasionarda navbatchilik vaqtida, kulubxonada, kompyuter markazida, internetda ishlash	porokov razvitiya u detey. L. 1963. N.A.Lopatkin, A.G.Pugachev «Detskaya urologiya» M. 1986
		3.Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatli masalalar teksti tuzib topshiriladi	70 daqiqa 10 ball		
		4. mavzu bo'yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	70 daqiqa 10 ball		
		1.Rentgenogramma	Rentgenogrammani tushuntura bilish va yozma ravishda topshirish	40 daqiqa 40 ball	4 soat	A.S.Suleymannov va ham.mual. «Bolalar xirurgiyasi» T. 2000 y. N.A.Lopatkin, A.G.Pugachev «Detskaya urologiya» M. 1986
	Qorin bo'shlig'i a'zolari shikasthanish lari	2. Amaliy ko'nikmalar (bog'lov, muolaja, tashrix, operatsiya xonalarida)	Bajara bilish va yozma ravishda topshirish	60 daqiqa 40 ball	Stasionarda navbatchilik vaqtida, kulubxonada, kompyuter markazida, internetda ishlash	
		3.Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar tuzish	Kamida 10 vaziyatli masalalar teksti tuzib topshiriladi	70 daqiqa 10 ball		
		4. mavzu bo'yicha testlar tuzish	Kamida 10 test tuzish va yozma ravishda topshiriladi	70 daqiqa 10 ball		

## I-MAVZU: «O'pkaning tug'ma nuqsonlari»

Mavzuning dolzarbligi: Bolalar xirurgiyasi xirurgik korrektsiyani talab qiladigan tug'ma nuqson va rivojlanish anomaliyasining kelib chiqishi, diagnostikasi va davolashini o'z ichiga olgan distsiplinaning bir qismidir.

Pediatriya fakultetlarining 5-kursida bolalar xirurgiyasidan dars o'tishning asosiy printsipi: tug'ma nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining nozologik diagnostikasi umumiylar yordamini ko'rsatish va operatsiyadan keyin reabilitatsiyasini o'tkazishga bog'liqdir.

**Mashg'ulot vazifalari:** Bolalarda uchraydigan nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining etiologiyasi, patogenezi va klinikasi haqida bilim olish. Tug'ma nuqsonlar va nomaliyalar bilan tug'ilgan bolalarni klinik ko'rik va tekshiruvdan o'tkazishni o'rGANISH.

Bola hayotiga xavf soluvchi nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining diagnostik algoritmini o'rGANISH. Rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari va ularning asoratlarini xirurgik davolash printsiplari bilan tanishish. Umumiylar yordami usullarini rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari bilan bolalarning operatsiyadan keyingi reabilitatsiyasi protokoli va davolash diagnostik standartiga asoslab ishlab chiqish.

**Mashg'ulot o'tkazish joyi:** Torakal xirurgiya va chaqaloqlar xirurgiya bo'limi, operatsiya va kompyuter xonalari.

**Mashg'ulot maqsadi:** Xirurgik korrektsiyani talab qiladigan tug'ma nuqsonlar va rivojlanish nuqsonlari klinik diagnostikasi, davolash va bolalar reabilitatsiyasi uslublarini o'rGANISH.

**O'tkir nafas yetishmovchiligi sindromi chaqaloqlik davrida asosiy o'rinni egallaydi.** Chaqaloqlarda respirator yetishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar turli-tuman bo'lganligi uchun tashxis qo'yish qiyin bo'ladi. Nafas yetishmovchiligi o'pka, o'pkadan tashqari omillar, xirurgik, xirurgik bo'limgan kasaliklar ta'sirida kelib chiqib, u patologik belgilarning tezda rivojlanishi, klinik ko'rinishlarning umumiyligi bilan belgilanadi. Ye. Silyanovskaya (1971) fikriga ko'ra, kuks oralig'inining siljishi bu yetishmovchilikning asosiy belgisidir. Lekin ko'pchilik shifokorlar bu belginining klinik ahamiyatini o'tishgan o'tkir nafas yetishmovchiligi bilan kechadigan kuks oralig'inining siljishi ko'krak

qafasi ichidagi patologik holatni bildirib, shoshilinch tekshiruv va xirurgik yordamni talab qiladi.

Chaqaloqlarda o'tkir nafas yetishmovchilign bilan kechadigan sabablar tasnifi:

I. Kuks oralig'ining kasallangan tomonga siljishi bilan kechadigan kasalliklar:

a) o'pka bilan bog'liq sabablar:

- o'pka va o'pka bo'laklarining atelektazi;
- o'pka va o'pka bo'laklari ageneziyasi, gipoplaziyasi.

P. Kuks oralig'ining qarama-qarshi tomonga siljishi bilan kechadigan kasalliklar:

a) o'pka bilan bog'liq sabablar:

- o'pkaning o'tkir lobar emfizemasi;

- o'pkaning taranglashgan suyuqlik yoki havo saqlovchi bo'shlqlari (tug'ma kistalar);

b) o'pka bilan bog'liq bo'limgan sabablar:

- asfiksiyali siqilish asorati bilan kechuvchi diafragma churras;
- diafragma relaksasiyasi;
- gidrotoraks, piotoraks, xilotoraks, gemotoraks;
- kuks oralig'idagi bahaybat o'smalar.

Sh. Kuks oralig'i siljimasdan kechadigan kasalliklar:

a) o'pka bilan bog'liq sabablar:

- kekirdak stenozlari;
- traxeya-Qizilo'ngach I oqmalari;

b) o'pka bilan bog'liq. bo'limgan sabablar:

- ranula;
- xoanalar atreziyasi;
- makroglossiya (chin, soxta);
- Pyer-Robin sindromi;
- tug'ilish jarayonidagi bosh miya jaroxatlanishlari.

*Chaqaloqlardagi o'pka atelektazi*, bola tugilishi jarayonida homila suyo'qligi aspirasiyasi, shuningdek qizilo'ngach, xalqum tug'ma nuqsonlari yoki yutish refleksining buzilishi natijasida so t aspirasiyasidan kelib chiqadi. Turma atelektaz, bosh miya jaroxatlari, alveolyar surfaktantning yetishmovchiligi yoki bo'lmasligi natijasida alveola vuzasining cho'zilishi nafas olganda 2 marta ko'p bosimni talab qiladi. Yetuk tug'ilgan bolaning rivojlangan o'pkasi birinchi nafasdan

keyin to'g'irlanib, puchaymaydi. Chala tug'ilgan bola o'pkasida surtaktant bo'lmanligi tufayli nafas chiqarganda o'pka puchayib qoladi.

O'pka tuzilishi faoliyatidagi yetishmovchiliklar homila va chaqaloqlik davridagi o'pka patologiyasi rivojlanishidagi asosiy omillardan hisoblanadi. Chaqaloqlardagi o'pka ateletkazi etiologiyasiga bog'liq, bo'lman holda og'ir zotiljamning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

**Klinika.** Atelektazning klinik ko'rinishi o'tkir nafas yetishmovchiligi belgilari bilan ta'riflanadi. Kasallikning og'irligi ateletkazga uchragan o'pka yuzasining xajmiga bog'liq. Bemorda xansirash, taxipnoe, sianoz, taxikardiya kuzatiladi. Ko'zdan kechirilganda ateletkaz tomonidan ko'krak qafasining nafas olishdan orqada qolishi aniqlanadi. Katta ateletkazlarda Ko'krak qafasining chiqishi kuzatiladi. Perkussiyada kuks oralig'i zararlangan tomonga siljigan, eshitiladigan tovush esa qisqargan bo'ladi. Auskultasiyada nafas olish susaygan yoki umuman eshitilmaydi. Rentgen tasvirida tashxis tasdiqlanadi: plevra bo'shlig'ining butunlay (total ateletkazda) yoki qisman xiralashishi, kuks oralig'ining zararlangan tomonga silishi, diafragma gumbazining yuqoriga ko'tarilishi kuzatiladi.

**Davolash.** Atelektaz tezlikda davolashni talab qiladi. Atelektazning kechishi o'pka zotiljamiga olib keladi. U yuqori harorat, o'pkada havo almashinuvining buzilishi: xirillash, nafasning o'zgarishi bilan kechadi. Chaqaloqlarning nafas yo'llaridagi aspirasiyalangan suyuqlik va shilliqni bronxoskop yordamida tozalash yaxshi natija beradi. Ba'zan bronxosqopiyada o'tkir nafas buzilishi bilan kechadigan traxeobronxomalyasiya kabi tug'ma nuqsonlarni aniqlash mumkin. Bronxoskop orqali tozalash muolajalaridan so'ng ingalyasiyalar va balg'am ko'chiruvchi dorilar qo'llanadi.


**O'pka ageneziya va aplaziysi.** O'pkaning yoki bir vaqtning o'zida bosh yoki drenajlovchi bronxning yo'qligi ageneziya deyiladi. Aplaziya deganda shakllangan yoki rudimentar - bosh bronx borligi, butun o'pkaning yoki uning bir qismi yo'qligi tushuniladi. Ikki tomonlama o'pka ageneziyasi yoki aplaziysi bilan tug'ilgan bolalar hayot kechira olmaydi.

Bu nuqsonlar boshqa rivojlanish norasoliklari bilan birga (yurakning tug'ma nuqsonlari, Qizilo'ngach I atreziyası, diafragma churrtasi, Botallov yo'lining bitmay qolishi) uchraydi. Ageneziya bilan kasallangan bemorlarda o'limning sababi o'pka infeksiyasi hisoblanadi. o'ng o'pkasida ageneziya rivojlangan bolalar o'limi ko'proq kuzatiladi,

chunki bitta chap o'pkada yallig'lanish jarayoni tez rivojlanadi. Ba'zi kuzatishlarga ko'ra o'pka ageneziyasini bilan tug'ilgan bemorlar uzoq umr ko'rishi ham mumkin.

**Klinika.** O'pka nuqsonining klinik ko'rinishi birlamchi pnevmomerlar bulinishing tuxtash darajasi bilan aniqlanadi. O'pka ageneziyasining klinikasida kuks a'zolarining surilishi natijasida yurak va nafas faoliyatining buzilishlari kuzatiladi. Bemor xansirashdan shikoyat qiladi. Kuzdan kechirilganda ko'krak qafasida asimmetriya (nafas olganda shu yarmining orqada kolishi kuzatiladi), kuks a'zolari o'pkaning nuqsoni rivojlangan tomonga suriladi. Yurak bu holatda vertikal o'qi atrofida buralgan bo'ladi. Sog'lom o'pka kengaygan ko'krak qafasining ikkinchi yarmiga o'tadi va mediastinal churrtani xosil qiladi. Mediastinal churta ustida ko'krak qafasining yuqorigi va medial qismlarida nuqsonli rivojlangan o'pka tomonda nafas shovqinlari eshitiladi.

**Tashxisi.** Klinik, rentgenologik va bronxosqopik natijalarga asoslanib qo'yiladi. Ularning ichida bronxosqopiya, bronxografiya va angiopulmonografiya muhim o'rin tutadi. Rentgenologik tekshirilganda (qovurg'alararo) kasallangan tomonda kovurralar oralig'inining torayishi, diafragma pardasi yuqori joylashgani, ko'krak qafasining shu soxasi qorong'ilashgani kuzatiladi (1-rasm).



**1-rasm.** O'ng o'pka aplaziyasi. Obzor rentgenogramma.

Ko'krak qafasi o'ng tomoni qorong'ilashuvi, kuks oralig'i organlarini zararlangan tarafga siljishi

Rentgenologik tekshirishda klinik belgi sog'lom o'pkani ko'krak qafasining ikkinchi yarmida tasdiqlanadi.

O'pka ageneziyasini bronxosqopiyaga qilganda bosh bronx va traxeya bifurkasiyasi yo'qligi ko'rildi. o'pka aplaziyasida bifurkasiya va diametri toraygan bosh bronx aniqlanadi (bronxosqopiyada).

Bronxografiya tekshiruvida o'pka ageneziyasiga xos hamma belgilar aniqlanadi( 2-rasm).



*2-rasm.*

*O'ng o'pka ageneziyası.*

*Tracheobronchogramma. o'ng  
bronxial daraxtani aniqlanmaydi.*

segment gipoplaziyasi klinik ko'rinishda yaqqol kechmaydi. Faqat profilaktik tekshirish paytida to'satdan aniqlanib qoladi. Infeksiya qo'shilgan xollarda klinik ko'rinishi rivojlanadi. Klinikasi bronxoektatik kasallikka o'xshash bo'ladi. Butun o'pka gipoplaziyasining klinik ko'rinishi boshqacha bo'lib, asosan u yashirin yoki aniq nafas yetishmovchiligi bilan kuzatiladi.

*Butun o'pka gipoplaziyasi.* Bemomi Ko'rganda ko'krak qafasida asimmetriya, ayniqsa orqadan karaganda aniq ifodalangan bo'ladi. Bu orqa asimmetrik simptomi deyiladi. Bu simptom faqat Butun o'pka gipoplaziyasida emas, balki o'pka ageneziyasida, tug'ma yoki orttirilgan massiv o'pka aplaziyasida o'tkazilgan pulmonektomiyadan keyin ham uchraydi. Perkussiyada gipoplaziyaga uchragan o'pkada perko'tor tovush qisqarganligi aniqlanadi. Kuks oralig'i bunda kasal o'pka tomonga surilgan bo'ladi. Nafas yetishmovchiligi alomatlari tashki tomonda tinch

*Davolash.* O'pka ageneziyasini davolash kam natija beradi. Yagona o'pkadagi bronxlarni tozalash shart. o'pka ageneziyası (aplaziyası)da traxeobronxial sanasiya bilan bronxosqopiyaga qilish, o'pka zotiljamining oldını olish uchun bolani tezda reanimasiya xonasiga yotqizish kerak. O'pka ageneziyası yoki aplaziyası deb tashxis kuyilgan bemorlar uzoq vaqt dispanser kuzatuvida bo'lishlari kerak.

*O'pka gipoplaziyasi* - o'pka hamma elementlarining rivojlanishdan orqada qolishidir (o'pka parenximası va qon tomir, bronxlar). Butun o'pka, o'pka bo'lagi, segment gipoplaziyasi farqlanadi. Gipoplaziya bir va ikki tomonlama bo'ladi. Bitta-ikkita

turganda va ko'p bo'limgan fizik zurayishda o'zgarmasligi mumkin Nafas olish faoliyatini chuqurrok tekshirilganda yurak qon tomir yetishmovchiligi va nafas yetishmovchiligi borligi aniqlanadi. Shuning uchun bunday bolalarni biz sog'lom bolalar deb ayta olmavmiz. Yuqorida o'pka gipoplaziyasining kuruk turi xakida fikr yuritildi. Klinik kechishining boshqa turi yaxshi rivojlanmagan bronx va ulardagi yiring bilan bog'liq.. Bunday bemorlarda kasallikning klinik kechishi bronxoektatik kasallikning klinik ko'rinishidan farq qilmaydi. Balg'am bilan yo'tal davriy xususiyatga ega.

*Bo'lak gipoplaziysi* - O'pka bo'lagi gipoplaziyasining klinik ko'rinishi asosan bo'lakda yiring bor yoki yo'qligi bilan bog'liq.. Agar yiringlanish bo'lmasa, o'pkaning gipoplaziyaga uchragan bo'lagi uzoq, vaqtgacha bilinmaydi. Faqat rentgenologik tekshiruvda yoki operatsiya paytida tasodifan ma'lum bo'ladi. Bemorda gipoplaziyaga uchragan bo'lakda perko'tor tovushning kiskzrishi, nafasning susayishi aniqlanadi va kuks oralig'inining kasal tomonga siljishi kuzatiladi.

*Tashxis.* Rentgenografiyada gipoplaziyaga uchragan o'pka tomonda o'pka maydonining bir xil qorayishi, yurak va diafragma soyasining kushilishi bilan birga kuzatiladi. Zararlangan tomonda kuks oralig'inining surilishi, qovurg'alar orasining torayishi aniqlanadi. Ba'zan mediastinal churra aniq ko'rindi.

Bronxosqopiyada asosiy bo'lak ustunidan yoki segmentar bronxlardan normal yoki anomal ketuvchi bronxlarning birday torayishi va tumtoq tamom bo'lishi aniqlanadi. Yallig'lanish bo'lsa, endobronxitga xos ko'rinish kuzatiladi.

Bronxografiyadagi ko'rinish bosh bo'laklar va segmentar bronxlar gipoplaziyasining darajasiga bog'liq bo'ladi. o'pka gipoplaziyasida deformasiyalangan va qisqargan bo'lak, segmentar bronxlar aniqlanadi. Bronxlar soni normaga to'g'ri kelmaydi.

Angiopulmonografiyada gipoplaziyaga uchragan o'pkaning qon tomir sistemasining norasoliklari aniqlanadi. Ba'zan gipoplaziya tashxisi operatsiya paytida olingan o'pka soxasini gistologik tekshirgandan keyin qo'yiladi.

*Davosi.* Yaxshi rivojlanmagan o'pkada yallig'lanish o'zgarishlari bo'lmasa, bemor davolashga muxtoj emas. Rudimentar o'pkaga yiringli yallig'lanish o'zgarishlari kushilsa, uni olib tashlashga to'g'ri keladi. o'pka gipoplaziysi bilan og'rigan bolalar doimo dispanser kuzatuvida bo'lishi kerak.

*O'pkaning tug'ma lobar emfizemasi (TLE)* — o'pkaning alohida struktur elementlari rivojlanmasligi natijasida paydo bo'ladi. Birdan shishgan zararlangan o'pka bo'lagi sog'lom qismini siqib turadi. Ko'krak ichi taranglashishiga, kuks oralig'inining surilishiga sabab bo'ladi.

Tug'ma lobar emfizemaning kelib chiqishi tog'ay xalqalarining to'liq rivojlanmasligi va ageneziyasi hisobiga, bronxda klapan borligi, bronx shilliq kavatining giperetrofiyasi, stenoziga bog'liq.

Patomorfologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, bu kasallikka ko'proq quyidagilar sabab bo'ladi:

1. Terminal va respirator bronxial shilliq muskul aplaziyasi.
2. Mayda bo'laklar va respirator bronx kistalarining oraliq generasiyasi yo'qligi.
3. Butun respirator bo'lakning ageneziyasida ko'pgina mikrosqopik bo'shlqlar borligi.

*Klinika.* Kasallik o'tkir, o'rtacha o'tkir, surunkali kechadi. Oxirgi ikki turi ko'pincha maktab yoshidagi bolalarda aniqlanib, yengil xansirash, tez charchash bilan ifodalanadi.

Tug'ma lobar emfizemasining kompensasiyalangan turi bola tug'ilganda aniqlanadi va ko'p qaytalanuvchi asfiksiya xuruji bilan kuzatiladi. Nafas olish tez, ko'krak qafasida asimmetriya, zararlangan tomon bir oz burtib turadi.



*3-rasm. Chap o'pkaning yuqori bo'lagi tug'ma lobar emfizemasi. Emfizematoz kengaygan o'pka bo'lagida o'pka tasviri kuzatilmaydi. Kuks oraligi organlari o'ngga*

*siljigan, qarama-qarshi tomonda tiniqlik kuchaygan bo'ladi (3-rasm).*

Chaqaloqlarda TLE klinikasi bola hayotining dastlabki 2—3 xafasida, ba'zan birinchi soatlari, kunida aniqlanadi. Kasallik o'tkir, ko'pincha zotiljam, respirator virusli infeksiya ko'rinishida rivojlanadi. TLE ugpsadagi taranglik sindromi, o'tkir nafas yetishmovchiligi, xansirash, sianoz, taxikardiya kasallikka xos belgilar hisoblanadi. Bola bezovtalanadi, ko'krak qafasining zararlangan tomoni shishadi. Kuks oralig'i keskin siljiydi, perkussiyada timpaniq tovush eshitiladi. Auskultasiyada nafas eshitilmaydi. Rentgen tashxisga aniqlik kiritadi. Rentgenda kuks oralig'i siljigan, qarama-qarshi tomonda tiniqlik kuchaygan bo'ladi (3-rasm).

Rentgen tasvirida o'pkaning kuks oralig'iga yaqin yuqori, quyi bo'limlarida uchburchak shaklli qorayishlarni ko'rish mumkin, ya'ni bu soxalar siqilgan, kollapsga uchragan o'pka parenximasidir.

Sog'lom o'pka kisilgan, kuks oralig'inining qarama-qarshi tomonga surilgan subkompensilashgan turida klinik belgilari yangi tugalgan chaqaloqning so'ngti davolariga to'g'ri keladi. O'zgarishlar sekin-asta rivojlanadi. 1 oydan 3 oygacha sianoz xurujlari qisqa bo'ladi. Rentgen tasvirida o'pka tiniqligining pasayganligi va o'pka tasvirining butunlay yo'qligi kuzatilishi mumkin.

Kasallikning kompensasiyalangan turi asosan kattarok, bolalarda uchraydi va rentgen tasvirida o'pka maydoni tiniqligining oshishi, kuks oralig'inining surilishi kuchsiz ifodalanganligi aniqlanadi. Solishtirma tashxis taranglashgan pnevmotoraks, taranglashgan o'pka kistasi, diafragma 7 churtasi, bronx yot tanachalar emfizemasi, pnevmoniyadagi kompensator emfizema bilan o'tkaziladi.

Pnevmotoraks bilan solishtirma tashxis tomografiyaga asoslanadi. Bunda tiniq, fonda noziq o'pka surati ko'rindi. Shubxalangan xollarda plevra punksiyasi qilinadi, bunda pnevmotoraksda havo olinadi, emfizemada havo olib bo'lmaydi.

Bronxosqopiya va bronxografiya ko'pincha tekshirish usuli sifatida kompensasiyalashgan, ba'zan subkompen-sirlashgan turlarida qo'llash mumkin.

Angiopulmonografiya subkompensasiya va kompensasiyali turida o'tkazish mumkin (4-rasm).


Tug'ma lobar emfizemada radioizotop tekshirish va kompyuter tomogrammasi juda to'liq ma'lumot beradi (5-rasm).



4-rasm

*Angiopulmonogramma  
o'pkaning zararlangan  
bo'lagida qon-tonir lar  
tasviri aniqlanmaydi.*

to'liq ma'lumot beradi (5-rasm).



*5-rasm. Tug'ma lobar emfizemada radioizotop tekshirish usuli.*

Davosi. Tug'ma bo'lak emfizemasi davolash usuli radikal operatsiya, ya'ni zararlangan bo'lakni olib tashlashdan iborat. Dekompensasiyalashgan turida xirurgik aralashuvni kechiktirib bo'lmaydi. Subkompensasiyalashgan turda operatsiya muddati bemor axvoliga qarab belgilanadi. Kompensasiyalashgan turlarida operatsiya rejali ravishda qilinadi.

Radikal operatsiya endotracheal narkoz ostida olib boriladi. Ko'krak qafasiga 5 kovurta oralig'i old-yon tomondan kiriladi. Plevra buligiga extiyotkorlik bilan kiriladi. Operasiyaning qiyinligi shundaki, shishgan o'pka bo'lagi plevra bo'shlig'inining hammasini egallab, o'pka darvozasi soxasida manipulyasiyaga xalaqit beradi. o'pkaning zararlangan soxdsi jarohatga kiritilib, iddizi ajratiladi va UKL yoki UO apparati bilan ishlov beriladi.

**O'pkaning tug'ma kistasi.** Bolalar o'pkasida kista va kistasimon xosilalar kam uchraydi, lekin tug'ma kistalar uchrashi sonini aytish qiyin. Chunki tug'ma va orttirilgan xosilalarning klinik va rentgenologik ko'rinishi o'xhash bo'ladi.

Tug'ma kistalarning kelib chiqishi embrional davrida bronx va alveolalar rivojlanishining buzilishi bilan bog'liq. Embriogenezning Boshlang'ich davrlarida rivojlanishining buzilishi hisobiga ko'proq bitta katta kista xosil bo'ladi. Kech davrlardagi buzilish ko'plab mayda kistalar (polikistozlar) paydo qiladi. Kistalarga yigilgan shilliq moddalar hisobiga uning kattalashishi atrof bronxlar kisilishiga, deformasiyasiga, bronx ko'rtaklarining noto'g'ri rivojlanishiga olib keladi.

Tug'ma kistalar aniq kobikka ega bo'lib, ko'pincha bronx bilan tutashgan bo'ladi. Bu tutash joy minimal bo'lishi mumkin, kirish joyi tor, egri-bukri yoki tor, qiyshiq. Uning o'tkazuvchanligi doimiy emas va oson beqilishi mumkin. Tug'ma kista devorini gistologik tekshirganda bronx elementlarining silliq muskul tolalari aniqlanadi. Kistaning ichki yuzasi

epiteliy bilan qoplangan. Ortirilgan kistalar uchun bu belgilar harakterli emas.

**Klinikasi.** Klinik nuqtai nazardan kistalar asoratsiz va asoratlari bo'ladi.

Asoratsiz tug'ma kistalar kam uchraydi. Ularning kechishi simptomisiz, faqat tasodifan rentgenologik tekshiruvda aniqlanadi. Bolalarda simptomsiz tug'ma kistani orttirilgan havo kistalari (bulla) bilan ko'p solishtirishga to'g'ri keladi.

Pnevmoniyada havo bo'shliqlarining rentgeni aniq dinamika bilan ifodalanadi. Ular o'zining o'lchamini o'zgartirishi, yo'qolishi va paydo bo'lishi mumkin. Ko'pincha rentgenosqopiyada stafilokokk kistalari nafas olganda o'zining o'lchamini o'zgartirishi kuzatiladi. Bunday paytda tug'ma kista qon turlari stabil bo'ladi. Stafilokokk kistalari 1—3 oy mobaynida o'z-o'zidan yo'qolib ketishi mumkin. Ba'zi hollarda ular bunday kistalar klinik, rentgenologik va morfologik tomondan tug'ma kistadan farq qilmaydi.

**Tashxis.** O'pkada tug'ma kista bo'lsa, bronxografik tekshirish zarur. Bronxografiyada kistaning joyi va o'pkaning hamma soxasida bronxial daraxt holatini aniqlash mumkin. Bu operatsiya xajmini aniqlash uchun kerak bo'ladi. Asoratsiz kistalarni bola bir yoshdan oshganda operatsiya kdlish mumkin.

Ko'proq asoratlari kistalar uchraydi. Kistaning yiringlashi har qanday yoshda kuzatilishi mumkin. Shu bilan birlga tug'ilgandan keyin ham

yiringli jarayonga xos klinik simptomlar bo'ladi: yuqori harorat, intoksikasiya, leykositoz va rentgenologik tasvirda ba'zan bir nechta suyuqlik satxi bilan yumshoq shakldagi bo'shliqlar aniqlanadi. Rentgenografiyada va ayniqsa tomografiyada kista kapsulasi aniq ko'rinish turadi (6-rasm).

Tug'ma yiringlagan kistalarni hamma vaqt o'pka stafilokokkli destruksiyasining xar xil turlari bilan solishtirma tashxis o'tkaziladi (birinchi navbatda assess va piopnevmotoraks bilan). Klinik



**6-rasm. o'ng o'pkaning yiringlagan tug'ma kistasi.  
Obzor rentgenogramma.**

ko'rnishdagi farqi: o'tkir stafilokokkli destruksiyada nafas yetishmovchiligi belgilari kuchliroq ifodalangan bo'ladi o'pka to'qimasida jarayonning tez tarqalishi kuchli xansirashga olib keladi. Tug'ma yiringlagan kistalarda uzoq vaqt rivojlanish nuqsoni bilan birga yordamchi mexanizmlar va tashqi nafas faoliyatining kompensasiyasi ishga to'shadi. Rentgenda kapsula borligi va perifokal reaksiya yo'qligi tug'ma kistani stafilokokkli absseyesdan farq qilishga imkon beradi. Piopnevmotoraksda sinusda ekssudat aniqlanadi. Tug'ma yiringlagan kistada sinus bo'sh bo'ladi, agar kista plevral bo'shlig'iga yerilmagan bo'lsa, kuks oralig'inining surilishi kam ifodalanadi. Tug'ma yiringlagan kistani davolashning turi usuli operatsiya hisoblanib, u o'pkaning kista bor soxasini rezeksiya qilishdan iborat.



*7-rasm. O'ng o'pkaning taranglashgan tug'ma kistasi*

*Taranglashgan* O'pka kistalari kam uchraydi. Buning sababi kista bilan bronx to'tashuv joyida klapanli mexanizm borligidir. Klinik ko'rinishi o'tkir nafas yetishmovchiligi bilan ifodalanadi. Fizikal natijalar taranglashgan pnevmotoraksga xos bo'ladi.

Rentgen tasvirida kista qonturlarini aniqlash mumkin (7-rasm).

Solishtirma tashxis taranglashgan pnevmotoraks, tug'ma bo'lak emfizemasi, diafragmal churra bilan o'tkaziladi.

Taranglashgan pnevmotoraks bolalarda stafilokokkli zotiljam natijasida kelib chiqadi va yuqori haroratli intoksikasiya bilan kechadi. Tug'ma kistalarda taranglashish birdan kelib chiqadi. Diafragmal churra rentgenologik farqlanadi. Buning uchun ko'krak qafasida ko'plab xalqasimon soyalar borligi xarakterlidir. Ichak kovuzloklarining o'tishi ko'krak qafasi hisobiga bo'ladi va tashxis me'da-ichak yo'llarini bariy eritmasi bilan tekshirgandan keyin tasdiqlanadi.

churra rentgenologik farqlanadi. Buning uchun ko'krak qafasida ko'plab xalqasimon soyalar borligi xarakterlidir. Ichak kovuzloklarining o'tishi ko'krak qafasi hisobiga bo'ladi va tashxis me'da-ichak yo'llarini bariy eritmasi bilan tekshirgandan keyin tasdiqlanadi.

*Davosi.* Taranglashgan kistalar faqat operativ usul bilan davolanadi. Operasiya oldidan Ko'krak qafasining taranglashishini kamaytirish maqsadida kistani drenajlash yoki punksiya qilish joyi aniqlanadi. Operasiyaning xajimi kista kapsulasini birga olib tashlash bilan belgilanadi. Jaroxat yuzasi atravmatik nina bilan tiqiladi. Ba'zan lobektomiya yoki segmentar rezeksiya qilishga to'g'ri keladi. Operasiyadan keyin plevral bo'shliq drenajlanadi.

*O'pka o'smalari.* Bolalarda o'pka o'smalari kattalarga nisbatan kam uchraydi.

Xavfsiz o'smalar joylashishi va klinik kechinshiga qarab markaziy va periferik o'smalarga ajratiladi. Markaziy o'smalar bosh, bo'lak va segmentar bronxlarda joylashadi. Periferik o'smalar parenxima ichiga joylashadi.

O'pka o'smalarining V.I. Struchkov va A.V. Grigoryan ishilab chiqqan tasnifi ko'proq tarqalgan, bu tasnifga ko'ra epitelial, mezodermal va tug'ma o'smalar uchraydi. Epitelial o'smalarga bronx papillomasi va adenomasi kiradi. Mezodermal o'smalar fibroma, lipoma, mioma, nevrogen va qontomir o'smalaridan (gemangioma, limfangioma o'smalari) iborat.

Bolalarda *epitelial o'smalardan* ko'proq bronx adenomasi uchraydi. Ular asosan bosh va bo'lak bronxlarda joylashadi. Katta-kichikligiga qarab, bronx o'tkazuvchanligining buzilishnga sabab bo'ladi. Natijada bo'lak gipoventilyasiysi yoki uning atelektazi kuzatiladi. Bronx adenomasining klinik ko'rinishi o'smaning joylashishiga, bronx o'tkazuvchanligining buznlish darajasiga, kech muddatlarda obturasiyalangan bo'lakning yiringlash og'irligiga bog'liq.

Boshlang'ich davrda kasallikning birdan-bir klinik simptomi quruq yo'tal hisoblanadi. Kech muddatlarda to'liq, obturasiya boshlangandan keyin yallig'lanish jarayoni kelib chiqadi. Bolada balg'am ajralishi ba'zan qon aralash bo'ladi. Bronxosqopiyada o'sma joylashish joyi, xajmi, bronx tiqilish darjasasi aniqlanadi. o'sma oq pushti yoki pushti rang bo'lib (ba'zan qon aralash) yuzasi qon-tomirlar turi bilan qoplangan bo'ladi. Bronxoskop bilan o'sma bosilsa, tez qonab ketishi mumkin. Shilliq qavat odatda o'zgarmagan. Adenoma oyoqchasi keng, kamdan-kam ingichkadir. o'sma keng oyoqchali bo'lsa kam harakatchan, uzun bo'lsa harakatchan bo'ladi.

Bronx tiqilib (obturasiya bo'lib) qolganda, bronxografiya o'pkaning pastki qismlari holatini bilishga yordam beradi. Bronx to'liq obturasiya bo'Imaganda qontrast modda adenomalan oqib o'tib (bronxning tulish

defekti), bo'lak bronxial daraxtiga to'shadi. U yerda ko'pincha bronxoektazlar topiladi. To'liq obturasiya bo'lganda «Bronx kulti» simptomni aniqlanadi. Xirurgik muolaja o'sma xajmi, bronx o'tkazuvchanligining buzilish darajasi va bronxial daraxt, o'pka parenximasi pastki qismlarining holatiga qarab belgilanadi.

Ko'proq bronx soxasini o'sma bilan birga ponasimon rezeksiya qilish qo'llanadi. Agar bronxoektaz va deformasiyalangan bronxit bo'lsa, unda bo'lakni rezeksiya yoki Butun o'pkani ektomiya qilinadi.

Bolalarda *mezodermal xavfsiz o'smalar* orasida ko'krak qon-tomir o'smalari (kavemoz va kapillyar gemangioma va ba'zan arterial-venoz anevrizm) va nevrogen o'smalari uchraydi. Kavemoz gemangioma ko'pincha pastki bo'laklarda joylashadi. Gemangioma bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda uning xajmi ham har xil 2 dan 10 sm gacha bo'ladi.

O'sma — o'pka parenximasi tubida yoki plevra ostida joylashadi. Boshlang'ich bosqichlarda xech qanday klinik simptom kuzatilmaydi. Shuning uchun o'sma rentgenologik tekshiruvdagina aniqlanadi. Kechki muddatlarda o'smaning bronx bushligaga o'sishi hisobiga oldin quruq yo'tal, keyinchalik balg'am bilan, ba'zan aralash nam yo'tal kuzatiladi. o'sma kattalashib ketgan xollarda o'pka yetishmovchiligi va qo'shni a'zolar ezilishi kelib chiqadi. Angiopulmonografiya operatsiyagacha aniq tashxis qo'yishga yordam beradi. Xirurg o'sma xajmi va joylashishiga qarab ish tutadi. Kavemoz gemangioma kichik xajmda plevra ostida joylashganida o'pka kirrasi tejab rezeksiya qilinadi. Agar parenxima chuqurligida joylashsa, zararalangan bo'lak olib tashlanadi.

*Nevrogen o'smalar.* Periferik nerv kavatlaridan kelib chiquvchi o'smalar ko'proq aniqlanadi. o'smalar o'pka va ba'zan bronx ichiga joylashishi mumkin. o'smalar yumaloqshaklda va xususiy kapsulaga ega. Klinik belgilari bo'lmaydi. Odatda nevrogen o'smalar rentgenologik tekshirishlarda aniqlanadi. Rentgenda va tomogrammada yumshoq shaklda chekkalari aniq gomogen qorong'ilashish ko'rindi.

Bronx ichiga joylashgan o'smalarda bronx o'tkazuvchanligi buzilishi hisobiga o'pka bo'lagi gipoventilyasiysi va keyinchalik ikkilamchi yallig'lanish o'zgarishlari rivojanadi. o'sma bronxosqopik tekshirishda aniqlanadi. o'pka ichida joylashgan nevrinomalarni exinokok bilan solishtirma tashxis qilinadi. o'sma o'pka ichida joylashgan xollarda segmentar rezeksiya ko'rindi. Agar bronx ichida joylashgan bo'lsa, lobektomiya qilinadi.

*Tug'ma o'pka o'smalari* orasida ko'proq gamartoma uchraydi. Gamartomani morfologik tekshirganda ko'p miqdorda tog'ay to'qimalan aniqdanadi. U siyrak biriktiruvchi to'qima bilan ajralgan bo'ladi. Ba'zan tog'ay to'qimalarining oxaklanib suyak to'qimasiga o'tish joylari aniqdanadi. o'sma tarkibida boshqa to'qimalar va a'zolar bo'lishi mumkin (yer, silliq, mushak to'qimalar va boshqa). Gemartoma har qanday yoshda uchraydi. Ko'proq o'pka periferiyasi-da, kamroq, markazda joylashadi. Gemartoma xajmi har xil bo'ladi, ba'zan Butun o'pkani egallashi mumkin. Klinik tomondan sekin o'sishi hisobiga xech qanday alomatlar kuzatilmaydi. o'sma kattalashgandan keyin bemorda yo'tal, ko'krak qafasida ogris paydo bo'ladi. Gemartoma ko'pincha rentgenologik tekshirishlarda tasodifan aniqlanadi. Rentgen va tomografiyada aniq qonturli yumaloq, shaklda o'sma soyasi ko'rindi. Davolash maqsadida xirurgik usul bilan o'pkani shilib ajratib olinadi. Ba'zan segmentar rezeksiya yoki o'pka bo'lagi olib tashlanadi. o'smaning yuqoridagi turlarini limfagranulema, adenomatoz, ko'krak bo'shlig'i o'smalari va o'pkaning xavfli o'smalari bilan solishtirma tashxis kdpinadi. o'pkaning xavfli o'smalari bolalarda kam uchraydi. Ko'pincha bolalarda differensiyalashmagan modulyar mayda xujaytali bronxogen rakka tashxis qo'yiladi. o'sma turli yoshdagi bolalarda uchraydi. Xavfli o'smalar — embrional xujayralardan yoki diffyorensiyalashmagan qoldiq, xujayralardan xosil bo'ladi. Klinik kechishida asoratlar kelib chiksa (qon ketish, pnevmotoraks, atelektaz va boshqalar) yoki o'sma kattalashib ketsa, bemor axvoli og'irlashadi. Kasallikning dastlabki belgilari: quruq yo'tal, ko'krak qafasida org'iq, xansirash kuzatiladi. Keyinchalik plevral bo'shliqda suyuqlik yig'iladi. Bu davrda rentgenogrammada chegaralari noaniq, nogomogen qorong'ilashish aniqlanadi. Ba'zan atelektaz va gidropnevmotoraks kuzatilishi mumkin.

O'smalar endobronxial joylashganda bronxial shilliq kavati oz-moz qonaydi, bronx obturasiyasi (yoki devorining) infiltrasiyasi aniqlanadi.

*Traxeya stenozlari* birlamchi va ikkilamchi bo'lishi mumkin. Birlamchilariga traxeyaning tug'ma nuqsonlari — traxeya stenozi yoki uning membranasi kiradi. Klinik belgilaridan inspirator xansirash va stridor kuzatiladi. Traxeosqopiyada tomografiyadan keyin yakuniy tashxis qo'yiladi.

Ikkilamchi traxeya stenozlari turli turma nuqsonlar, o'smalar yoki anomal rivojlangan qon-tomirlar tomonidan traxeyaning siqilishi natijasida kelib chiqadi.

## MAVZU BO'YICHA TESTLAR.

1. Dekompensasiyalangan tug'ma lobar emfizemaning asosiy klinik belgilari:
  - a) yo'tal
  - \*b) sianoz
  - v) gipertermiya
  - g) balg'am ajratish
2. Tug'ma lobar emfizemaning davolashi nimadan iborat?
  - a) qonserativ davolash
  - b) pulmonektomiya
  - v) torakosentez
  - \*g) o'pkaning zararlangan qismini rezeksiya qilish.
3. Ko'krak qafasi rengenogrammasida o'ng tarafning total soyalanishi va kuks oralig'i a'zolarini zararlangan tarafga siljishi aniqlanadi Sizning diagnoz:
  - a) total piotoraks
  - b) taranglashgan piopnevmotoraks
  - v) plashsimon piotoraks
  - \*g) o'pka atelektazi.
4. Ko'krak qafasi rengenogrammasida o'ng tarafning total soyalanishi va kuks oralig'i a'zolarini zararlangan tarafga siljishi aniqlanadi Sizning diagnoz:
  - \*a) total piotoraks
  - b) taranglashgan piopnevmotoraks
  - v) plashsimon piotoraks
  - g) o'pka atelektazi.
5. O'pkaning tug'ma kistasini davolash usuli:
  - a) kista punksiyasi
  - b) kistani drenajlash
  - \* v) o'pkani kistali qismini rezeksiya qilish
  - g) qonserativ davo.
6. O'pka ageneziyası diagnozi qaysi tekshirishga asoslanib qo'yiladi?
  - a) klinik ko'rikka
  - \* b) bronxosqopiya va bronxografiya
  - v) plevral punksiyaga
  - g) spirometriyaga

7. Quyidagi kasallikklardan qaysi biri nafas yetishmovchiligi sindromi bilan kechadi?
- a) taranglashgan piopnevmotoraks
  - b) soxta diafragmal churra
  - v) o'pkaning taranglashgan tug'ma kistasi
  - g) tug'ma lobar emfizema
  - \*d) hammasi.
8. Chin diafragmal churraga kirmaydi:
- \*a) Bogdalek Churrasi
  - b) parasternal churralar
  - v) diafragma relaksasiyasi
  - g) Qizilo'ngach I teshigi churralari.
9. Diafragmal churralarning eng informativ tekshirish usuli:
- a) obzor rentgenografiya
  - \*b) bariy eritmasi yordamida rengenoqontrast tekshirishi
  - v) torakosqopiyasi
  - g) angiopulmonografiya.
10. Diafragmal churraning qaysi turida shoshilinch operatsiyaga ko'rsatma bo'ladi?
- a) diafragma relaksasiyasida
  - b) Qizilo'ngach I teshigi churrasida
  - \*v) soxta diafragma churrasida
  - g) parasternal churrada.

### **O'Z -O'ZINI TEKSHIRISH UCHUN TESTLAR.**

1. Pyer – Robinson sindromini asorati.
- a) spazmolitik kiritish
  - b) tilning orqaga ketishi
  - v) no'tkning buzilishi
  - g) ko'rishning buzilishi
  - d) burun yo'llarining torayishi
2. Lobar emfezemaning dekombinasiya shaklining asosiy simptomi.
- a) yo'tal
  - b) sianoz
  - v) gipertermik
  - g) quşish
  - d) balg'am ajritishi.

3. Tug`ma bo`lak emfezemaning optimal davolash usuli.
- a) qonservativ
  - b) o`pkaning emfezematoz bo`lagining punksiyasi
  - v) pulmoektomiya
  - g) zararlangan o`pka bo`lagini olib tashlash
  - d) belau bo`yinga torokosintez
4. 2 tomonlama bronxoektoziyani optimal davolash usulini toping.
- a) qonservativ
  - b) pulmoektomiya
  - v) bronxoektoziya
  - g) belau buyiga torokosentez
  - d) lob ektomiya
5. O`pkaning drenajlanuvchi abssessini optimal davolash usuli.
- a) torokosintez
  - b) bronxosqopik drenajlash
  - v) pulmonoektomiya
  - g) punksion davolash
  - d) drenaj holat berish.
6. Bo`lak bronxlardagi yot jismning rasional usuli.
- a) plevra bo`shlig`ini drenajlab, torokotomiya qilish
  - b) o`pka to`qimasini torokotomiyadan keyin reviziya qilish
  - v) yo`tal refleksini kuchaytirish
  - g) bronxosqopiya
  - d) torokotomiya
7. Taranglashgan piopnevmotoraksning davolash usuli
- a) plevral punksiya
  - b) plevra bo`shlig`i aktiv aspirasion drelatlash
  - v) plevra bo`shlig`ini byo`lau bo`yicha drenatlash
  - g) radinal operatsiya
  - d) bronxosqopiya
8. 1 oylik bolada o`ng tomonlama nafas olish yo`q. Perkussiyada tumtoqlik, bronxosqopiyada o`ng bosh bronx ko`p bo`lgan tashxis qo`ying.
- a) o`pka gipoplaziyasi
  - b) o`pka aplaziyasi
  - v) aganeziya
  - g) atelentaz
  - d) kistozli gipoplaziyasi.

9. 6-oylik bolaning o'pkasi rentgenologik tekshirilganda kistozli xosila aniqlanadi. Xolati qonikarli nafas yetishmovchiligi belgisi yo'q sizning taktikangiz

- a) kutish
- b) operativ davolash
- v) sanator davolash
- g) drenajlash
- d) qonservativ

10. Bolada o'pka kistasi plevra bo'shlig'iga yorilib asoratlandi. Qaysi davolash usuli to'g'ri.

- a) qonservativ
- b) operativ
- v) belau buyiga drenajlash
  - g) kuchayuvchi mediostikal emfizema
  - d) perikardit
25. Bo'lak bronxlardagi yot tananing rasional usuli.
- a) plevma bo'shlig'ini drenatlab toronotomiya qilish
  - b) o'pka to'qimasini torokotomiyadan keyin reveziya qilish
  - v) yo'tal refleksini kuchaytirish
  - g) brontosqopiyta
  - d) toronotomiya
26. Destruksiyani bullyozli formasini to'g'ri davolash usulini tanlang (taranglashgan bulla).
- a) bullani punksiya qilish
  - b) uchokka
  - v) bullani drenatlash
  - g) plevral punksiya
  - d) bronkosqopik drenat
27. O'tkir destruktiv plevmaniyanı qaysi formasida amunerik nafas eshitilmaydi
- a) bulla
  - b) fibrinen plevrit
  - v) drenatlanuvchi abscess
  - g) eksudativ plevrit
  - d) kista
28. O'tkir destruktiv plevmoniyani o'pkadan tashqari formasini ko'rsatining.
- a) piotoroks
  - b) gigant osiluvchi abscess
  - v) ekinoqonning yigilgan kistasi
  - g) o'pka senvestrasiyasi
  - d) o'pkaning tug'ma kistasi
29. O'tkir destruktiv plevmoniyani o'pkadan tashqari formasini ko'rsatining.
- a) piotoroks
  - b) gigant osiluvchi abscess
  - v) ekinoqonning yigilgan kistasi
  - g) o'pka senvestrasiyasi
  - d) o'pkaning tug'ma kistasi

30. Ko'krak nafasini obzor rentgenografiyasida «mediostikal churra» uchun harakterli.
- a) taranglashgan pionnevmotoraks
  - b) taranglashgan piotoroks
  - v) yayegaralangan piotoroks
  - g) kuchayuvchi mediostikal emfezema
  - d) perikardit
31. O'pka ageneziyasi diagnozi nimaga asoslanib qo'yiladi.
- a) klinik kartina
  - b) bronkosqopiya, - grafiya
  - v) sitologik tekshirish
  - g) plevra bo'shlig'i punksiyasi
  - d) spirametriya
32. O'pka bo'lak kistasini optimal davolash usuli
- a) qonservativ
  - b) kistani drenatlash va punksiyasi
  - v) o'pka bo'lagi va kista saklagan jismini rezensiyasi
  - g) pulmonektomiya
  - d) toronosentez po byo'lau
33. O'pkaning yiringlagan ekipononk kistani davolash optimal usuli.
- a) qonservativ
  - b) zudlik bilan sistektomiya
  - v) kistani drenatlash va punksiya qilish
  - g) Byo'lau buyiga drenatlash va toronosentez
  - d) toronosentez bilan aktiv aspirasion
34. Lobar emfizemada qanday perno'tor tovush aniqlanadi.
- a) o'tmas tovush
  - b) ko'tigasimon
  - v) perko'tor tovushning qisqarishi
  - g) tumtoqlashish
  - d) aniq o'pka tovushi.
35. Bronkoektatik o'pka asosiy diagnostika metodi.
- a) bronkografiya
  - b) bronkosqopiya
  - v) Ko'krak nafasini obzor rentgenografiyasi
  - g) UZI
  - d) tomografiya

36. Quyidagi keltirilgan keraklaridan qaysi biri o'tkir nafas yetishmovchiligin beradi.
- a) chegaralangan piotoraks
  - b) Qizilo'ngach I teshigidagi diofrogmal churra
  - v) tug`ma bo'lak emfezemasi
  - g) taranglashmagan bulla
  - d) chegaralangan plevmotoroks
37. Nafas yo'llaridagi yot jismlar qaysi kasalliklarnikeltirib chikaradi.
- a) atelektaz
  - b) ageneziya
  - v) bronxoektaziya
  - g) piotarks
  - d) bulla
38. Ko'krak nafasini R – grafiyasida o't o'pkaning o'rta bo'lagida aniq chegaralangan yumaloq soya perefokal reaksiyasi bilan sizning diagnozingiz?
- a) bulla
  - b) o'pka absess
  - v) o'pka kistasi
  - g) o'pka atelektaz
  - d) piotoraks
39. Ko'krak nafasini R – grafiyasida perikardga xos manzarani aniqlang.
- a) Ko'krak a'zolarini o'nga siljishi
  - b) Ko'krak a'zolarini chapga siljishi
  - v) yurak chegarasini chapga kengayishi
  - g) Ko'krak a'zolarini o'nga kengayishi
  - d) yurak chegarasini hamma tomonga siljishi.
40. Piopnevmotoroksga xos perko'tor tovush.
- a) suyuqlik ustida tumtoqlik
  - b) suyuqlik ustida ko'tigasimon tovush, havo ustida tumtoqlar
  - v) abscess ustidagi tumtoqlik
  - g) abscess ustidagi timponit
  - d) suyuqlik ustida, havo ustida timponik
41. Taranglashgan bullani yorilishini eng xavfli asorati.
- a) O'sib boruvchi mediosternal emfezima
  - b) piotoroks
  - v) piopnevmotoroks
  - g) bullaning yiringlashi

- d) bullaning surilishi
42. Bulla bu-
- a) plevra bo'shlig'ida chegaralangan havoli bo'shliq
  - b) kuks oralig'ida havo bo'shlig'i
  - v) o'pkadagi havoli bo'shliq
  - g) drenatlangan abscessning ishdagi havo
  - d) Ko'krak nafasida teri ostida havoning bo'lishi.
43. O'sib boruvchi mediostinal emfezimaning rasional davolash usuli.
- a) torokotomiya
  - b) suprayugulyar mediostikotomiya
  - v) plevradan tashqari kuks oralig'ini ochish
  - g) tush suyagi orqali bilish
  - d) toronosentez
44. O'pka ageneziyasida bu-
- a) bronklarning bo'lmasligi, o'pka to'qimasi va o'pka qon tomirlarini bo'lmasligi
  - b) rudimentar bronklarni bo'lishi
  - v) bronk va qon tomir o'pka to'qimasini rivojlanmasligi
  - g) qon-tomirlar va o'pka I-masini bo'lishi, bronxlarning bo'lmasligi
  - d) qo'shimcha o'pka bo'lagini bo'lish
45. O'pka R - grafiyasida destruksiyaga o'tish davriga harakterli.
- a) yumaloq shakldagi qorayish
  - b) yumaloq shakldagi yruglanish
  - v) suyo'qlar sotxa bilan yumaloq soya
  - g) o'pkani qorayishi
  - d) chegaralangan havoli bo'shliq
46. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda bezovtalik natijasida sianoz xosil bo'lishiga sabab nima.
- a) Qizilo'ngach I - traxeya oqmasi
  - b) Ko'krak nafasini varonkasidan deformasiyasi
  - v) subdural gelnetoma
  - g) diofragmal churra
  - d) 2ta xaftha rovogini
47. Diofragmal churrani yetakchi belgisi tug'ma.
- a) nafasni buzilishi
  - b) ovqat xazimni buzilishi
  - v) siydirajjalishi buzilishi
  - g) yurak - tomir sistemasining buzilishi

- d) ko'krak nafasi deformasiyasi
48. Qirlo'ngach teshigi churrasi uchun harakteli belgi.
- a) qonsirgen
  - b) qon aralash quşish
  - v) o't aralash quşish
  - g) yo'tal
  - d) yurak yetishmovchiligi
49. Yolg'on diofragmal churraning harakterli belgisi.
- a) sudorogi
  - b) gipertermiya
  - v) nafas yetishmovchiligi
  - g) buyrak yetishmovchiligi
  - d) yurak to'tilish belgisi
50. Diofragma churrasi bu-
- a) o'pkani qorin bo'shlig'iga siljishi
  - b) kuks a'zolarini kasal tomonga siljishi
  - v) kuks a'zolarini sog tomonga siljishi
  - g) qorin bo'shlig'i a'zolarining Ko'krak bo'shlig'iga siljishi
  - d) kuks a'zolarining qorin boshligiga siljishi.

## Mavzu bo'yicha vaziyatli masalalar

1. 1,5 oyli chaqaloqda to'satdan nafas olishning qiyinlashuvi kelib chikdi. Oldin xech narsa bezovta kilmagan Tugilishi va homiladorlik tinch kechgan. Perkussiyada chap tomondan o'rtaligida pastki qismlarda tipanit aniqlanadi, auskultasiyada chap o'pkaning yuqori qismida nafas o'tadi, pastki qismida esa -o'tmaydi, o'ng tarafda – dagal nafas va biroz xirillashlar bor. Yurak tonlari baland, o'ng tamonga yaqin eshitiladi. Tana harorati normada. Sizning taxminiy tashxisingiz, tekshirish rejasi va davolash taktikangiz?

- Chap o'pkaning tug'ma taranlashgan kistasiga gumon
- Ko'krak qafasining 2-proyeksiyada rengen tekshirish va bronxosqopiyaga qilish kerak
- Tashxis tasdiqlansa- rejali operatsiya.

2. Bola 1-homiladorlikdan, 3600 g tana vaznida asfiksiyada va qisqichlar yordamida tug'ildi. Kindik tomirlariga Persianinov usulida dori-darmonlar yuborilgandan va 5min.davomida IVL yerdamidan so'ng yig'ladi. 20 min dan so'ng ikkilamchi asfiksiya paydo bo'lib teri sianozi va nafasi 1 mino'tda 100 gacha tezlashdi. Perkussiyada o'ng o'pka ustida timpanit aniqlanadi, auskultasiyada o'ngda nafas o'tmaydi, yurak tonlari bugik, chapgi oldingi aksilyar chiziq bo'ylab eshitiladi, taxikardiya 200-ta. Sizning taxminiy diagnozingiz? Qo'shimcha tekshirish usuli? Davolash taktikasi?

- Spontan taranglashgan pnevmotoraks
- Ko'krak qafasi rentgenografiyasi.
- Plevral bo'shlig'ini funksiya yerdamida havoni olish.

3. Chaqaloq uz vaqtida 3000gr.vazmda Apgar bo'yicha 7-8 ballda tug'ildi. 6 soatdan so'ng akrosianoz, umumiy sianoz, nafas olish qiyinlashish va 80-gacha tezlashishi paydo bo'ldi. Ko'krak qafasi bochkasimon tula, perkussiyada chap tomonda timpanit, o'ng tomonda – o'pka tovushi eshitiladi, auskultasiyada chapda nafas juda sust. Yurak tonlari bugik, ChSS-160ta.

Sizning tashxis, tekshirish usuli va davolash taktikasi?

- Chap o'pkaning yuqori bo'lagi tug'ma lobar emfizemasi.
- Ko'krak qafasi rengenografiyasi va radioizotop tekshirish.
- Rejali operatsiya qilish.

4. Chaqaloq 1-homiladorlikdan, tana vazmi 3100gr tug'ilgan, birdaniga yiglagan. 5 min dan so'ng asfiksiya boshlanib sun'iy nafas olishga o'tkazildi. Ko'rganda chap tamonda ko'krak qafasi kattargan, nafas olishi qiyinlashgan. Auskultasiyada chapdan nafas o'tmaydi, o'ngda – pueril nafas. Perkussiyada chapdan ba'zi zonalarda timpanit va ba'zda bug'iq tovush aniqlandi. Yurak tonlari bugik, 1 mino'tda 180 ta, o'ng o'rta umrov chizig'i bo'ylab eshitiladi. Qorni yumshoq, tortilgan, meqoniy chiqqan. Sizning tashxis. Tekshirish usuli va davolash taktikasi?

- Tug`ma chap tomonlama diafragmal churraga gumon qilinadi.

- Ko'krak qafasini obzor rentgenografiyasi 2-proyeksiyada va rentgenoqontrast tekshirish.

- operatsiya oldi tayyorgarlik va operatsiya.

5. 7-yoshli bola oxirgi 2-yil bir-necha bor o'ng o'pka pastki bo'lagi pnevmoniysi bilan davolangan. Ko'krak qafasi obzor rentgenogrammasida o'ng o'pkaning pastki bo'lagi proyeksiyasida kuks oralig'iga yaqin soyalanish aniqlanadi. Sizning tashxisingiz, tekshirish va davolash taktikasi?

- o'ng o'pkaning pastki bo'lagining sekvestrasiyasiga gumon.

- Angiografiya

- Operasiya yo'li bilan davolash.

6. 1,5 yoshli bola 1-xaftadan buyon o'ng tomonlama pnevmoniya bilan davolanib kelyapdi. Axvoli to'satdan og'irlashdi. Nafas olishi qiyinlashib 1mino'tda 80-tagacha oshdi, sianoz paydo bo'ldi. Tana harorati 37,5 °C. Ko'krak qafasining o'ng yarmi kaiialashgan. Perkussiyada o'ng tarafda – ko'tusimon tovush, auskultasiyada shu yerda nafas o'tmaydi. Sizning tashxisingiz, tekshirish usuli va taktikangiz?

- Destruktiv pnevmoniya, o'ng tomonlama taranglashgan pnevmotoraks

- Ko'krak qafasi obzor rentgenogrammasi.

- Torakosentez va plevra bo'shlig'ini drenajlash.

7. Og'ir nafas yetishmovchiligi belgilari bilan kelgan 6-oyli bolada Ko'krak qafasi obzor rentgenogrammasida o'ng o'pkaning taranglashgan tug`ma kistasi aniqlandi. Davolash taktikasini belgilang?

- Taranglashgan kistani punksiya qilish va keyinchalik rejali operatsiya qilish.

8. Yangi tug'ilgan chaqaloqda nafas yetishmovchiligi belgilari aniqlanadi. Perkussiyada ko'krak qafasining o'ng tomonida tumtoq tovush aniqlanadi, auskultasiyada nafas o'timaydi, ko'krak qafasining

obzor rengenogrammasida o'ng tomonda total soyalanish aniqlanadi, kuks oralig'i otganlari o'ngga siljigan. Bronxosqopiyada o'ng tomondan asosiy bronx yo'q. Sizning tashxisingiz?

- o'ng o'pkaning ageneziyasini.

9. 1-oylik chaqaloqda auskultasiyada ko'krak qafasining o'ng tamonida nafas o'tmaydi, perkussiyada tumtoq tovush aniqlanadi, kuks oralig'i organlari o'ng tamonga siljigan. Bronxosqopiyada o'ng asosiy bronx kur tugaganligi aniqlandi. Sizning tashxisingiz?

- o'ng o'pkaning aplaziyasini.

10. 1,5 oyli bolani tekshirganimizda auskultasiyada o'ng Ko'krak qafasi ustida nafas o'tmaydi, perkussiyada tumtoq tovush aniqlanadi, ko'krak qafasi obzor rengenogrammasida o'ng tomonda total soyalanish aniqlanadi, kuks oralig'i organlari zararlangan tamonga siljigan. Bronxosqopiyada o'ng bo'lakli va segmentar bronxlarning torayib borishi va kur tugaganligi aniqlandi. Sizning tashxisingiz?

- o'ng o'pkaning gipoplaziyasini.

### **«Kopdagi mushuk» konkursi.**

O'qituvchi vaqtidan oldin mavzu bo'yicha savollar yozilgan kartochkalarni maxsus kopchaga tayerlab kuyadi. Bu konkurs katnashchilarini kopchadan kartochkalarni tortib oladilar, ajratilgan vaqt mobaynida savollarga yozma ravishda javob yozadilar. Javoblarni tekshirgach qonsultanlar ballar miqdorini e'lon qiladilar va eng ko'p bal olgan talabalarni e'lon qiladilar.

1. O'pka ageneziyasiga izox bering.

- o'pkaning asosiy bronx bilan birgalikda tug'ma yuqligi.

2. O'pka aplaziyasiga izox bering?

- shakllangan yoki rudimentar asosiy bronx borligi bilan o'pkaning yoki uning bir qismini yo'qligi.

3. O'pka gipoplaziyasini nima?

- o'pkaning hamma elementlarining rivojlanishdan orqada kolishidir (o'pka parenximasi, qon tomirlari va bronxlari).

4. Tug'ma lobar emfizemaning asosiy sabablari?

- Bronxlaring tog'ay elementlarining va elastik tolalarining aplaziyasini.

5. Tug'ma lobar emfizemaning klinik belgilari:

- nafas va yurak-tomir yetishmovchiligi simptomlari: sianoz taxipnoe, taxikardiya Ko'krak qafasining zararlangan tomonini kattalashishi va nafas olishdan orqada kolishi, bezovtalik, kuruk tez-tez yo'talish, emizish paytida asfiksiya paydo bo'lishi.

6. O'pkaning tug'ma taranglashgan kistasining asosiy klinik belgilari?

- nafas yetishmovchiligi, sianoz, asfiksiya va bezovtalik
- Ko'krak qafasining zararlangan tomonini nafas olishdan orqada kolishi

- perkussiyada - timpanit, kuks oralig'i organlarining sog'lom tamonga siljishi

- auskultasiyada – nafas shovkinlarining yo'qligi.

7. O'pkaning taranglashgan tug'ma kistasining rentgenologik belgilarini ayting?

- Ko'krak qafasini barcha qismini egallagan katta havoli bo'shliq, o'pka rasmni yo'qligi va «mediastinal churra» xosil bo'lishi, kuks oralig'i organlarining sog'lom tamonga siljishi.

9. Tug'ma yiringlagan o'pka kistasining rentgenologik belgilarini ko'rsating:

- zararlangan tomonda gorizontal suyuqlik satxili qonturlari aniq perifokal yallig'lanishsiz katta bo'shliq borligi, kistaning pastki qonturi aniq va sinus bo'shlig'i aniqlanadi.

10. Diafragmal churra nima?

- diafragmaning tabiiy yoki sun'iy teshiklari orqali qorin bo'shlig'i organlarini ko'krak qafasiga o'tganligi.

13. Diafragmaning Qizilo'ngach I teshigi churrasining belgisi:

- quşish, kusik tarkibida qon bo'lishi.

14. Soxta diafraga-plevral churralarning asosiy klinik belgilari:

- nafas yetishmovchiligi belgilari.

15. Asfiktik kisilishi qaysi diafragmal churratarga xos?

- soxta diafragma churralariga.

16. Qizilo'ngach I teshigi churralarida gemorragik sindromning sababi nima?

- peptik yarali ezofagit.

17. Pnevmonianing destruksiya oldi fazasiga nima kiradi?

- o'pkaning yallig'lanish infiltrati (lobit).

18. O'pka destruksiyasining 3 to'rini ayting:

- o'pka ichi

- o'pka-plevral
- o'pka-mediastinal.

19. Destruksiyaning 3 o'pka-plevral asoratini ko'rsating:

- piotoraks
- piopnevmotoraks
- pnevmotoraks.

20. Destruksiyaning 2ta o'pka ichi to'rini ayting:

- abscess
- bulla.

21. Ko'krak qafasining rentgenogrammasida o'ng tamondan Ko'krak qafasini total soyalanishi aniqlanadi, kuks oralig'i organlari qarama-qarshi tomonga siljigan. Diagnoz:

- o'ng tomondan total piotoraks.

22. Total piotoraksda klinik belgilar:

- zararlangan tamonda Ko'krak qafasini nafas olishda orqada kolish

- perkussiyada – zararlangan tomonda tumtoqlik aniqlanadi
- auskultasiyada nafas o'tmaydi.

23. Taranglashgan piopnevmotoraksda davolash taktikasi:

- torakosentez va plevra bo'shlig'ini drenajlash.

24. Total piotoraksda davolash taktikasi:

- plevra bo'shlig'ini punksiya qilish yoki drenajlash

25. Tarkaluvchi mediastinal emfizemada davolash taktikasi:

- suprayugulyar mediastinotomiya.

## **4 MAVZU: BOLALARDA OSHQOZON VA O'N IKKI BARMOQ ICHAK YARA KASALLIGI.**

**MAVZUNING DOLZARBLIGI:** Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari jo'da ro'p uchraydigan asoratlar guruhiga kiradi. Ko'pincha peritonit sababi oshqozon ichak trakti devori perforasiyasini hisoblanadi.

**DARSNING MAQSADI:** Umumiy amaliyot shifoqorini sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida mustaqil ravishda bemorlarni olib borishga, shoshilinch xollarda tez va birlamchi yordamni ko'rsatishga, uy, poliklinika va kunduzgi shifoxona sharotida kichik yoshdagi bolalar va chaqaloqlar peritonitida diagnostika va davolash ishlarini amalga oshirishga, shuningdek sanitar-gigenik, antiepidimik, davolash-profilaktik va reabilitasiya ishlarini olib borishga o'rgatish.

### **DARSNING VAZIFALARI:**

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari etiologiyasi, patogenezi va klinikasi bo'yicha bilimini shakllantirish.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklarida laborator, rentgenologik va instrumental tekshirish usullari yordamida studentlarda klinik jixatdan ko'rish va tekshirish qobiliyatini oshirish.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklarida bemor hayeti uchun havf tug'diruvchi holatlarda studentga diagnostik algoritmni o'rgatish.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida xirurgik davolash prinsiplari bilan tanishish.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida davolash, diagnostik standartlarga va operatsiyalardan keyingi reabilitasiya baennomasiga asoslangan umumiy vrachlik yordami qobiliyatini oshirish.

**Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalliklari** ko'p davom etadigan va osonlikcha to'z almaydigan kasallik bo'lib hisoblanadi.

Oshqozon yara kasalliklari kichik yoshdagi bolalarda kamdan-kam hollarda uchraydi. 7 – 14 yoshdagi bolalarda 0,08 % hollarda uchrashi mumkin. O'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan kasallikka qo'proq chalinadilar (5 : 1 nisbatda).

O'n ikki barmoqli ichakda yaralar ko'proq uchraydi. Xuddi kattalarniki kabi, bolalarda ham, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining kelib chiqishida quyidagi faktorlar sabab bo'ladi:

alimentar, psixoemosional faktorlar, infeksion kasalliklar bilan og'rish, visseral faktorlar (qorin bo'shlig'i a'zolarining kasalliklari) va irsiyat.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining asosiy va doimiy simptomni bo'lib og'riq sanaladi (98 % holatda). Ayniqsa, kasallikning boshlanish vaqtida og'riq noaniq harakterga ega bo'ladi. Bolaning yosh jihatdan kattalashgani sari og'riq muayyan davriylik kasb etadi: ochlik – og'riq – ovqatlanish – yengillikni his qilish – ochlik – og'riq va h.k.

Ko'p hollarda bolalar og'riqning zo'rayib ketishi natijasida ko'ngil aynishi va quşishga shikoyat qiladilar. Tana massasining kamayib borishi, zarda qaynashi, ich qotish kabi belgilar ham shu kasallikka xos belgilar hisoblanadi. Kasallik erta bahorda va ko'z faslida avj oladi.

Kasallikka diagnoz qo'yishda klinik simptomlarni aniqlash bilan birgalikda, rentgenologik va endoskopik tekshirishlar o'tkazish lozim. Oshqozon shirasidagi kislota miqdorini aniqlash yara kasalligini aniqlashda yordam beradi. Odatda, yara kasalligida kislota miqdori oshgan bo'ladi. Qaytalanuvchi yara kasalliklarida oshqozonni tekshirish rentgenologik tekshirish usulidan boshlanadi. Bu usul yordamida oshqozon gipersekresiyasi, oshqozon qismlarining peristaltikasi, duodenal reflyo'qs, oshqozon piyozcha qismining harakatchanligi, o'n ikki barmoqli ichakda qisilgan qismining borligi, qontrast moddaning ushlanib qolishi aniqlanadi. Agarda o'n ikki barmoqli ichakda yara bo'lsa, qontrast modda shu qismdan tez o'tadi (shpris simptom). "Tokcha" simptomni rentgenologik usul yordamida 86 % hollarda aniqlanadi. Yara aksariyat holatlarda piyozcha qismining orqa devorida va oshqozonning katta egriligida uchraydi.

Gastroduodenosqopiya usuli kasallik diagnostikasiga yanada aniqlik kiritadi. Uning yordamida yaraning joylashuvini, o'lchamlarini, tubining holatini, yallig'lanish jarayonining chegaralarini, gastrit va duodenit darajasini aniqlash mumkin.

Talabalarga shuni ta'kidlab o'tish joizki, bolalarda oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining asoratlari kam hollarda uchraydi. Agarda asoratlansa, anamnezida ko'pdan beri kasalligini aniqlash qiyin bo'lmaydi. Kasallik asoratlari bemor bolaning yoshiga, etiologik faktorlarga bog'liqligini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Yara kasalligining asoratlari bolalarda 15 – 22 % hollarda uchraydi. ***Qon ketish*** oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining eng ko'p uchraydigan asoratlaridan biri bo'lib sanaladi. Oshqozonga nisbatan

o'n ikki barmoqli ichak yaralari ko'proq qonaydi. Qon ketish aqsariyat holatlarda kasallik xuruj qilganda namoyon bo'ladi (och qolgandagi og'riq, zarda qaynashi va b.), ayrim hollarda esa kasallikning birlamchi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Yashirin qon ketishlar ko'p holatlarda bilinmasada, yara kasalligining xurujlanish davriga to'g'ri keladi. Agarda qon ketish ko'p miqdorda bo'lsa, qon quшив, ichidan melenasimon (qora) ahlatning chiqishi bo'lsa, bemor darhol shifokorga murojaat qilishi lozim. Agarda, qon oshqozondan ketayotgan bo'lsa, quшив qon aralash (kofe quyqasi) bo'ladi, o'n ikki barmoqli ichak yarasidan qon ketganda quшив harakterli bo'lmasada, ahlati melena ko'rinishida bo'ladi.

Klinik ko'rinishi qon ketish miqdoriga va uning intensivligiga bog'liq. Qon ketish miqdori 350 – 400 ml bo'lsa, bemor o'zini yomon his qiladi, yengil ko'ngil aynishi, og'iz qurishi, kuchsizlik, kam miqdorda, tez-tez ahlat qilishi kuzatiladi.

Qon ketishi ko'p miqdorda bo'lsa, yoki tez-tez qaytalansa, bemor to'satdan o'zini yomon his qiladi, ko'ngli ayniydi, teri qoplamlari oqarib, sovuq ter bilan qoplanadi, ko'z oldi qorayib, qulqlarida shovqin paydo bo'ladi, ba'zan hushidan ham ketishi mumkin. Pulsi tezlashadi, arterial qon bosimi tushib ketadi.

Harakatdagi qon hajmi, gemoglobin va gematokrit ko'rsatkichlari obyektiv kriteriy hisoblanadi. Ba'zan qon ketishning hamma belgilari namoyon bo'lsada, qon aralash quшив va ahlatning qorayishi 2 – 3 kun o'tib paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtida endoskopik tekshirish usulini hatto qon qyetayotgan vaqtida ham qo'llash mumkin. Bu usul faqatgina diagnostika maqsadida emas, balki, davolash maqsadida ham ishlatiladi. Tajribali endoskopist zamonaviy endoskopik apparat yordamida qizilo'ngachdan, oshqozondan va hatto o'n ikki barmoqli ichak yarasidan qon ketishini aniqlashi mumkin. Tekshirishni o'tkazishdan oldin oshqozon sovuq suv bilan yaxshilab yuviladi. Endoskopiya yordamida yara sohasida qonayotgan qon tomirining o'lchamini, qon ketish intensivligini baholash mumkin. Bu esa davolash taktikasini aniqlashga yordam beradi.

Davosi umumiyl va mahalliy muolajalarni o'z ichiga oladi. Bemorning o'mida yotishi, diyetasi katta ahamiyatga ega. Vikasol, aminokapron kislotasi yuborish, yangi tayyorlangan qon, to'g'ridan to'g'ri qon quyish, kalsiy xlorid yuborish qonservativ davo chora-tadbirlari hisoblanadi.

Qonservativ davo 6 – 12 soat davomida natija bermaganda, xirurgik davo qo'llashga ko'rsatma bo'ladi. Operasiyani o'tkazish muddati bemorning umumiy ahvoli va anemiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Agar qon yo'qotish qon umumiy hajmining 30 % ga teng bo'lsa, bemorni klinikaga tushganidan 6 soat ichida operatsiya qilish kerak.

Qon ketishida uch xil operatsiyani qo'llash mumkin:

1. qonayotgan oshqozon tomirlarini bog'lash, yarani tikish;
2. oshqozon rezeksiyasi;
3. vagotomiya, drenajlanadigan operatsiya bilan birgalikda.

Bolalarda xirurgik jarayonni tanlashda bemorning ahvoli, yaraning joylashishi, davolanayotgan muassasaning tajribasi kabi holatlar hisobga olinadi.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining yana bir asoratlaridan biri **teshilish** va qo'shni organlarga o'tishi (**penetrasiya**)dir.

Bolalarda yara kasalligida teshilish kattalarga qaraganda kamroq uchraydi va hamma asoratlarning 5 – 15 % ni tashkil etadi. Asosan 8 yoshdan katta bo'lgan bolalarda uchraydi.

Penetrasiya bir nechta darajadan iborat: oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak devorining hamma qatlamlaridan o'tishi, qo'shni organlar bilan chambarchas fibroz birikma hosil qilishi va teshilishning tobora chuqurlashib qo'shni organning ichiga ochilishi. Penetrasiya jarayonida kuchli yallig'lanish fibroz chandiqlarning bo'lishi va ba'zan kattagina maydonni egallashi mumkin. Kasallik klinikasi tobora og'irlashib, jarayonga jalg qilingan qo'shni organ kasalliklari simptomlari namoyon bo'ladi, ular: o'tkir pankreatit, o'tkir xolesistit, xolangit, gastrit, duodenit va b. Og'riq doimiy tus oladi va intensivligi oshib boradi, ovqat qabul qilishga bog'liqligi o'zgaradi. Oshqozon kislotaligini qamaytiruvchi dori darmonlar qo'llanilganda ham og'riq kamaymaydi. Ko'ngil aynishi, quşish, leykositoz, tana haroratining oshishi, EChT tezlashishi kuzatiladi.


Yallig'lanish o'chog'i sohasida hosila paypaslanadi va paypaslash paytida og'riq kuchayadi. Rentgenologik tekshirilganda odatda, chuqur "tokcha" simtomi, yara sohasida organning kam harakatchanligi va davolash jarayoni ko'tilgan natija bermaganligi kuzatiladi.

Endoskopik tekshirganda agar yara penetrasiyaga uchragan bo'lsa, u holda, yara yumaloq, chuqur, qratersimon, chetlari baland, valsimon ko'rinishda bo'lib, atrofdagi shilliq qavatdan aniq ajralib turadi.

Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining perforasiyasi uning o'ta havfli asoratlaridan hisoblanadi. Teshilish ko'pincha kasallikning xurujlanish davriga to'g'ri keladi (bahor va ko'z fasllarida). Stress, to'yib ovqatlanish, parxezni bo'z ish, jismoniy zo'riqishlar perforasiyaga olib kelishi mumkin. Yara teshilganda o'ziga hos belgi – epigastral sohada "xanjarsimon", kuchli og'riqning paydo bo'lishidir. Qorinning oldingi devori "taxtasimon" taranglashgan, Щyetkin-Blyumberg simptomi keskin musbat bo'ladi. Jigar sohasida to'mtoqlik yo'qoladi. Yurak urishi sekinlashadi (bradikardiya), teri qoplamlari oqaradi. Kasallik boshlanganidan 6-8 soat o'tganidan so'ng o'tkir peritonit belgilari avj oladi. Agarda qorin bo'shlig'in obzor tasvirida diafragma gumbazi ostida erkin gaz bo'lsa, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligining teshilganligiga hyech qanday shubha qolmaydi. (21-rasm)

Yaraning teshilish asorati bu yuqori laparatomiya o'tkazishga ko'rsatmadir. Teshilish 75% hollarda qorinning' oldingi devorida uchraydi. Operasiyadan oldin oshqozonga albatta zond qo'yiladi, operatsiya oldi tayyorgarligi o'tkaziladi. Uning davomiyligi bemorning ahvoliga, organizmda suv-to'z muvozanatining bo'z ilishiga bog'liqdir. Odatda 1 - 2 soat mobaynida o'tkazilgan infuzion terapiya (plazma, qon, poliglyo'qin, to'z eritmalari, glyo'qoza) yetarli bo'ladi. Yosh bolalarda operatsiya teshilgan yarani tikish bilan cheklanadi. Odatda yara kapron yoki shoyi iplar bilan yara ustini charvi bilan berkitib tiqiladi. Agar bemor yara kasalligi bilan ko'p vaqtan beri kasallangan bo'lsa va bemor operasiyaga 6 - 8 soatdan so'ng olinsa, u holda yarani tikish bilan birga vagotomiya va piloroplastika qo'llaniladi. Qorin bo'shlig'ini obdon yaxshilab tozalashga katta ahamiyat berish kerak, yuqori qavatiga antibiotiklar yuborish uchun drenaj naychalar qo'yiladi.

Oshqozon piyozcha qismining *chandiqli torayishi* juda kam uchraydigan asoratlardan bo'lib hisoblanadi. Torayish yara bitganda yoki yaraning chandiqlar bilan tortilishi hisobiga qo'z atiladi. Torayishning ikkita bosqichi tafovot qilinadi: kompensator va dekompensator, biri sekin asta ikkinchisiga o'tadi. Agar torayish yaraning chandiqlanishi o'rniga paydo bo'lsa u holda, bemorning yaxshilanib borayotgan axvoli



21-rasm. Qorin bo'shlig'in obzor rentgenogrammasi.

qorinning damlashi, ayniqsa ovqatlangandan so'ng, xurujsimon og'riqlar (qusgandan so'ng yengillik his qiladi) bilan almashinadi. Torayishning rivojlanishida "och" og'riqlardan tashqari, oshqozonning kengayib ketishi, kekirish, tez-tez va ko'p quşish kabi simptomlar kuzatiladi. Qusuq massalarida o't bo'lmaydi. Ovqatlangandan keyin ham yengillik his qilmaydi. Kichik yoshdagi bolalarda aspirasion pnevmoniya ko'z atilishi mumkin. Ahlat kam ajraladi, bolaning oriqlashi kuzatiladi, hamma vaqt ochlik hissini sezib turadi.

Kuzatuv vaqtida ovqatlangandan so'ng oshqozon peristaltikasini ko'rish mumkin, ayniqsa ovqatlangandan so'ng. Paypaslaganda og'riqli. Obzor rentgenogrammada suyuqlik bilan to'lgan kattalashgan oshqozonni ko'rish mumkin. Bariy bo'tqasi ichirilib tekshirganda oshqozon peristaltikasining kuchayishi, qontrast moddaning pilorik qismdan oz miqdorda o'tishi kuzatiladi, o'n ikki barmoqli ichakning piyozcha qismi o'zgargan va deformasiyalangan. Oshqozonda bariy bo'tqasining ushlanib qolishi torayish darajasiga va oshqozonning kompensator imkoniyatiga bog'liqdir.

Endosqopiyada oshqozon pilorik qismining chandiqli torayishini, uning deformasiyasini va yara lokalizasiyasini aniqlash mumkin.

Stenozni davolash faqat xirurgik yo'l bilan amalga oshiriladi.

## VAZIYATLI MASALALAR.

1. 12 yoshli bola har bahor va ko'z fasllarida qorinda og'riqlar paydo bo'lib, ahlat rangining qorayishidan shikoyat qilib keldi. Sizning diagnozingiz va taktikangiz?

2. Qabulxona bo'limiga 10 yoshli bola epigastral sohada kuchli og'riqqa shikoyat qilib keldi. Anamnezidan aniqlanishicha 2 yildan beri oshqozon yarasi bilan og'riydi. Ko'rik paytida: qorni taranglashgan, nafas olishda ishtirok etmaydi, paypaslash kuchli og'riqni chaqiradi. Sizning taktikangiz?

3. Oshqozon yara kasalligi bo'lган bolada qon aralash qusish va ahlat rangining qorayishi ko'z atildi. Kuzatuv paytida teri rangi oqargan, sovuq ter bilan qoplangan, pulsi tezlashgan. Sizning taktikangiz?

4. Klinikaga 4 yoshli bola keltirildi. Onasining aytishicha, bola doimo ovqat yeyishga harakat qilib, tez-tez qusadi. Lekin qusishiga qaramasdan bola yana ovqat yeyishga harakat qiladi, doimo ochlik sezadi. Qusuq massasi oshqozon shirasi bilan aralashmagan, har xil chaynalgan ovqat massalari bor. Ovqatlangandan keyin to'sh ortida og'riq sezadi. Sizning diagnozingiz, tekshirish rejangiz, davolash taktikangiz?

5. Qabul bo'limiga 14 yoshli bemorni kuchli ko'ngil aynishi, tez-tez qusish, epigastral sohada og'riq simptomlari bilan keltirildi. Bemorda nimjonlik, bosh aylanishi, kollaptoid holatlar ko'z atilmoxda. Bemor ovqatlangandan bir necha soat o'tgandan so'ng dastlab ko'p-ko'p miqdorda, so'ng kam-kam miqdorda qusgan. Qusuq massasi achchiq reaksiyali, qabul qilingan mahsulotlar, so'ng shilliq va o'tdan iborat. Bemorning ahvoli qusishdan so'ng yengillashadi.

Sizning diagnozingiz, tekshirish rejangiz, davolash taktikangiz?

6. Qabul bo'limiga 10 yoshli bola ishtaxasining' pasayishi, qusish shikoyatlari bilan murojaat qildi. Qo'sish tez-tez bo'lmay, ko'ngil aynishi ko'z atilmaydi. Bemor tez ochlik sezganligi tufayli tez-tez ovqatlanishni hohlaydi va ovqat yeyish vaqtida qusmoqda. Qusuq massasi ko'p miqdorda bo'lmay, ishqoriy reaksiyadagi chaynalgan mahsulotlardan iborat. Bemor qusgandan so'ng o'zini yaxshi sezadi. Bemorda to'sh ortida og'riq bor.

Sizning diagnozingiz, tekshirish rejangiz va davolash taktikangiz?

7. Qabul bo'limiga 8 yoshli bolani ko'ngil aynishi, qorinda xurujsimon og'riq shikoyatlari bilan keltirildi. Qo'sish ovqat qabul qilingandan 1,5 – 2 soat keyin bo'lib, ko'p miqdorda va o't aralashgan.

Qo'sish bemor ahvolini yengillashtirmaydi. Ko'zdan kechirganda epigastral sohada shish kuzatiladi, qorinning pastki qismi puchaygan. Kasallik boshlanganiga 12 soat bo'lgan, ahlat qilgan. Sizning diagnozingiz, tekshirish rejangiz, davolash taktikangiz?

8. 7 yoshli bemorni ko'zdan kechirganda anemiya belgilari, ko'ngil aynimasdan tez-tez quşish ko'z atilmoxda. Qusuq massasi kam miqdorda bo'lib, tashlash va regurgitasiya harakterida, quşish oshqozon maxsuloti bilan bo'lib, achchiq reaksiyali va hidlidir. Qo'sishdan keyin bemorning ahvoli yaxshilanmaydi. Bemorda to'sh orqasida og'riq, zarda qaynashi va melena ko'rinishidagi qora ahlat bor. Sizning tashxisingiz, diagnostik chora-tadbirlar va davolash taktikangiz?

9. Uch kunlik chaqaloqda ko'p miqdorda qonli quşish ko'z atildi, bola rangi juda ham oq, ko'krak emishdan bosh tortadi, keyingi kunda qora rangdagi ahlat keldi, qon tahlillarida gemoglobin past, qon ivish vaqtি cho'zilgan. Sizning tashhisingiz va davolash taktikangiz?

10. 10 yoshli bolaning oshqozon yarasi perforasiya bergen. Ushbu holatda sizning taktikangiz nimadan iborat?

### Javoblar

1. Oshqozon yara kasalligi, qon ketish.
2. Gospilalizasiya, stasionar davolash.
3. Qizilo'ngach axalaziyasi, stasionar davolash,
4. 12 barmoq ichak yara kasalligi, qon ketish asorati.
5. 12 barmoq ichak yara kasalligi, qon ketish asorati.
6. 12 barmoq ichak yara kasalligi, qon ketish asorati.
7. Oshqozon yara kasalligi.
8. Qizilo'ngach xalaziyasi.
10. Chaqaloqlar melenasi.

## O'Z - O'ZINI SINASH TESTLARI.

1. Ovqat hazm qilish a'zolaridan profo'z qon ketganda jarroxning eng dastlabki vazifasi:

1. qon ketish manbasini aniqlash
2. qaysi kasallik ekanligini aniqlash
3. qon ketish boshlangan vaqtini aniqlash
4. qancha qon ketganligini aniqlash
5. qon oqishini to'xtatish choralarini ko'rish

2. Oshqozondan qon ketayotganligini tasdiqlovchi usul:

1. ezofagosqopiy
2. qorin bo'shlig'ining umumiyl rentgen tasviri
3. qontrastli gastroenterografiya
4. gastroduodenofibrosqopiy
5. kolonosqopiy

3. Oshqozon-ichaklardan qon ketish bilan kechuvchi qaysi kasallikda qorinda og'riq bo'lmaydi:

1. oshqozon yarasi
2. 12 barmoqli ichak yarasi
3. stressli yaralar
4. ichak invaginasiyasi
5. Mekkel divertikuli

4. Oshqozon-ichaklardan qon ketishlarda nima sababdan dastlabki daqiqalarda gemoglobin va gematokrit miqdori o'zgarmaydi:

1. depo qonning umumiyl oqimga o'tishi sababli
2. qonning quyuqlashishi sababli
3. tomirlar qisqarishi sababli
4. perifirik tomirlarda qon miqdorining ko'payganligi uchun
5. tomirlarda qon oqimi tezlashganligi sababli

5. Bolalarda oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralari qayerda ko'p uchraydi:

1. oshqozonning kardial qismi
2. oshqozon katta egriligi
3. oshqozon antral qismi
4. oshqozon kichik egriligi
5. 12 barmoqli ichak.

6. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi rivojlanishida asab tizimidagi qaysi o'zgarishning o'rni katta:

1. parasimpatik asab tizimi ishining faollashishi
  2. simpatik asab tizimi ishining faollashishi
  3. parasimpatik asab tizimi ishining susayishi
  4. simpatik asab tizimi ishining susayishi
  5. ikkala tizim ishining ham faollashishi.
7. Qaysi asorat oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligiga xos emas:

1. perforasiya
2. qon ketish
3. oshqozon kardial qismi stenozi
4. penetrasiya
5. malignizasiya

8. Bolalarda oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi asoratlaridan qaysi biri ko'p uchraydi:

1. perforasiya
2. qon ketish
3. penetrasiya
4. malignizasiya
5. stenozlar

9. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligining rentgenologik belgisi:

1. to'lishish defekti
2. "tokcha" belgisi
3. Kloyber kosachalari
4. erqin havo bo'lishi
5. oshqozondan evakuasiyaning bo'z ilishi

10. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligining rentgenologik diagnostikasida qaysi qontrast modda qo'llaniladi:

1. yodolipol
2. bariy sulfat
3. bilignost
4. triombrast
5. verografin

11. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligida o'tkir qon ketish ko'z atilganda, agar qon ketishi to'xtamasa qancha muddat davomida qonservativ muolajalarini davom ettirish mumkin:

1. shoshilinch operatsiya
2. 1 – 2 soat

3. 2 – 6 soat
4. 6 – 12 soat
5. 12 – 24 soat

12. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligida o'tkir qon ketish ko'z atilganda qaysi vaqt dastlabki 6 soatda operatsiya qilish kerak:

1. harakatdagi qonning 10 % yo'qotilganda;
2. harakatdagi qonning 15 % yo'qotilganda
3. harakatdagi qonning 20 % yo'qotilganda
4. harakatdagi qonning 30 % yo'qotilganda
5. harakatdagi qonning 50 % yo'qotilganda

13. Oshqozon va ichaklardan qon keti bilan kechuvchi kasalliklarning qaysi biri boshqa tizim kasalliklari asorati hisoblanadi:

1. oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi
2. diafragma-qizilo'ngach teshigi churrasi
3. gemorragik gastrit
4. portal gipertenziya
5. Mellori-Veys sindromi

14. Oshqozon va 12 barmoqli ichakdan qon ketish bilan kechuvchi kasalliklardan qaysi biri bevosita oshqozon va 12 barmoqli ichak patologiyasi bilan bog'liq emas:

1. oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi
2. gemorragik gastrit
3. stressli yaralar
4. Mellori – Veys sindromi
5. oshqozon poliplpri

15. Qo'yidagi dori moddalardan qaysi biri tartibsiz qabul qilinganda oshqozon shilliq qavatini ko'chib tushishiga olib keladi:

1. rezerpin
2. steroid gormonlar
3. asetilsalisilat kislotasi
4. bo'tadion
5. gastrosepin

16. Oshqozon-ichaklardan qon ketish bilan kechuvchi kasalliklardan qaysi birida qon bilan quşish bo'lmaydi:

1. portal gipertenziya
2. chaqaloqlar melenasi
3. Mekkel divertikuli

4. diafragma-qizilo'ngach teshigining churrasi
5. oshqozon-yara kasalligi

17. Oshqozon yara kasalligi belgilari:

1. oshqozon gipersekresiyasi
2. jigar kattalashishi
3. plevra bo'shlig'ida suyuqlik

18. Oshqozon yara kasalligida eng informativ tekshirish usuli

1. fibrogastrosqopiyasi
2. ultratovush tekshirish
3. duktografiya
4. obzor rentgenografiya
5. oshqozon shirasini tekshirish

19. Oshqozon yarasi perforasiya berganda qanday taktika qo'llaniladi:

1. yarani tikish
2. yarani olib tashlash va tikish
3. Bilrot 1 usulida oshqozon rezeksiyasi
4. Bilrot 2 usulida oshqozon rezeksiyasi
5. Gofmeyster-Finstere usulida operatsiya

20. 12 barmoqli ichakning stenozli yarasi simptomiga quyidagilardan qaysisi kirmaydi:

1. quşish
2. oshqozon proyeksiyasi ustida shovqin
3. Kloyber kosachalarining bilishi
4. kekirish
5. oriqlash

21. Oshqozon yarasi perforasiyasining klinik ko'rinishini belgilang:

1. quşish
2. oshqozondan qon oqishi
3. qorin oldingi devorining tarangligi, perkussiyada jigar to'mtoqligining aniqlanmasligi
4. tez-tez ich ketishi
5. kekirish

22. Quyidagilardan qaysi biri oshqozon yara kasalligini xirurgik davolashga absolyo't ko'rsatma bo'la olmaydi:

1. perforasiya
2. qonservativ usul yordamida to'xtatib bo'lmaydigan qon ketishi

3. malignizasiya
  4. rentgenologik tekshirishda aniqlangan katta chuqurligdagi "tokcha" simptomi
  5. oshqozon pilorik qismining dekompensasiyalangan stenozi.
23. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yarasi teshilishi bildiruvchi simptom:
1. taxtasimon qorin
  2. epigastral sohada kuchli og'riq
  3. bel sohasida og'riq
  4. leykositoz – 15000 gacha
  5. teri va skleraning sarg'ayishi
24. Quyidagilardan qaysisi 12 barmoqli ichak yara kasalligi bilan differensiasiya qilinmaydi:
1. surunkali holesistit
  2. surunkali kolit
  3. surunkali appendisit
  4. surunkali pankreatit
  5. mezoadenit
25. Quyidagilardan qaysisi stenoz belgilariga xos emas:
1. sariqlik
  2. nahorda oshqozon proyeksiyasida shovqin eshitilishi
  3. oriqlash
  4. kekirish
  5. epigastral sohada og'riqning bo'lishi
26. Quyidagilardan qaysisi 12 barmoqli ichak yara kasalligiga xos shikoyat emas:
1. ovqatlangandan 1- 1,5 soat o'tib og'riqning paydo bo'lishi
  2. sariqlik
  3. og'riqning bel sohasiga tarqalishi
  4. kechasi og'riqning bo'lishi
  5. quşish
27. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yarasi teshilishi eng ko'p qayerda uchraydi
1. o'n ikki barmoqli ichak
  2. oshqozonning pilorik qismi
  3. oshqozonning kichik egriligi
  4. oshqozonning katta egriligi
  5. oshqozonning kardial qismi

28. Oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi teshilish vaqtida eng ko'p uchraydi

1. taxikardiya
2. har zamonda to'tib turuvchi og'riq
3. lokal, kuchsiz og'riq
4. to'satdan paydo bo'ladigan kuchli og'riq
5. suyuq ahlat

29. Quyidagilardan qaysi biri chaqaloqlarda yara perforasiyasini keltirib chiqara olmaydi:

1. pilorik kanal membranası
2. oshqozon yarasi
3. pilorostenoz
4. tug'ruq travmalari
5. doimiy musbat bosim ostida nafas olish

30. Oshqozon yarasi perforasiya berganda qo'llash lozim:

1. qorin holatiga qarab tezlik bilan laparatomiya o'tkazish
2. oqsillar va minerallar almashinuvi korreksiyasi va intensiv terapiyadan so'ng operatsiya qilish
3. oshqozonni qontrast va gastoskopik tekshirish
4. oshqozonni yuvish  
konservativ davolash, 3 – 6 hafta o'tib operatsiya qilish.

## **5 MAVZU: Tug`ma va orttirilgan mexanik sariqlik.**

**Mavzuning dolzarbligi:** Bolalar xirurgiyasi xirurgik korrektsiyani talab qiladigan tug`ma nuqson va rivojlanish anomaliyasining kelib chiqishi, diagnostikasi va davolashini uz ichiga olgan distsiplinaning bir qismidir.

Pediatriya fakultetlarining 5-kursida bolalar xirurgiyasidan dars o'tishning asosiy printsipi: tug`ma nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining nozologik diagnostikasi umumiylar yordamini ko'rsatish va operatsiyadan keyin reabilitatsiyasini o'tkazishga bogliqdir.

### **Mashg`ulot vazifalari:**


Bolalarda uchraydigan nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining etiologiyasi, patogenezi va klinikasi haqida bilim olish. Tug`ma nuqsonlar va nomaliyalar bilan tug'ilgan bolalarni klinik ko'rik va tekshiruvdan o'tkazishni o'rganish.

Bola hayotiga xavf soluvchi nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining diagnostik algoritmini o'rganish. Rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari va ularning asoratlarini xirurgik davolash printsiplari bilan tanishish. Umumiylar yordami usullarini rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari bilan bolalarning operatsiyadan keyingi reabilitatsiyasi protokoli va davolash diagnostik standartiga asoslab ishlab chiqish.

**Mashg`ulot o'tkazish joyi:** Torakal xirurgiya va chaqaloqlar xirurgiya bo'limi, operatsiya va kompyuter xonalari.

**Mashg`ulot maqsadi:** Xirurgik korrektsiyani talab qiladigan tug`ma nuqsonlar va rivojlanish nusonlari klinik diagnostikasi, davolash va bolalar reabilitatsiyasi uslublarini o'rganish.

**PORTAL GIPERTENZIYA** - bu darvoza venasida qon aylanishini buzilishi va bosimini oshishi bilan yuzaga keladigan simptomo kompleksdir. Bolalarda uning sababi ko'pincha tug`ma va orttirilgan jigarni diffuz kasalliklari (surunkali gepatit, jigar sirrozi, fibrokistoz) anomal rivojlanishlar portal sistemadagi magistral tomirlar trombozi yoki jigar venalarining trombozidir. Portal gipertenziya, aktiv kechadigan va patologik jarayonlarni tugashi natijasidagi vaqtinchalik ko'rinishi yoki tug`ma, qaytmas jarayoni bo'lishi mumkin. Portal qon aylanishining buzilishini kyuidagi klinik ko'rinishlari bor.



Rasm 21

Portal uzandagi blokada ko'rinishlari to'liq tasnifini M.D Patsiora (1974 yilda) taklif qilgan (Rasm 21).

1. Portal qon aylanishining jigar usti blokadasi.

A). Yurakka bog'liq Pika sirrozi.

B). Kiari kasalligi (jigar venalari trombozi)

V). Badda-Kiari sindromi (jigar venasi soxasidagi pastki kavak vena trombozi, uni jigar venasi ustidan stenozi yoki obliteratsiyasi, chandik yoki o'sma bilan bosilishi).

2. Portal qon aylanishining jigar ichi blokadasi.

A). Turli shakldagi jigar sirrozi (portal, postnekortik, biliar, aralash)

B). Jigar o'smalari (tomirli, parazitli, bezi)

S). Jigar fibroz: (protal, chandik, travmadan keyin, maxalliy yallig'lanish jarayonlari).

3. Portal qon aylanishini jigardan tashqari blokadasi.

Fleboskleroz, obliteratsiya, darvoza venalarini trombozi yoki uning shoxini stenozi yoki darvoza venasini atreziyasi yoki uni shoxini o'sma, chandik, infiltrat bilan bosilishi.

4. Portal qon aylanishining aralash blokadasi.

A). Jigar sirrozini darvoza venalari trombozi bilan birga kelishi (birlamchi jigar sirrozida darvoza venasida trombozini asorat sifatida namoyon bo'lishi).

B). Darvoza venalari tromboziga jigar sirrozini kushilishi (jigarning portal tsirrozini darvoza venalari trombozi hisobiga yuzaga kelishi M.D. Patsiora jigarni darvoza venasidagi qon aylanishning holati va klinik ko'rinishiga kavrab partal gipertenziyani 3 ta davrga ajratadi.

Splenomegaliya, Qizilo'ngach I venalarini varikoz kengayishi va oshqozonni, varikoz venalaridan qon ketishi, astsit. Jarayonini joylashishiga qarab va portal qon oqishini qiyinlashtiruvchi sababga qarab jigar ichi va jigar tashqarishi, aralash shakllari farqlanadi.

1). Kompensatsiya (Boshlang'ich davri portal bosimni qisman oshishi, jigar ichi qon aylanishini kompensatsiyalanishi, splenomegaliyani gipersplenizim bilan bo'lishi yoki usiz bo'lishi.

2). Subkompensatsiyali (yuqori portal bosim splenomegaliya, venalarini varikoz kengayishi va oshqozondan qon ketishi yoki qon ketmasligi, jigarning darvoza vena sistemasidagi yaqqol qon aylanishining buzilishi.

3). Dekompensatsiya. (splenomegaliya, Qizilo'ngach I va oshqozonni venalarini varikoz kengayishi, qon ketishi bilan yoki qon ketishisiz, astsit, jigarni darvoza venasida yaqqol qon aylanishini buzilishi va markaziy qon aylanishini buzilishi.

Portal qon aylanishining jigar usti blokadasini shakli. Portal gipretenziyaning jigar usti blokadasini potogenezi asosida diffuz fibrozning rivojlanishi va distrofik o'zgarishlar hisobiga jigardan qon chiqishini buzilishi yotadi.

Jigar usti blokadani sabablari yurakni turli kasalliklari (o'ng bo'limini yetishmovchiliga olib keladigan, pastki kavak venasini va uni shoxlarini zararlanishi).

Oxirgi paytlardagi Kiari kasalldigi yoki Badda - Kiari sindromi ham sabab bo'ladi. Kiari kasalligi (jigar venalarining birlamchi obturatsiyasi) obletratsiyali endofilit hisobiga yuzaga keladigan, birlamchi trombozni jigar venalarining tromboflebiti, jigar venalarining anomal rivojlanishi (membrana, stenoz va boshqa).

«Sindrom Badda - Kiari» termini turli patologik holatlarni birlashtiradi, ikkilamchi jigardan qon oqishini qiyinlashtiradi. Ularga qon tomir ichidagi jarayonlar (politsitemiya, migratsiyali tromboflebit, parazitar invaziya va boshqalar) kiradi.

Tomirdan tashqari jarayonlarga jigarning uchokli zararlanishi tugunli regeneratsiyani intensiv oshishi bilan yuzaga keladigan sirroz. Jigardan tashqari o'sma va yallig'lanish xosilalari hisobiga venalarni bosilishi. Jigar venalari usti yoki shu soxasida pastki kavak venasini stenozi yoki tug'ma membrana kasalligi kiradi. Kasallikni patologoanaatomik va klinik ko'rinishi jigar venalarini tez va to'liq obturatsiyasi va kollateral qon aylanishining holati bog'liq bo'lib, u Badda Kiari sindromi uchun sharoit yaratadi.

Klinikasi Kiari kasalligi va Badda - Kiari sindromini klinik ko'rinishi bir xil.

O'tkir va surunkali shakllari farqlanadi. Jigar venalarining o'tkir obturatsiyasida epigastrol soxada va o'ng qovurg'a osti soxasida kuchli to'satdan og'riq paydo bo'ladi, quish, jigar o'lchamini kattalashishi va ogrishi astsитitni rivojlanishi yuzaga keladi. Jarayon pastki kavak venasida bo'lgani uchun oyoklarda shish, qorinda va Ko'krak qafasidagi teri osti venalarini kengayishi xosil bo'ladi. Tez oshqozon ichak yo'lida qon ketish belgilari (Melena) qisman sariqlik paydo bo'ladi. Ko'proq 4-kunlari jigar buyrak yetishmovchiligi, to'tkich venalari tromboz yoki o'pka arteriyasi emboliyasi hisobiga o'lim yuzaga keladi. Ba'zida 25-30% venalarni o'tkazuvchanligi hisobiga hayot davomiyligi 4-6 oyga chuziladi. Surunkali shakli. Venalarni noto'liq obturatsiyasi hisobiga yuzaga keladi. Qon aylanishi kava kaval va portokavol anastamozlar hisobiga kompensatsiyalanadi. Gepatomegaliya, qisman 1G'3 kasallarda splenomegaliya, turgun astsit, kasallarda ko'proq oshqozon va Qizilo'ngach I varikoz venalaridan qon ketishi hisobiga o'lim kuzatiladi.

**Diagnostikasi.** Blokadani joylashish joy; pastki va yuqori kavagrafiya, yuqori va pastki kavak venasidagi bosimni aniqlash orqali aniqlanadi.

Portal qon aylanishini jigar ichi blokadasi. Portal qon aylanishini jigar ichi blokadaşı yuqoridagi tasnidan ko'rinish turibdiki uni sababi turli patologik jarayonlar, asosiy sabablardan bu jigmni surunkali diffuz kasalliklaridir. 1974 yildagi Meksikada o'tkazilgan Xalqaro nomenklaturaga asosan jigmni diffuz kasalliklarini Quyidagi gruppalarga ajratiladi.

- 1). Gepatitlar.
- 2). Fibroz.
- 3). Tsirroz.

Olimlarning oxirgi 25 yillik ma'lumotlarga tayangan holda sirroz turli etilagogik faktorlardan, asosan viruslar chakiradigan surunkali gepatitni oxirgi stadiyasi ekanligi ma'lum bo'ladi. Virusli gepatitni har qanday shaklida surunkali gepatit yoki jigar sirrozi rivojlanishi mumkinligi isbotlandi. Bu jarayon asta syokin bo'lib aniq morfologik va klinik chegaralari bo'lmaydi va oxirida sirrotik o'zgarish bilan transformatsiyalanadi.

### **Surunkali hepatit.**

Surunkali hepatit bu jigmida yallig'lanish jarayoni 6 oydan oshik davom etishi hisobiga yuzaga keladi. 1975 yil A.F. Blyuger va V.G. Ionova ma'lumotiga karaganda morfologik o'zgarish bilan yuzaga

keladigan hama surunkali jigar kasalliklarini 44% ni tashkil qiladi. Etiologiya, patogenezi, klinik ahamiyati bo'yicha surunkali gepatit 2 tipga ajratiladi.

1). Gepatit -Nazologik birlik bo'lib jigarni o'zini kasalligi hisoblanadi.

2). Gepatit -sindromi yoki boshqa patologik jarayonlarni yo'ldoshi hisoblanadi. (surunkali infektsiya, oshqozon ichak yo'llari kasalliklari biriktruvchi to'qima kasalliklari) yo'ldosh gepatit klinik xususiyati, asosiy kasallikni kechishiga bog'liq ravishda avj olishi bo'lmaydi.

Biz 1- tip jigarning surunkali kasalligini kurib chikamiz. Xalqakro nomenklaturaga asoslangan holda surunkali gepatitning 2 ta shakli ajaratilgan.

1. Surunkali persistirlovchi gepatit.

2. Surunkali aktiv gepatit. (sinonimlari jigarni surunkali aktiv kasalligi, surunkali aggressiv gepatit, surunkali aktiv gepatit).

Surunkali persistirlovchi gepatit bu klinik kechishi yaxshi tomonga o'zgarishi bilan kechadigan jigarning nospetsifik morfologik zararlanishidir. Ba'zida kasallik avj olib surunkali aktiv gepatit shakliga o'tishi mumkin. Boshqa xollarda ko'pincha noaktiv fazaga o'tadi. Surunkali aktiv gepatit jigarni avj oluvchi og'ir kasalligi bo'lib, tsirrozga olib keladigan yallig'lanish jarayonining uzoq davom etishidir. Bu jarayon stabil kolishiga yoki orqaga qaytishi ham mumkin (davolash ta'siri).

Etiologiyasi va patogenezi. Bolalarda surunkali gepatitning rivojlanishining muhim sabablaridan biri bu o'tkir virusli gepatitdir. Surunkali gepatit bilan kasallangan bemorlarni qonida HB -antigen topilishi, virusli gepatit V chakirgan o'tkir gepatitning oqibatidan dalolat beradi. Agar kasallik o'tkir epidemik gepatitdan keying rivojlansa uning sababi virusli gepatit A hisoblanadi. Ko'pincha surunkali gepatit jarayoni o'tkir gepatitni o'tkazgan bemorlarda bir yildan so'ng yuzaga keladi. Surunkali gepatitni shakllanishida o'tkir gepatitni sariksiz varianti muhim muammo hisoblanadi. o'tkir virusli gepatitni surunkali gepatitga aylanish sababi xozirgacha to'liq urganilmagan. Surunkali gepatitnin patogenezida xozirga paytda 4 ta gipoteza ilgari surilyapdi.

1. Virusli.

2. Immunopatologik.

3. Virusli-immunologik.

4. Tsirkulyator.

Virusli gipoteza -o'tkir virusli gepatit bilan kasallangan bemorlarning qonida uzoq vaqt virusemiya bo'lishi surunkali avj olish davrida bu bemorlardan virusni yo'qtirish klinika va klinikepidemiologik kuzatishlar orqali guvox bulingan. Surunkali jarayonda virusni organizmda kolishi va sitopatik xususiyati hisobiga rivojlanadi. Oxirgi yillarda surunkali gepatit immun ximoya mexanizmining buzilishidan yuzaga keladigan karashlarga katta ahamyat berilyapti. Immunopatologik gipotezaga asosan gepatotsitlar viruslar ta'sirida antigenlik xususiyatlar ortiradi. Bu esa immun sistemani turli qismlarini aktivlaydi va asta syokin jigar xujayralarini shikastlab patologik jarayonni avjlantiradi. Virusli immunologik gipotezada viruslarni gepotatsidlarga ta'siridan asta syokin sensiblizatsiya chakirib etarli limfotsit va makrofaglar klonini o'ziga jalb qilib viruslarni organizmdan elimenatsiyasini ta'minlaydi.

Sirkulyator gipoteza.o'tkir gepatitni surunkali jarayonga o'tishida jigarda turgun qon aylanishni buzilishi va organ gipoksiyasi sabab bo'ladi. Bu gipotezani asosida jigardagi aktiv patologik jarayonga zamonaviy xirurgik usullarni ta'sir yotadi.

Organdagi qon aylanishni va gipoksiyani patogenezini tushunish qiyin emas. Boshqa savollarni tushuntirish muhim va talab qilinadi.

Surunkali gepatitda qon aylanishining buzilish sababi nimag' Nima uchun bu holatlar surunkali yallig'lanish uchun turgun sharoit yaratadi. Boshqa holatlarda o'tkir kasallikning tugashi bilan birga tugaydi.

Bu erda o'tkir virusli gepatitni patogenezini tushunish uchun ba'zi holatlarga murojat qilish kerak. o'tkir gepatitni odatdag'i kechishida yallig'lanish jarayoni tez barham topadi. Strukturalar va nerv apparatlarni funktsiyalari tez tiklanadi. Shunday variantlari bo'lishi mumkinki o'tkir gepatitni ma'lum bir etaplarida vegetativ nerv xosilalarini ma'lum miqdorda zararlanishi kuzatiladi. Etiologik faktorga bevosita ta'sir qilinganda jigarda yallig'lanish jarayoni to'xtaydi, lyokin qon aylanishining buzilishi va gipoksiyasi davom etadi. Bu esa nevrit rivojlanishi yoki uning yomon asoratlaridan biri nerv strukturasining yomon buzilishiga olib keladi.

Nervni zararlanishi o'tkir gepatitning surunkali jarayonga o'tishida asosiy ikkilamchi omil bo'lib hisoblanadi. Surunkali gepatit sirroz bilan kasallangan bolalarda, umumi jigar arteriyasi atrofida o'tkazilgan 100 ta nevroektomiya operatsiyasida ko'pol qaytmas o'zgarishlar aniqlanadi. Atrofdagi biriktiruvchi to'qimalarda va yog' to'qimalarda skleroz o'zgarishlar nerv stvolida fibroz o'zgarishlar topildi. o'tkir nevrit va uning

oqibatidagi fibroz o'zgarishlar hisobiga jigaridagi qon aylanishining nerv orqali boshqarishini buzilishi va turgun sirkulyator buzilishlar kelib chiqadi.

Jigar arteriyasi atrofidagi nerv tolalarini kesish, jigaridagi tomirlar spazmini bartaraf qiladi, organda qon aylanishini yaxshilaydi, surunkali jarayonini aktivligini paysaytiradi. Qisqa qilib surunkali gepatit kasalligi patogenezini muxokama qilganda yuqoridagi gipotezalardan birortasi kasallikni rivojlanish mexanizmini tushuntirib berolmaydi.

Patologoanatomik o'zgarishlar. Surunkali gepatitda turli xil bo'lib kasallikni kechish shakliga bog'liq. Organ o'lchami kattalashadi, kapsula oqimtir, diffuz kalanlashgan bo'lishi hisobiga makroskopik ko'rinishi obrazli qilib aytganda «Katta oq jigar» deyiladi. Kapsula orqali gepatotsitlarni regeneratsiyasi ko'rinib turadi. Surunkali gepatitda jigar va portal gemodinamikada o'zgarishlar kuzatiladi, bu o'zgarish persistirlovchi gepatitda qisman, aktiv gepatitda turg'un bo'ladi. Surunkali gepatit Bilan kasallangan 50 ta bemorlarni reogepatogrammasi analiz qilinganda, jigar ichidagi tomirlarni diffuz spazmi hisobiga jigar ichidagi pulsili qon bilan tulishi ma'lum miqdorda pasayganligi aniqlandi. Ko'pchilik bemorlarda darvoza venasida turgun bosimni oshishi kuzatiladi. Jigar tomirlarini va portal sistemasidagi tomirlarni arxitektonikasini buzilishi patologik kollateral qon aylanish surunkali gepatitda (bu o'tish davridan mustasno-aktiv gepatitni ma'lum miqdoridagi fibrozi, jigar strukturasini sirrozga o'tish taksimlanish) qon aylanishini buzilishi kislorod rejimi va oksidlanish qaytarish jarayonlarining buzilishiga olib keladi. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki jigar tomiridagi qon tarkibidagi gaz va fermentativ jarayonlarni buzilishi to'qima nafasini va gipoksiyasi buzilishini bildiradi. Surunkali gepatitda O<sub>2</sub> ishlatalishi va sarflanishi kamayadi, aktiv gepatitda bu holat 3 marta kamayadi. Jigar venasi qonida sut kislotasi 3 marta oshadi, oksidlanish-qaytarilish koeffitsienti 1,5 marta oshadi, laktatdaegidrogenaza va izoenzimlar aktivligi oshadi.

Klinika. Persistirlovchi va aktiv shakli klinik kechishi va ko'rinishi bilan bir biridan farq qiladi, ammo hammasini ham bir qator tipik belgilari bor. Klinikada nevrologik va dispeptik buzilishlar ustun turadi. Onalari ko'pincha bexolligi, tez charchashi, yig'loqilik, qo'zg'alishi, xotirani pasayishi terlashdan shikoyat qilishadi va vegitativ nerv sistemasi buzilishi simptomlari, ishtaxani pasayishi ichaklar dissfo'ngtsiyasi, metiorizim, ba'zida o'ng qovurg'a ostida og'riq, o't yo'llarida diskinetik

buzilishlar kuzatiladi. Bemorlar ko'pincha o'ng qovurg'a ostida og'irlik, bosim va boshqa diskomfort holatlarini sezishadi. Bolalarda kattalardan farqli ularok terini kichishi kam kuzatiladi. Surunkali gepatit tulkinsimon kechib avj olish davri va remissiya davri bilan almashinib turadi. Surunkali persistirlovchi gepatit bir xilda avj oluvchi belgilarsiz kechib ko'p yillar davom etadi. Ko'pchilik bemorlar shikoyat qilishmaydi, klinik belgilari kam ifodalanadi va qonikarli holati saqlanadi. Surunkali aktiv gepvti turli xil-xil simptomlar kechib, remissiya va xuruj bilan almashinib turadi. Gepatitni bu shakli emon sifatli kechib patologik jaraenni yuqori aktivligi bilan harakterlanadi. Klinik ko'rinishi gepatitni o'tkir va o'tkir osti shakliga uxshaydi. O'ziga xos xususiyati xotto laborotor ko'rsatkichlari bir xil bo'lsa ham yaqqol shikoyat va intoksimatsiyani kuchliligi bilan farqlanadi. Simptomi asosan sitoliz va jigar funktsiyasini buzilishi, surunkali jigar yetishmovchiligi belgilariga asoslangan. Jigarni kattalashishi va zichlashishi doimiy simptomlaridan biri hisoblanadi. Kasallik temperaturani ko'tarilishi, oriqlash, gemarraqiya, terini polimorf o'zgarishlari, artrit, poliserozit, o'pka, ichak, yurakni zararlanishi kuzatilib, bularni hammasidan jigarni aktiv destruktsiyasi ustun turadi.

**Diagnostika.** Surunkali gepatit nospetsifik klinik belgilariga ega bo'lsa asosan laborator va instrumental tekshirishlarga asoslanib diagnoz qo'yishadi. Aktiv jarayondagi savollarga javob berish uchun zardob fermentlarini aktivligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. (ALT, AST, HF, F1-FA) va oksilllar fraktsiyasi miqdori. Surunkali persistirlovchi gepatitda zardobdagi aninotransferaza va globulin ma'lum miqdorda oshadi. Aktiv gepatitda ALT aktivligini oshishi harakterli, qonda F-1-F-A gipergommaglabulinemiya kuzatiladi. Jigarni yuqori kompensator imkonyati hisobiga 15-40% bemorlarda jigarni funktsiyasini o'zgarishi kuzatilmagan. Jarroxlik gepotologiyasida asosiy diagnostik usullaridan biri jigarni morfologik tekshirish usulidir. Bu holat loporosqopiyva biopsiya yordamida amalga oshiriladi. Bu metodlarni birqalikda qo'llash orqali patologik jarayon to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lishadi. Surunkali gepatitni xal kiluvchi diagnostik uso'lim jigarni gistologik tekshirishidir.

Radioizotop tekshirish usuli qo'shimcha tekshirish usuliga kirib sirroz va surunkali aktiv gepatitni dif-diagnostikasi maqsadida qo'llaniladi. Angiografiya usuli surunkali gepatitga va uni shaklini

aniqlashsha yordam bermaydi, ammo surunkali hepatitni sirrozga o'tish chegarasida qiyinchilik tugdirgan holatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davosi: Surunkali hepatitni asosan pediatrlar davolashda agar zamonaviy davolash samara bermasa sirroz rivojlanish extimoli bo'lganda operatsiya o'tkaziladi. Operatsiya umumiyligiga jigar arteriyasida periarterial nervektomiya qilinadi. Turgun gipersplenizm bo'lgan holatlarda splenektomiyaga ko'rsatma bo'ladi.

Jigar sirroz. Tsirroz-jigarning surunkali diffuz yemirlishi bo'lib, tugunli regeneratsiya xosil bo'lishi va fibroz o'zgarishlar hisobiga bo'lakcha tuzilmalarining buzilishidan jigarning funksional yetishmovchiligi va organ sistemada patologik jarayonlarni avj olishi bilan yuzaga keladigan klinik anatomiq tushunchadir. Sirroz surunkali hepatit oxirgi stadiyasidir. Bu bilan sirroz surunkali yallig'lanish jarayonini final bosqichi deb qaralmaydi. Sirrotik transformatsiya uchun, jigmari surunkali aktiv kasalligini kechishda yangi etapli jarayon almashinadi. Sirrozni tipik klinik, funksional, morfologik belgilari paydo bo'lishiga qaramasdan, surunkali hepatitni kechishi uzoq vaqt saqlanadi va shunga qarab davo choralari aniqlanadi.

Tsirroz tasnifi:

1. Morfoloyiyasi bo'yicha

a). Portal

b). Postnekrotik

v). Biliar

2. Etiologiyasi. Virusli hepatit Botkin, oziqlanishni buzilishi (end-ekzogen) o't yo'llari zararlanishi, sirkulyar buzilishlar -jigar dimlanishi, tug'ma sifilis, intoksikatsiya.

3. Kliniko-funksional belgilari.

1. Kechish va fazasi

a). avj oluvchi (aktiv va noaktiv fazasi)

b). stabil

v). pasayish (regressiruyuhee).

Kasallik stadiyalari.

1). Boshlang'ich.

2). tsirroz shakllanishi, distrofik (chuzilish)

3). jigarning funksional holati: yengil, o'rtacha, og'ir.

4). Portal qon oqishini holati.

5). Blok harakteri a). jigar ichi b). aralash.

6). Portal gipertenziya tipi a).total b)total ichak mezinterialni ustun turishi bilan v).total gastrolienal tipni ustun turishi bilan

7). Portal blok a).kompensatsiya b). dekompensatsiya.

8).Gipersplenizm (bor yoki yo'q).

Etiologii va patogenezi.

Bolalarda jigar sirrozini birinchi etiologik omillaridan bu virusli gepatitdir. Sirroz kasallikni o'tkir fazasida yoki surunkali gepatitdan keyin shakllanishi mumkin. Gepatitni sariqsiz shaklidan kelib chiqqan sirrozga «criptagen tsirroz» deyiladi. Sirrozni patogenezi organlar gipoksiyasini va qon aylanishini kampensatsiyasini, kasallikni avj olishini aniqlaydigan murakkab patologik siljishdir.

Tsirrotik transformatsiyani rivojlanishida bir qator karma-karshi jarayonlar aniqlangan. Gepatotsitlar nekrozi va tugunli regeneratsiyasi.

Passiv (retikulyar stroma soxalari) va aktiv (mezinximial raktsiya hisobiga parenximani zararlanishi) fibrinogenez. Buning natijasida jigarda Yolg'on bo'laklar paydo bo'ladi. Yolg'on bo'laklar parinximani qismi bo'lib ularda portal tomirlar va markaziy venalarni uzaro munosabati buzilgan bo'ladi. Ularni markazida markaziy vena bo'lmaydi va periferiyadagi portal triadani joylashishi bo'lmaydi. Postnekrotik tsirrozni asosida parenximani massiv nekrozi yotadi. Nekroz soxalariga briktiluvchi to'qima o'tirib jigar zichlashadi.

Bu jarayon bilan bir vaqt ni uzida, nekroz soxasida mezinximal xujayralarning reaktsiyasi hisobiga aktiv fibroz to'qima xosil bo'ladi. Yangitdan birkiruvchi to'qima tasmalari xosil bo'lishidan parenxima maydonlari saqlanadi. Gepototsitlarni zararlanmaganlari tugunli regenratsiyaga uchrab qolgan parenxima bilan birlgilikda yolg'on bo'lakchalarni shakllantiradi. Postnekrotik sirroz makronodulyar bo'lib mikroskopik notyokis o'zgarishlar bilan farqlanadi. Birkiruvchi to'qima tasmalarining noregulyar turi va bir necha bo'lakcha fragmentlaridan tashkil topgan turli kattalikkagi yolg'on bo'lakchalardan iborat. Portal sirroz. Asta syokin rivojlanadigan surunkali gepatitning oqibatidir.

Portal va portal atrofidagi infiltratlarni bo'lakchalaga ta'sirida jigarda qayta taksimlanish yuzaga keladi. Bulakchalar birkiruvchi to'qima zanjiri blan fragmentatsiyalanadi. Portal sirroz makro va mikroskopik jixatdan bir xil bo'lib ularda fibroz zanjir bir xil tarkaladi.

Biliar sirrozi. Surunkali xolangid hisobiga birlamchi biliar sirroz kelib chiqadi. Jigardan tashqari obstruktsiya hisobiga ikkilamchi biliar sirroz kelib chiqadi.

Biliar sirroz belgilari bo'yicha portal sirrozga uxshaydi, farqi shundaki biliar tsirrozda regeneratsiya intenvsivligi past bo'ladi.

Aralash sirroz. Belgilari portal va postnekrotik sirroزلarni uz ichiga oladi. Bu kushilish surunkali gepotitda yoki portal sirrozga porinximani massiv nekrozga uchrashi kushilishidan shakllanadi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Tajribalarda aloxida sirrozni uchrashi kam bo'lib morfologik kartinasi 2 ta tip sirrozni belgilarni ko'rsatadi.

Jigardagi va portal sistemadagi qon aylanishini buzilishi sirroz patogenezini asosini tashkil qiladi. Sirroz evolyo'tsiyasi jarayonida portal triada va markaziy venalarga yaqin joylashgan sinusoidlar buziladi. Bu buzilish Yolg'on bo'lakchalamini bir biridan ajratib turgan biriktiruvchi to'qima to'siqlari kushilishi hisobiga yuzaga keladi. Buning natijasida markaziy vena bilan darvozan venasi bilan ulaydigan kalta va keng kanalli tomirlar paydo bo'ladi.

Qisqa qilib aytganda jigarda o'ziga xos organ ichi portokaval shunt xosil bo'ladi, bunda patologik qon aylanishining xosil bo'lishi hisobiga qonni ko'pchiligi portakaval shunt orqali pastki kavak venasiga o'tib ketadi. Jigar parenximasiga kam qon kelib xujayralar bilan qon qontakti kamayadi. Bu esa og'ir mikrotsirkulyatsiyani buzilishiga va ishemiyaga olib keladi. Buni oqibatida gepatotsitlarda distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar yuzaga keladi, jigar xujayralarining ulishiga javob sifatida mezinximol xujayralarni aktivligi kuchayib, fibrinoz va tugunli reganeratsiyani yangi uchoklari paydo bo'ladi. Jigarda metabolizmni va qon aylanishini buzilishida kompensatsiya yo'liga etibor berganda bolalarda portal qon aylanishida arterializatsiya yuzaga keladi. Darvoza venasida O<sub>2</sub> portsiyal bosimi va miqdorini oshishi kuzatiladi. Shuningdek darvoza venasi qon tarkibida gemotokrit soni ham oshadi. Shu hisobiga jigar xujayralariga kerak bo'lgan O<sub>2</sub> etkazilib turiladi. Jigar arteriyasining spazmi hisobiga qorin uzanidagi tomirlardagi arteryal qoni qayta taksimlanishi yuzaga keladi va qon oqishi talokka yunaladi. Jigar arteriyalarida qonni kamayishidan interamural (anastanoz ochilib) arteriya portal anastaoz ochilib (talok arteriyasi, ichak oshqozon arteriyalaridan portal sistemasiga qon o'tishi) portal sistemani yuqori oksigenatsiyasiga olib keladi. Sirrozni keyinchalik yana davom etishidan bu kompensatsiya turgun bo'lmay qoladi.

Jigar ichi karshiligini oshishi hisobiga asta syokin jigar ichi arteriya partial anastamozni shakllanishi yuzaga keladi. Sirrozni jadallahishidan jigar xujayralarini yetishmovchiligi hisobiga portokoval anastomoz

hisobiga o'ng yurak soxasiga ko'p qon borib yurakda patologik jarayon yuzaga keltiradi. Dekompenstsiya (stadiyasi) davrida markaziy qon aylanishni buzilishi yuzaga keladi, bu yurakni o'ng bo'lagida bosimni oshishi hisobiga jigardan tashqari portakaval shundan qon olish syokinlashadi va jigarda qon aylanish tez buzilishiga olib keladi. Jigarni sirrozini yana bir belgilaridan biri bu astsit. Astsitni sabablaridan biri bu jigar xujayralarini yetishmovchiligi va portal gipertenziya jigar xujayralari yetishmovchiligidagi oksil sintezi va aldestron inaktivatsiyasi kamayadi. Gipoalbuminemiya hisobiga qonda onkotik bosim kamayadi va tomir uzanidan suyuqlik bo'shliq va to'qimalarga o'tadi.

Aldestronni oshishi hisobiga buyrakni distal kanalchalaridan NaQ ionni surilishi kuchayadi va xujayralararo suyuqlikda tuplanadi. Sirrozda astsitni kelib chiqishini yana bir sababi jigar sirrozida limfa xosil bo'lishini oshishi. Bu esa uz navbatida limfa qon aylanishini buzilishiga va limfa tomirlari kengayib qorin bo'shlig'iga suyuqlik o'tishiga olib keladi.

**Klinikasi.** Bolalarda jigar sirrozi kattalarga nisbatan yaxshi kechadi. Oshqozon va Qizilo'ngach I venalaridan qon ketish 4-10% bemorlarda kuzatiladi. Sirrozni klinikasida jigarni fo'ngtsional etishmovchilik belgilari paydo bo'ladi. Bexollik, charchash, bosh ogrigi uykuni buzilishi, oriklash, dispepsiya, metiarizm. Teridagi o'zgarishlar, ko'rish, yuzda, bo'yinda, tana va oyok kollarida urgimchak va yo'lduzcha simptomi, polmar eritma. g' bemorlarda barmaklarida baraban tayokchasi, emal tirkok belgilari ko'rindi. Gemorragik diatez tipik nomayon bo'lib, qon ivituvchi faktorlar sintezini buzilishi, trombotsitopeniya, tomirlar sinishi oshishi hisobiga yuzaga keladi. Jigar tsirrozini yaqqol belgilari sariqlik va astsit. Sariqliknii yuzaga kelishi qonda bilirubinni oshishi hisobiga bo'ladi. Jigar sirrozini doimiy belgilash jigarni kattalashishi va talokni kattalashishi kasallikni oxirgi davrida miokardda distrofik o'zgarishlar hisobiga yurak yetishmovchiligi belgilari paydo bo'ladi. Jigar sirrozini asoratlari gepatotserebral etishmovchilik, oshqozon va Qizilo'ngach ini varikoz venalaridan qon ketish.

**Diagnostikasi.** Buning uchun klinika bioximik, morfologik, radiologik va rentgenologik tekshirishlar o'tkaziladi. Morfologik (loporosqopiyasi, jigarni po'ngktsion biopsiyasi) tekshirish diagnoz qo'yishda muhim omil bo'ladi.

1. Kompensatsiya holatida tekshirish ko'rsatgichlarini zurayganligi ko'rindi.

2. Subkompensatsiyada ovqatlanishini buzilishi (oriklash, gipovitaminoz, engil sariqlik, endokrin o'zgarishlar, teridagi o'zgarishlar va shish kuzatiladi). Umumiy bilirubin miqdori 85,5 min molG'l gacha oshadi ALT, AST 200 ed gacha oshadi. Timol probasi 40 ed gacha oshadi, sulema probasi 50 % gacha oshadi.

3. Dekompensatsiya: yuqoridagi simptomlarni chuqurlashishi, astsit, gemorragik diatez, qondagi ivish faktorlarni pasayishi kuzatiladi. Splenoportografiya portal sistema to'g'risidagi to'liq ma'lumotni beradi. Bu tekshirish usuli o'rta yoki orqa aksilyar chiziqda IX-X -qovurg'alar orasidan teri orqali talok punktsiya qilinadi. Mandren ignasi talokka 2-3 sm kiritiladi. Bundan mandren ignasida qon tomchisi paydo bo'ladi. Keyin Mandren ignasini Valdian flebotonsmetriga ulab portal bosim ulchanadi va shprits orqali qontrast modda 3-4 s davomida yuborib splenoportografiya qilinadi. Sirrozni og'irligiga qarab splenoportografiyani 3 ta ko'rinishi ma'lum

1 tip talok va darvoza venalari qisman kengaygan. Bu holat sirrozni Boshlang'ich davrlarida namoyon bo'ladi.

2 tip jigar kichiklashgan tomir surati qisman yoki ko'pol deformatsiyalangan. Portakaval kollterallarni qontrastlanishi

3. jigar tomirlarini birlashshishi yoki umuman bo'lmasligi kuzatiladi.

Davosi. Jarroxlik davolanishdan maqsad regeneratsiya jarayonini stimullah, giperspenizimni bartaraf qilish asosiy kasallikni keyingi rivojlanishini oldini olishga karatilgan.

Bu maqsaddagi jarroxlik usullaridan biri umumiy jigar arteriyasi atrofidagi nevroektoniya. Bu jarroxlik usuli sirrozdagi morfologik o'zgarishlar aktivligini kamaytiradi ammo jarayonni to'liq tuxtatmaydi. Gipersplenizm bo'lgan holatlarda splenoektoniya operatsiyasini o'tkazishga ko'rsatma hisoblanadi. Oxirgi yillarda tsirrozda regeneratsiyani stimullah uchun jigarni qisman kesish operatsiyalari muxokama kilinyaptdi.

Portal qon aylanishini jiga dan tashqari blokadasi. Jiga dan tashqari portal gipertenziysi darvoza venasiga yoki asosiy stvolga qon oqib kelinishini to'siqlikka uchrashi hisobiga yuzaga keladi.

### Etiologiyasi va potogenezi.

Portal sistemani o'tkazuvchanligini buzilishi sabablari turlicha Anomal rivojlanishlar, tromboz va flebit hisobiga postnatal obliteratsiya, o'sma, qisman chandik bilan bosilish. Portal yo'lida qonni to'siqlikka

uchrashi ko'pincha darvoza venasi stvoli soxasida vujudga keladi. Jigardan tashqari portal gipertenziyada portal bosim juda yuqori bo'ladi. Kasallikni erta davrida kollateral tomirlar ochiladi. Asosan portokavol oqim gastroezofagal venalari orqali amalga oshadi. Jigarga darvoza venasidan qon kam kelishi natijasida uni qon bilan taminlash jigar arteriyasiga to'shadi. Jigardan tashqari blokadada jigarni O<sub>2</sub> ga bo'lgan talabi tez pasayadi, oksidlanish jarayonlari buziladi. Qonda SO<sub>2</sub> miqdori pasayadi. Bunda uglevod, yog' oksillarni qisman qisman oxirigacha boradi. Organni gipoksiyasini rivojlanishida yana bir sabab gipersplenizm bo'lib eritrotsitlar miqdorini kamayishga olib keladi. Anaerob glikozni aktivligi oshishi va kata miqdoridagi plastik materiyallarni jigarga kemasligidan jigarda metabolistik buzilishlar va fibroz o'zgarishlar yuzaga keladi. Jigardan tashqari portal gipertenziyada qon ketish oshqozonn kardiol qismidagi venalarni varikoz kengayishidan mustasno ravishda yuboriladi. 85 % uchraydi.

**Klinikasi.** Jigardan tashqari portal gipertenziyasni asosiy belgisi bu gipertenziya va Qizilo'ngach I, oshqozonni kardial qismidagi venalarni varikoz kengayishi va ulardan qon ketish ko'pgina bemorlarni splenomegaliya yoki metiorizim hisobiga korni katalashadi. Qorinni oldingi dèvorida va Ko'krak qafasida venalarni surati kuchayadi. Tipik belgilari qorinni chap tomonidan og'irlik sezishi ishtaxani pasayishi, burundan qon ketish, astsit qondan kam xollarda rivojlanadi.

**Diagnostikasi.** Tekshirish usullaridan splenoportografiya va mezenterikoportografiyadir. Bu tekshirishda blokada soxasi, talok venasi, darvoza venasini asosiy stvolini xoltalari aniqlanadi. Qizilo'ngach I va oshqozonni kardio qismini venalarni varikoz kengayishini bariy ichirib rentgenologik tekshiriladi. Kerak bo'lsa endoskopik usuldan foydalilaniladi.

**Davosi.** Jarroxlik yo'li bilan davolash: kasallikni venalarni varikoz kengayishi, ulardan qon ketish va giperspilenizmni rivojlanish darajalariga bog'liq.

Jarroxlik usilii bilan davolashga absolyo't ko'rsatkich bu venalarni varikoz kengayishi va ulardan qon ketishi. Absolyut qarshi ko'rsatma bartaraf qilib bo'lmaydigan nuqsonli rivojlanishlarni birga kelishi, nisbiy qarshi ko'rsatma birgalikda keladigan kasalliklar va postgemorragik sindrom. Protal bosimni kamaytirish va qon ketishini oldini olishni radikal usullari bo'lib tomirlar anastamozi hisoblanadi. Buning uchun splenorenal va kavomezinteriol anastomoz xosil qilinadi. Venalarni

varikoz kenggayishida samarali usullardan biri bu gostrotomiya qilib kegaygan venalarini boglash operatsiyasidir. Agar oshqozondagi operatsiyalar samara bermasa transtorakol usul orqali Qizilo'ngach I venalari bog'lanadi. Jigarni surunkali diffuz kasalligi va portal sindromini jarroxlik davolash usullari.

1974 yilda M.D. Patsiar jarroxlik davolanish 5 ta gruppaga ajratgan. 1. Astsitik suyuqlikni qorin bo'shlig'idan chikarishga karatilgan operatsiya (qorin bo'shlig'ini drenajlash, oyokni kata teri osti venalariga anastolizlash). 2. Portal sistemada qoni yangi oqimin tashkil qilishga karatilgan operatsiyalar (omentopeksiya, organopeksiya, protokaval anastamozlar). 3. Portal sistemaga qon kelishishini kamaytirishga karatilgan operatsiyalar (splenoektomiya, arteriyalarni boglash). 4. Portal sistema venasini oshqozon va Qizilo'ngach I venalari bilan boglanishga karshi karatilgan operatsiyalar (oshqozon va Qizilo'ngach I venalarini boglash, Tanner operatsiyasi, oshqozon va Qizilo'ngach I proksimol qismlarini kesish operatsiyasi). 5. Jigarda regeneratsiyani va qon aylanishini kuchaytirishga karatilgan operatsiyalar (jigarni kesish, umumi jigar arteriyasidagi periarterial nerv ektomiya, arterio portal anastaioz). 1. Portal yo'ldan qon oqishini Yangi yo'lini xosil qilish. Omentoleksiya (kata charvini qorinni oldingi devoriga tikish) bu usulni 1887 y. (Tali) Talm taklif qilgan.

## **JIGAR VA O'T YO'LLARINING NUQSONLI RIVOJLANISHLARI**

Jigarni nuqsonli rivojlanishi odatda simptomsiz kechadi va kam uchraydi. Joylashish, shakl va aralash anomaliyalari farqlanadi. Joylashish anamalyasida jigar chap diafragma ostida joylashadi va kolgan qorin bo'shlig'idagi a'zolar o'zgarmagan bo'lib asosan boshqa tug'ma kasalliklar: diafragmal churra kindik tizimchasini embrional churrtasi hisobiga siljishi mumkin. Jigarni qisman burilgan shakillari uchrab jigar funktsiasiga t'asir qilmaydi. To'liq agneziya holati juda kam uchraydi. Jigar gipoplaziyasi ham juda kam uchrab uning massasi tana massasiga nisbatan 1% dan oshmaydi. (normada 2-3 %). Nuqsonli rivojlanishlarda ko'p uchraydigan shakllariga chap bo'lak gipoplaziyasi va kvadrat bo'lagini kattalashishi kiradi. Gepatomegaliya tug'ma bo'lib xech qanday patologik o'zgarishlarsiz namaen bo'ladi. Kam uchraydigan nuqsonlardan



Rasm 22.

yana biri qo'shimcha jigar bo'lib uni o'lchami turlicha bo'ladii va jigarga tomir sekretor to'qima oegi bilan to'tashadi. B'azida plevral bo'shliqni diafragma ustida joytslashishi mumkin. Tarkibida arteriya, vena, o't yo'llari bo'lgan kichgina oekchasi diafragma teshikchasi orqali jigarga birikib turadi (Rasm 22).

O't pufagini nuqsonli rivojlanishlari Bunga o't pufagi agneziyasi va gipoplaziyasi kiradi. o't pufagi agneziyasini uchrashi 1:16000 ni tashkl qiladi. Kizlar ugil bollalarga nispatan 2 barobar ko'p kasallanadi. o't pufagini agneziyasi embrional rivojlanishgni 4-xaftasida jigarni kaudal qismini zararlanishi hisobiga yuzaga keladi. o't pufagini bo'lmasligi klinik ahamyat kasb etmaydi.

Joylashish nuqsoni. o't pufagini joylashishini turli xil variantlari bo'lib ular Quyidagicha: uroksimon boylamda, qorinni oldingi devorida, jigarni chap bo'lagini pastki yuzasida joylashishi, jigar ichida va harakatchan o't pufagi. o't pufagini jigar ichida joylashishi klinik ko'rinish bermaydi lyokin xolilitiazga moillik tug'diradi. o't pufagini yallig'lanishi gepatit simptomlari, destruktiv xoletsistit jigar abstsesi klinikasini namaen qiladi. Operativ davolashda xoletsistostomiya usuli, yoki jigarni ponasimon kesish usilidan foydalilaniladi. Harakatchan o't pufagida o't pufagi hamma tamondan qorin parda bilan qoplanadi. Uni oziqlantiruvchi arteriya va vena uni ushlab turuvchi bog'lam vazifasini bajaradi. Uni fiksatsiyasi bo'limganligi sababli buralib o'tkir qorin simptomini yuzaga keltiradi. Muhim diagnostik usillaridan biri bu loproskapiyadir. Davolvsh xoletsistoektomiya qilish orqali kasallik bartaraf klinadi.

O't yo'llari nuqsonlari ko'rinish va rivojlanish mexanizmlarga qarab bir qancha guruhlarga bo'linadi.

1. Pufak yo'lini quyilish joyidagi o'zgarishlar: pufak yo'lini, umumiy o't yo'li bilan birga 12 barmoq ichakka birga quyilishi yoki o'zi aloxida quyilishi.

2. Pufak yo'lini jigar yo'lini birortasiga quyilish nuqsoni. Bu nuqsonlar operatsiya yoki xolangiografiya payti aniqlaniladi.


3. o't pufagi yo'lini o'zgarishi umumiyligi o't yo'liga nisbatan kuzatiladi. Umumiyligi o't yo'lini orqadan, oldindan kesib o'tib, chapga, o'nga, orqa, oldingi devorlariga qo'yiladi.

4. Pufak yo'lini bo'lmasligi kam uchraydigan nuqsonga kirib, o't pufagi o'zini bo'yin qismi bilan umumiyligi o't yo'liga birikadi.

Pufak yo'lini to'liq yo'qligida pufakni umumiyligi o't tarmogiga o'zining keng bo'yinqismi bilan birikadi. Pufak yo'lini to'liq yo'qligida pufakni umumiyligi o't yo'liga birikmasini boglab bo'lmaydi, sababi umumiyligi o't tarmogida deformatsiya xosil qilishi mumkin.

Shuning uchun kamroq koldirilib kesiladi va kelgan qismini teshigni yopish maqsadda umumiyligi o't tarmogiga tiqiladi.

Pufak yo'lini ikkilanishi 1. o't pufagidan 2 ta yo'l chiqib, 1 tasi



umumiyligi o't tarmogini odatdagiligi joyiga, qo'shimcha yo'l bir qancha yuqori yoki o'ng jigar tarmogiga birikadi. Agar yo'l aloxida chiqib umumiyligi o't yo'liga kuyilsa klinik belgilar yuzaga kelmaydi. Ammolarni orasida 1 ta to'siq bo'lsa, o't oqimini qiyinlashtirib xoletsistit rivojlanishiga olib keladi.

Pufak yo'lini gipopaziysi va fibrozi: Bu

nuqsonli rivojlanish xolitsistit rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Pufak yo'li ingichka zinch burma nay ko'rinishda bo'lib briktiruvchi tasma bilan fiksatsiyalangan. Tarmoq teshigi hama tamondan bir xil toraygan. Shilliq kavat atrofiyalangan kolgan kavatlar differantsialangan. o'tni pufakdan evakuatsiyasi buzilishi xisobga o't pufagini surunkali yallig'lanish yuzaga keladi.

Qo'shimcha o't pufagi uchrashi 1: 4000 oddiy shakli ikkilanishda pufaklar orasida 1 ta to'siq bo'lib u to bo'yinqismigacha boradi. Ulardan 1 ta yoki 2 ta pufak tarmogi chiqadi.

Bunday ikkilanishga 2 ta pufak arteriyasi kerak bo'lmaydi. Chin ikkilanishda pufaklar aloxida shakillanib. Ularni aloxida pufak arteriyalarini oziqlantiradi. Pufak tarmoqlari aloxida umumiyligi o't tarmogiga

ochiladi. Adabiyotlardan o't pufagini 3 ta bo'lishi ham yozilgan bo'lib ulardan chiqadigan tarmoqlar aloxida lyokin bir-biriga yaqin holatda umumiyo't yo'liga qo'yiladi. Rentgenologik, radioizotop lekorosqopiyalashtirish sullari orqali diagnoz qo'yiladi.

Pufak ichidagi to'siq Pufak devoridan uni bo'shlig'iga burtib turadigan yarim oysimon va sirkulyar membrana bo'ladi. U shilliq kavatdan va yumshoq mushakdan tarkib topgan bo'ladi, pufak asosidagi to'siqdan sirkulyar torayish yuzaga kelib u tashki tamondan o'zgarish chakirmasligi yoki deformatsiyalanib kul soatiga o'xshashi mumikn. Ko'pincha to'siq kundalang yunalib tubi va tanasida to'siq xosil qiladi. Sirkulyar membranali to'siq orqasi pufak 2 ta kameraga ajralib ular bir-biri bilan kichkina teshik orqali aloqa qiladi. Agar teshik kichkina bo'lsa tubida o'tni chiqishi qiyinlashib yallig'lanish chakiradi. Rasm 23.

Pufakdagi bo'ylama to'siq. Pufakni tubidan boshlanadi. Tashki tamondan to'siq asosida chuqurcha bo'lishi mumkin. Bu to'siqda teshik bo'lmaydi, agar to'siq pufakni 2G'3 qismigacha borsa o'tni oqimiga ta'sir qilmaydi. Agar to'siq bo'yin qismigacha borsa ikki bo'lakli o't pufagi paydo bo'ladi.

Ko'p to'siqli pufak – ko'p kameral o'ng pufagi xosil bo'lib. Ko'p bo'shliklar bir-biriga burma teshiklar orqali aloqa qiladi va organni bo'shashiga etarli to'sqinlik qiladigan labirint xosil bo'ladi. Pufak ichidagi to'siqni xosil bo'lishi embrional rivojlanishni 12 xafasida pufak bo'shlig'ini tiklanishini buzilishi hisobiga kelib chiqadi.

O't pufagi deformatsiyasi. Tug'ma bug'ilishi va tortilishi. Tug'ma bug'ilishi bu burma xosil qilishi hisobiga bo'ylama o'qini buzilishi, sirkulyar yoki politsirkulyar torayishlar yuzaga keltiradi.

Divertikul. o't pufagini kam uchraydigan anamolyalari bo'lib 600 ta tekshirish natijasida 2 ta topilgan. Divertikul o't pufagini 1 ta yoki ko'p miqdorda devorini xaltasimon bo'rtishi bo'lib ko'pincha tubida joylashadi. Divertikul devorini tekshirib ko'rildganda, mushak kavatini kamligi, elastik tolalarini yo'qligi aniqlanadi.

Divertikulni kelib chiqishiga o't yo'llarida kistoz o'zgarishlarini bo'lishi, maxalliy elastik karkasni bo'lmasligi Bilan bog'liq devor tarkabini tug'ma defekti sabab bulla oladi. Bu divertikulga Gartman cho'ntaklari deb ham nom berilgan. Divertikul rentgenoqontrast tekshirish usuli yordamida tashxislanadi. U rentgenda qo'shimcha soya sifatida ko'rilib, ammo pufani to'siqli o'zgarishi va deformatsiyasidan farqlash juda qiyin. Intramural divertikul xolegrammada o't pufagini

qisqarishi holatida yaqqol farqlanadi. Tug'ma divertikul aktiv qisqaradi lyokin asosiy o't pufagiga nisbatan syokin bo'ladi. Divertikul holatsistitni sababchilaridan biri sanaladi.

Pufak arteriyasini anamalyalari. Pufak arteriyasi odatda o't pufagiga bo'yinqismidan yopishadi. Bu erda 2 ta shoxga bo'linadi, ular yuqorigi va pastki yuzalari orqali bo'ylama yunaladi. o't pufagi arteriyasini yopishishi va shoxlanishi nuqsonini 2 ta ko'rinishi farqlanadi. Ulardan biri xalqasimon pufak arteriyasi. Arteriya 2 ta shoxga bo'linib o't pufagi tanasini xalqasimon qisib oladi. Arteriyani shoxlangan joyida fibroz o'zgarish va sirkulyar qisilish hisobiga pufak qisilib qum soati shaklini oladi.

Pufakni distal, arterial xalqadan yuqori qismi kengayib yallig'lanish belgilari paydo bo'ladi.

Nuqsonni ikkinchi ko'rinishi qisqa pufak arteriyasi. Arteriya pufakni turli bo'limlariga birikib shoxlanadi. Arteriyani pufak tubiga birikishidan pufakni hamma joyi buraladi. Arteriya fiksatsiya bo'lgan joydan pufakni distal qismi o'sish davridan deferatsiyalanib ko'p burmalarini tashkil qiladi. Shuningdek pufakni bo'lmasiga tuskinlik yaratilib surunkali yallig'lanishga sharoit yaratadi.

O't pufagi va pufak tarmoqlarini (nuqsonli rivojlanishlari) klapani apparatini ortiqcha rivojlanishi. o't pufagini tanasidan chiquvchi infindibulyar qismini klapanni gipertrofiyaga uchrashi mumkin. Klapannlarni gipertrofiyaga uchrashi uz navbatida surunkali yallig'lanish jarayonini rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

O't yo'llari nuqsonlari. Jigar yo'llarini nuqsonlarini asosan 2 ta nuqsonli ko'rinishi ma'lum:

- 1) O't jigar yo'lini o't pufagini bo'yinqismiga quyilishi.
- 2) Ikkita jigar yo'lini ham o't pufagi bo'yniga qo'yilishi, bu esa hama jigar o'tini 12 barmoq ichakka o't pufagi orqali qo'yishishiga olib keladi.

Qo'shimcha o't yo'li. Bu ko'p uchraydigan nuqsonli rivojlanishlarga kirib 14-28% tashkil qiladi. Qo'shimcha o't tyo'lini 2 ta ko'rinishi farqlanadi 1) jigar segmentidan aloxida drenajlanuvchi. 2) kommunikatsiyali. Birinchi ko'rinishda qo'shimcha tarmoq jigardan chiqib, tashki o't tarmoqlariga ochiladi. Kommunikat tarmoq o't tarmoqlarini bir biriga boglaydi. Qo'shimcha o't tarmoqlarini xavfli tomoni shundaki operatsiya paytida bilmay kesilganda ulardan o't chikmaydi, o't chikish 20-24 soatdan keyin boshlanadi. Jarroxlarni o'ziga

jalb qiladigan qo'shimcha tarmoqlardan biri bu jigaridan chiqadigan vao't pufagiga ochiladigan tarmoqdir. Bu tarmoqni «jigar pufak» yoki Lushka tarmoqlari deyiladi. Umumiy o't tarmogini nuqsoni. Uni ikkilanishi, chikish teshigini ektapiyasi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ikkilanish, pufak tarmogidagi pastda bo'ylama to'siqka ega bo'lib tashki tamondan karaganda ikkilanishi bilinmaydi. Ikkilanishni boshqa ko'rinishlari 12 barmoq ichakka ikkita drenaj Bilan ochishi, kam holatlarda umumiy o't tarmogini to'liq ikkilanishi kuzatiladi. 2 ta teshikni ochilishi bir biriga yaqin yoki 1 necha santimetr uzoqlikda, oshqozon va 12 barmoq ichakni turli soxalariga ochilishi mumkin.

O't sistemasini va jigarini kistoz kasalligi. Kistoz zararlanish joylashishiga qarab jigar ichi va jigar tashqarisiga bo'linadi. Kista joylashi tasnifi Quyidagi ko'rinishda taksimlangan.

Jigar kistasi. o't tarmogi bilan aloqa qiladigan va aloqa qilmaydigan.

Solitar kista

Polikistoz

Fibrokistoz

O't yo'llari sistemasi kistasi

Jigardan tashqari

Umumiy o't tarmogi kistasi

Tupik, joylashgan, burtmasimon, tug'ma divertikul,

Jigar ichi

Bosh jigar tarmoqlarini kistoz kengayishi. Jigar ichi o't yo'llarini ko'p kistoz kengayishi Aralash shakli

Jigar kistalari. Birlamchi o't kanal iva tarmoqlarini 1 ta sistemaga kushilishini ko'rtaklanishini buzulishi natijasida xosil bo'ladi.

Solitar kista odatda o't bo'lagida bo'lib uning pastki yuzasida joylashadi. Uni joylashishi turlicha bo'lib u jigar yuzasida erkin joylashishi yoki oyog'i bo'lishi mumkin, ba'zida to'qimada qisman joylashib yarmini tashqariga chiqib turadi. 10% solitar kista ko'pkamerali bo'ladi. Tug'ma solitar kista parazitardan farqi, ilvillagan bo'lib koltsifikat to'tmaydi. Devori ingichka bo'lib gemorragik suyuqlik ko'rindi. Agar o't yo'llari bilan aloqa qilsa o't ko'rindi.

Klinikasi. Asoratlanmagan kata kistalarda epigastrol soxada shish, ovqatdan keyingi og'irlik, doimiy o't kovirga ostidagi simirlovchi og'riq. Kistani o'lchamini kattalashishi qorinni assemetriyasiga olib keladi. Tashxis fizikal tekshirishlar (polpatsiya, perko'tsiya) rentgenologik, radialogik, endoskopik tekshirishlar orqali qo'yiladi. Palpatsiyada elastik

xosila jigar bilan boglangan yoki harakatchan xosila paypaslanadi. Jigar ichida bo'lsa jigar kattalashadi, skaniogrammada tulishish defekti aniqlanadi, angiogrammada avoskuyar zona ajralib turadi. Asorati kata infektsiyalanmagan kistani yorishishi bo'lib bunda o'tkir qorin belgisi paydo bo'lib 1 necha soatdan keyin peritonial belgilar yo'qoladi. Infektsiyalangan kistani yorilishida peritanial belgilar davom etadi. Kistadan qon ketishida qon ketish belgilari, oyog'i atrofida buralashishidan nekrozga uchrab peritonial belgilar chakiradi.

Davosi: kista topilganda operativ davoga ko'rsatma bo'ladi. Jarroxlik usullari kistani to'liq eksterpatsiya qilish, agar ichida o't suyo'qligi bo'lsa, sisto enterostemiya qilish, kista yiringlagan bo'lsa tashqariga drenajlanadi, kista suyo'qligi yiringlamagan bo'lsa qorin bo'shlig'iga ochilib, charvi bilan tomponada qilinadi.



Rasm 24

Polikistoz (ko'p miqdordagi kistalar). Jigarda ko'p miqdordagi kistalar aniqlanishib o'lchami mikrosqopikdan to gigant shakligacha etadi. Bo'shlig'i tiniq suyuqlik bilan, kam xollarda o't suyo'qligi bilan tulgan bo'ladi. Kista atrofida fibroz rivojlanishi hisobiga jigar kattalashadi.

Klinika ko'p yillar davomida belgilari namoyon bo'lmasligi mumkin. Shikoyati o't qovurg'a ostida og'irlilik sezadi, ishtaxasi pasayib, oriklash, jigar funktsiyasi yetishmovchiligi belgilari kuzatiladi.

Diagnostika Loporosqopiyasi, diagnostik biopsiya to'liq ma'lumotni beradi.

Davosi: faqat polliativ bo'lib, katta kistalarin jarroxlik usulda davolanadi va asoratlariga karshi operativ muolajalar o'tkaziladi.

Fibroxolangiokistoz (jigarni tug'ma fibrozi, fibroxolangiomatoz,) keng portal to'qimada biriktiruvchi to'qimani o'sishi va ko'pgina o't mikrokistalari, darvoza venasini jigar ichiga tarkalish gipoplaziysi Bilan harakterlanadigan og'ir tug'ma kasallikdir (Rasm 24).


Klinik ko'rinishi sindrom portal gipertenziya va uni asoratlari ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Tashxis laborator, instrumental, rentgenologik tekshirishlar orqali qo'yiladi. Qon bioximiyasida patologik o'zgarishlar aniqlanilmaydibiopsiya usuli tashxisni xoll kiluvchi usuli hisoblanadi.

Davosi asoratlarini oldini olishga karatilgan jarroxlik usullari.

O't yo'llari sistemasini kistalari. Joylashishiga ko'ra Quyidagicha farqlanadi

1) Jigardan tashqari (umumiyo't tarmogini kistasi, tug'ma divertikul, xoledoxotsile). 2) Jigar ichi (bosh jigar tarmogini lokal kengayishi va jigar ichi o't tarmoqlarini ko'pgina kistoz kengayishlari) 3) aralash. Jigar ichi o't tarmoqlarini kengayishini «Karoli kasalligi» dyiladi.



Rasm 25

1. Umumiyo't yo'lni kistasi. Jigardan tashqari o't tarmoqlarini kistoz kengayishini eng ko'p uchraydigan turi. Tipik shakli xaltasimon kengayadi, burtmasimon kengashi bolalarda ko'p uchraydi. Surunkali xolangit, surunkali pankreatit, umumiyo't tarmogini distal qismini obstruktsiyasi hisobiga kelib chiqadi. Umumiyo't tarmogi kistasini o'rtacha o'lchami 10-12 sm. ba'zida katta o'lchamgacha etishi mumkin. o't pufagi o'zgarmaydi. Jigardagi o'zgarishlar turlicha bo'lib. o't dimlanishi va qisman periportal fibrozdan to og'ir sirretik o'zgarishlargacha davom etishi mumkin (Rasm 25).

Klinika: umumiyo't tarmogi kistasi uchun klassik triada mavjud: qorinda og'riq, sariqlik, qorinni yuqori yarmida o'smasimon xosila.

Birgalikda keladigan kasallikklardan biri pankreatit.

Diagnostikasi anamnez suraladi, muhim ahamiyatga bo'lgan rentgenologik tekshirish o'tkaziladi. Obzor rentgenografiyada Qachonki kista zichlashsa ko'rindi.

Oshqozon ichak sistemasini bariy orqali tekshirib Ko'rganda 12 barmoq ichak yuqoriga, chapga, oldinga siljigan takasimon holatda ko'rindi. Muhim tekshirish usullaridan biri bu xolangiografiya va radioizotop tekshirishdir. Duodenal zond orqali tekshirganda umumiyo't tarmog'ini terminal soxasi toraygan, magniy sulfat yuborilgandan keyin (200-300ml) o't aralashishi kuzatiladi (Rasm 26).

Davolash. Jarroxlik yo'li Bilan davolanadi. Operatsiya 3 ta guruhga bo'linadi. 1) kistani to'liq kesib kolgan qismini ingichka ichakka

anastamoz qilinadi. 2) kistani 12 barmoq ichakka yoki ingichka ichakka anastamoz qilish orqali ichkariga drenajlash.

Tug`ma divertikul o`zining oyog`i bilan umumiyo`t yo`liga, jigar yo`liga yoki o`t pufagiga birikadi. Klinikasi og`riq va sariqlik bilan namoyon bo`ladi.

Davosi diartikulni kesish operatsiyasi bilan tugallanadi.

Xoledoxatsele. Umumiyo`t yo`lini 12 barmoq ichidagi kistoz kengayishi Bilan harakterlanadigan juda kam uchraydigan kasallik. Oshqozon osti bezini yo`li 12 barmoq ichakka ochiladigan kistaga ochiladi.

Davosi transduadenal sistoduadenostamiya.

O`t yo`llarini atreziyasi o`t yo`llari atrezasi juda qiyin va qiyinchilik bilan davolanadigan o`t yo`llari anomaliyalariga kiradi. Uchrashishi 1:20 000 - 30 000 to`g`ri keladi. 30% i boshqa anomoliyalari bilan birgalikda keladi. o`t yo`llarini 3 ta ko`rinishi farqlanadi. 1) Jigardan tashqari o`t yo`llarini atreziyasi. 2) Jigar ichi o`t yo`llarini atreziyasi. 3) o`t yo`llarini total atreziyasi Jigardan tashqari o`t yo`llarini atrezyaisi. Bu kasallik 2 ta asosiy tipga bo`linadi: 1. Bartaraf qilinadigan 2. Bartaraf kilinmaydigan.

Bartaraf qilinadiganni uzi uz navbatida 2 ta tipga bo`linadi. I tip umumiyo`t yo`lini o`tkazuvchanligini buzilishi bilan harakterlanadi. Bu ham distal qismini atreziyasi (a). Umumiyo`t yo`lini praksimol qismini atreziyaga uchrashi kuzatiladi. II-tip umumiyo`t jigar yo`lini zararlanishi Bilan harakterlanadi. A) umumiyo`t jigar yo`lini distal qismini atrezyaga uchrashi kuzatiladi bunda proksimal qismi kengayadi. B) umumiyo`t jigar yo`lini rivojlanmasligi kuzatiladi.

II tip atreziyada o`t pufagi normal shakllangan unda rangsiz suyuqlik bo`ladi yoki bo`shliq bo`ladi. o`t pufagi umumiyo`t yo`li orqali 12 barmoq ichak bilan aloqa kiish mumkin. Boshqa xollarda yo`llar to`liq obliteratsiyaga uchragan bo`lishi mumkin.

Bartaraf tkilinmaydigan nuqsonga jigar darvoza yo`llarini to`liq yoki qisman obliteratsiyaga uchrashi bilan harakterlanadi. Tuzilishi bo`yicha 4 ta varianti farqlanadi

1) yo`l to`liq fibroz to`qima bilan almashinishi mumkin.



Rasm 26

2) 1 ta yoki ikala jigar yo'lini o'tkazuvchanligi saklangan bo'lishi mumkin, lyokin ularni diametri 1 mm dan oshmaydi.

3) jigar yo'llari darvozasida kattaligi 3-5 mm keladigan tugunli fibroz massa joylashadi.

4) jigar darvoza yo'llari bo'lmay fibroz massadan iborat bo'ladi. Jigar ichidagi o't yo'llarini atreziyasi juda kam uchraydi. o't yo'llarini rivojlanmasligi va obleteratsiyasi uchrashishi hisobiga yuzaga keladi.

Klinikasi: Asosiy simptomlari sariqlik, axolik axlat, siyidik rangini tuklanishi, 38-40% bemorlarda sariqlik tug'ilgandan boshlanadi, kolganlarida 4 xtaftadan keyin yuzaga keladi. Axlatni rangli bo'lishi o't yo'llarini qisman atrezasi hisobiga emas balki ichaklarni o't pigmentlari ajratishi va ichak floriyasini hayot faoliyatini hisobiga yuzaga keladi. Ammo axlatda sterkobilin topilmaydi. Ba'zida atreziya shakllanishida qisman o'tkazuvchanlik saklanishi ham isbot qilingan. Jigar kattalashib keyin zichlashadi va tez sirrozga aylanadi. Keyin sirroz asoratlari yuzaga kela boshlaydi. Davosiz o'rtacha hayotni davom etish 6-9 oy.

Qaysi organ va to'qimalarda exinokokk kistalari kam uchraydi

- a. O'pkada
- b. Jigarda
- c. Buyrakda
- d. Talokda
- e. Mushakda

Jigar exinokokkini eng ishonchli diagnostik usuli

- a. Rentgenologik
- b. UZI
- c. Laparosqopik
- d. Laborator
- e. Radioizotop

Qaysi sabablarga ko'ra exinokokk suyo'qligi steril bo'ladi

- a. Bakteritsid xususiyatga ega
- b. Bakteriostatik xususiyatga ega
- c. Yuqorida ko'rsatilgan ikkita xususiyatga ega
- d. Xitin kobigi ichkariga mikroblarni o'tkazmaydi
- e. Xitin kobigi mikroblarni uldiradi

Jigar exinokokki uchun harakterli:

- a. Astsit
- b. Qorinparda zararlishni musbat simptomlari
- c. Qonda leykotsitlar miqdorni ko'payishi
- d. Exinokokk diagnostikumi bilan gemaglyo'tsinatsiya reaksiyasi musbatligi
- e. Tana haroratni yo'qorligi

Bolalarda jigar gidatidli exinokokkda Quyidagi operatsiya qo'llaniladi:

- a. Exinokottomiya

- b. Exinokokkoektomiya
- c. Jigarning exinokokkli qismini rezektsiya qilish
- d. Exinokokk kistasini drenajlash
- e. Exinokokk kistasini teshish

Jigar exinokokki diagnostikasida Quyidagi tekshirish o'tkaziladi

- a. Xoletsistografiya
- b. Jigar biopsiyasi
- c. Irrigografiya
- d. Fibrogastroduodenosqopiyasi
- e. Exinokokk diagnostikumi bilan noto'g'ri gemagllyo'tinatsiya reaksiyasi

«Exinokokk» termini kim tomonidan kiritilgan

- a. Gippokrat
- b. Mal'pigi
- c. Pallas
- d. Rudol'f
- e. Petrovskiy

Exinokokkektomiyaning qaysi turi mavjud emas:

- a. Ochik
- b. YOpik
- c. YArimochik
- d. YArimyopik
- e. Marsupialiazatsiya turidagi operatsiya

Exinokokkoektomiyadan keyin bolalarda bushliqni ishlov berish yaxshi...

- a. 10 % rastvorom formalina
- b. 5 % rastvorom formalina
- c. 3 % rastvorom formalinom
- d. 10 % rastvora yoda v glitserine
- e. 2 % rastvor formalina v glitserine

Exinokokkning bronxga yorilishidan keyingi holatni qanday nomlashadi

- a. Drenajlangan abstsess
- b. Kuruk kista
- c. Drenajlangan kista
- d. Teshilgan kista
- e. Yirtilgan kista

Jigar exinokokk kistasi makroperforatsiyasiga xos belgilar.

- a. Qorinda o'tkir og'riq, taxikardiya, arterial bosimning birdan tushishiya, papulez toshma
- b. Qorinda o'tkir og'riq, bradikardiya, obshaya zatormojennost', arterial bosimning birdan tushishiya, papulez toshma.
- c. Qorinda o'tkir og'riq, bradikordiya, bradipnoya, arterial bosimning birdan tushishiya, papulez toshma.
- d. Qorinda o'tkir og'riq, taxikardiya, bradipnoya, arterial bosimning oshishi, papulez toshma.
- e. Qorinda simmillovchi og'riq, bradikordiya, bradipnoya, populez toshma

O'pkaning asoratlanmagan exinokokkini davolanishining qulay usuli

- a. Qonservativ
- b. Qonservativ foyda bermaganda operativ
- c. Operativ
- d. Punktsion exinokokk suo'qligini surib tashlash bilan
- e. Operatsiya oldi taylorlashdan keyin operativ

Asoratlangan jigar exinokokkida qulay davolash usuli

- a. Qonservativ
- b. Qonservativ foyda bermaganda operativ
- c. Operativ
- d. Punktsion exinokokk suo'qligini surib tashlash bilan
- e. Operatsiya oldi taylorlashdan keyin operativ

Bolalarda jigarning gidatid exinokokkini davolashni qulay usuli

- a. Exinokokkektomiya
- b. Punktsiya kistani bo'shatish bilan
- c. Jigarni zaralangan qismini erta kesib tashlash
- d. Avval piperazin bilan, yordam bermasa
- e. Desensibilizatsiyalovchi vositalardan keyin exinokokkektomiya

Bolalarda jigar exinokokkininig alveolyar formasini qulay davolash usulioptimal'niy

- a. Exinokokkektomiya
- b. Punktsiya kistani bo'shatish bilan
- c. Jigarni zararlangan qismini erta kesib tashlash
- d. Avval piperazin bilan, yordam bermasa
- e. Desensibilizatsiyalovchi vositalardan keyin exinokokkektomiya

Bemor uchun exinokokkektomiyani qaysi turi qulay hisoblanadi

- a. Ochiq
- b. Eopiq
- c. YArimochiq
- d. YArimepiq
- e. Marsupilizatsiya turdagı operatsiya

Bolalar exinokokkida ko'p uchraydigan asoratlar.

- a. Yiringlash
- b. Oxaklanish
- c. Teshilish
- d. Qonketish
- e. Metostazlar

Kattalar exinokokkida ko'p uchraydigan asoratlar.

- a. Yiringlash
- b. Oxaklanish
- c. Teshilish
- d. Qonketish
- e. Metostazlar

Exinokokkni qaysi asorati bolalard auchramaydi

- a. Yiringlash
- b. Oxaklanish
- c. Teshilish
- d. Qonketish
- e. Metostazlar

Qaysi forma infiltrativ o'sishga xos

- a. Gidatidoz
- b. Lobar
- c. Segmentar
- d. Al'viollyar
- e. Bronxial

Jigar exinokokkni qaysi formasida astsit, sariqlik va talok kattalashuvi kuzatiladi

- a. Gidatidoz
- b. Lobar
- c. Segmentar
- d. Al'viollyar
- e. Bronxial

Katta kichigligi bo'yicha exinokokk kistalari farqalanadi.

- a. Maydacha, mayda, o'rtta, katta, gigant
- b. Uncha katta emas, o'rtta, katta, gigant, juda katta
- c. Mayda, o'rtta, katta, gigant
- d. Maydacha, o'rtta, gigant, juda katta
- e. Mayda, o'rtta, katta

Mayda exinokokk kistalariga Quyidagi kattalikdagi kistalar kiradi

- a. 10 ml. gacha
- b. 100 ml gacha
- c. 400 ml. gacha
- d. 1500 ml. gacha
- e. 1500 ml. dan yuqori

Gigant exinokokk kistalariga Quyidagi kattalikdagi kistalar kiradi

- a. 10 ml. gacha
- b. 100 ml gacha
- c. 400 ml gacha
- d. 1500 ml gacha
- e. 1500 ml. dan yuqori

Exinokokk kasalligi rivojlanishida nechta daraja farqlanadi:

- a. boshlanish, avj olish, asoratlanish
- b. boshlanish, avj olish, sunish
- c. boshlanish, asoratlanish
- d. boshlanish, oralik, oxirgi
- e. boshlanish, rivojlanish, qaytalanish

bronxga ochilgan exinokokk kistasining rentgenologik ko'rinishiga xos belgi

- a. havoli bo'shliq suyuqlik satxi bilan
- b. havoli bo'shliq
- c. havoli bo'shliq va notekis soya
- d. yumaloq soya
- e. havoli bo'shliq va notekis soya kuks oralig'i siljishi bilan

bolalarda asoratlanmagan o'pka exinokokkiga xos rentgenologik belgi

- a. yumaloq soya notekis kirralar bilan
- b. yumaloq soya aniq ko'ralla
- c. infil'trativ o'zgarishsiz aniq kirrali yumaloq soya
- d. havoli bo'shliq suyuqlik satxi bilan

e. diametri 3 sm. bo'lgan yumaloq soya kuks oralig'inining sog'lom tomonga siljishi bilan.

Exinokokk suyo'qligi kaerda ishlab chikariladi

- a. fibroz kapsulada
- b. xitin obolochkada
- c. germinatin obolochkada
- d. skolekslarda

Bolalarda o'pka exinokokkining rivojlanish bosqichida xos bo'limgan simptom.

- a. yo'tal
- b. Ko'krak qafasi deformatsiyasi
- c. zararlangan tomondagi og'riq
- d. yo'tal balg'am bilan
- e. krapivnitsa

Bolalarda o'pka exinokokkining erta belgilari

- a. appetitning pasayishi, yo'tal, Ko'krak qafasida og'riq
- b. darmonsizlik, mayda yo'tal, quruq yo'tal
- c. appetitning pasayishi, balg'amli yo'tal
- d. darmonsizlik, mayda yo'tal, balgimli yo'tal
- e. Boshlang'ich belgilari yo'q

Bolalarda o'pka exinokokkining avj olish davrining klinik belgilari:

- a. krapivnitsa. Qon tupirish, balg'amli yo'tal
- b. Ko'krak qafasi deformatsiyasi, qon tupirish, quruq yo'tal
- c. yo'tal, Ko'krak qafasi deformatsiyasi, krapivnitsa, rivojlanishdan orqada kolish
- d. Ko'krak qafasi zararlangan tomonidagi og'riq, nafas etishmasligi
- e. nafas etishmasligi. Teri koplarining ko'karishi, kuruk etishmasligi

O'pka exinokkozining asoratlari

- a. yorilish, penitratsiya, oxaklanish
- b. yiringlashishi, sepsis, obsemenenie
- c. yorilish, yiringlashishi, oxaklanishi
- d. penitratsiya, sepsis, obsemenenie
- e. oxaklanishi, yorilishi, yiringlanishi, sepsis

Jigarga exinokokk infektsiyasining tushish yo'llari:

- a. gemitogen, oral, qontakt
- b. havo - tomchi, zararlangan qon orqali
- c. gemitogen, oral, havo-tomchi
- d. qontakt, gemitogen, havo-tomchi
- e. faqat gemitogen

Bolalarda o`pka exinokokkida qanday klinik bosqichlari mavjud ?

- a. boshlanish , avj olish, asoratlar
- b. qaytalanish, remissiya, surunkali
- c. remissiya, avj olish, asoratlar
- d. O'tkir, o'tkir osti, surunkali
- e. kompensirlangan, subkompensirlangan, dekompensirlangan

Exinokokk kasalligining zararlanish yo'llari qanday?

- a. aerogen, fekal-oral, qontakt
- b. fekal-oral, qontaktnie.
- c. Kasallarlar najasidan

Nima uchun o`pka exinokokki ko`p uchraydi?

- a. CHunki zararlanish aerogen yo'l bilan kuzatiladi
- b. CHunki o`pkada kapillyarlar yaxshi rivojlangan
- c. CHunki o`pka to'qimasi bu kasallik uchun trofik organ hisoblanadi

Exinokokk kasalligi erta simptomi?

- a. Bolalarda nevroz holati.
- b. Organizmnning gipersensiblizatsiyasi
- c. Ich ketishining boshlanishi.

Jigar va talok exinokokkozi qaysi usul bilan diagnostirlanadi

- a. Qorin bo'shlig'i organlarining rentgenografiysi
- b. Qorin bo'shlig'i va parenximatoz organlarini ul'tratovush tekshirish.
- c. Jigar va umumiyl siyidik analizlarini tekshirish.

Exinokkokoz asoratlari?

- a. kista yorilishi, anafilaktik shok
- b. Kista yiringlashishi, o'limga olib keladi, miyaga tarkalishi
- c. Kista yirinnglashishi, kista yorilishi va anafilaktik shok.
- d. Nafas yo'liga kistaning yorilishi, plevral bo'shliqda kistaning paydo bo'lishi.

Jigar exinokokking harakterli bo`lмаган кlinik belgisi?

- a. Jitgar kattalashishi.
- b. Teri qoplamlarining sariklashishi.
- c. yo`tal.

O`pka exinokokki nima bilan aniqlanmaydi?

- a.o`pka punktsiyasi va biopsiyasi, UZI
- b. ko`krak qafasi rentgenografiyasi
- c.o`pka tomografiyasi

## **8-MAVZU: BOLALARDA YUMSHOQ TO'QIMALARNI YIRINGLI YALLIG'LANISH KASALLIKLARI.**

**MAVZUNING DOLZARBLIGI:** Bolalar xirurgiyasida yiringli infeksiya asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Xirurgik kasalliklarni taxminan yarmini yiringli jaroxatlar tashqil qiladi. Yiringli asoratlar natijasida o'limga olib keladigan holatlar 80% kuzatiladi. Xozirgi zamон tibbiyoti rivojlanganligiga qaramasdan, yiringli infeksiya dolzarb masala bo'lib kolayapti.

**DARSNING MAQSADI:** Umumiyl amaliyet shifoqorini sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida mustaqil ravishda bemorlarni olib borishga, shoshilinch xollarda tez va birlamchi yordamni ko'rsatishga, uy, poliklinika va kunduzgi shifoxona sharoitida bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarida diagnostika va davolash ishlarini amalga oshirishga, shuningdek sanitar-gigenik, antiepidimik, davolash-profilaktik va reabilitasiya ishlarini olib borishga o'rgatish.

### **DARSNING VAZIFALARI:**

1. Bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi va klinikasi bo'yicha bilimini shakllantirish.

2. Bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarida laborator, rentgenologik va instrumental tekshirish usullari yordamida studentlarda klinik jixatdan ko'rish va tekshirish qobiliyatini oshirish.

3. Bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarida bemor hayeti uchun xavf tug'diruvchi holatlarda studentga diagnostik algoritmi o'rgatish.

4. Bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarida xirurgik davolash prinsiplari bilan tanishish.

5. Bolalarda yumshoq to'qimalarni yiringli yallig'lanish kasalliklarida davolash, diagnostik standartlarga va operatsiyalardan keyingi reabilitasiya baennomasiga asoslangan umumiyl vrachlik yordami kobiliyatini oshirish.

**MASHG'ULOT O'TKAZISH JOYI:** Yiringli xirurgiya bo'limi, operatsiya xonasi, kompyuter xonasi va o'quv xonasi.

## CHAQALOQLAR FLEGMONASI

Chaqaloqlarda teri va teri osti kletchatkasining shunday yiringli kasalliklari uchraydiki, jarayon tez tarqalishi bilan harakterlanadi. Flegmonaning rivojlanishi va uning tez tarqalishi chaqaloq terisi va teri osti kletchatkasining qo'yidagicha tuzilishi bilan bog'liq. Teri osti yog'' kletchatkasi yaxshi rivojlanmaganligi, uning tomirlarga boyligi, xujayralararo suyuqlikning ko'p bo'lishi, basal membrananing kuchsiz rivojlanganligi, epidermesning oson jaroxatlanishi.

Infeksiyaning teri orqali kirishiga chaqaloqni parvarish qilishdagi gigiyenaga rioya qilmaslik natijasida teri Butunligi buzilganda kuzatiladi.

Ko'zg'atuvchisi – stafilokkok bo'lib keyin Gr (-) va aralash forma qo'shiladi. Shikastlanishning tipik lokalizasiyasi bu – dumg'aza, dum, ko'rak sohasi, ko'krak qafasining old va yon yuzalari.

Patomorfologik tekshirganda uchoqda nekrotik jarayonlar ustun turishi aniqlangan. Yallig'lanish teri bezlari atrofida boshlanadi va tezda teri osti yog'' qavatigacha boradi. Perifokal joylashgan qon tomirlarda tromb hosil qiladi. Tomirlar devorida endo va periarterit rivojlanadi. Tomirlar trombozi va shishning yaqin tezligida teri osti yog'' qavatiga tarqalishi ularning oziqlanishini buzib nekroz chaqiradi.



Rasm 42

Chaqaloqlar terisining o'ziga hos tuzilishi tufayli jarayon chegaralanmaydi va qisqa vaqt ichida tananing kattagina qismiga tarqaladi (Rasm 42).

**Klinika va diagnostika.** Kasallik ko'pincha umumi simptomlardan boshlanadi. Bola xolsiz, injik, yaxshi uxlolmaydi, ko'krak emishdan voz kechadi. Tana harorati 38-39<sup>0</sup>S gacha ko'tariladi. Jaroxatlangan sohada qizil rangli dog' hosil bo'ladi va bir necha soat ichida kattalashib ketadi. Dastlab teri bagrovly, keyinchalig sianotik tus oladi.

Yumshoq to'qimalar shishi va kattalashishi kuzatiladi. Jarayon rivojlanaversa 2 so'tkada jaroxat markazida flyo'qtuasiya aniqlanadi. Keyinchalik toksikoz rivojlanadi. Og'ir holatlarda teri ko'chib to'shadi,

nekrozlanadi va yumshoq to'kima deffekti hosil bo'ladi. Flegmonadan xira seroz suyuqlik yoki suyo'q yiring ajraladi. Ba'zan kattagina soha kletchatkasi ko'chib to'shadi.



Rasm 43



Rasm 44

**Differensial diagnoz:** Teri osti yog'' kletchatkasining aseptik nekrozi va saramas bilan. Adiponekroz, tug'ruq patologik kechganda, yumshoq to'qimalarning tug'ruq yo'llarida bosilishi tufayli kelib chiqib, kliniko-labarator va mahalliy yallig'lanish belgilarsiz kechadi. Yumshoq to'qimalarning g'adir-budur infiltrasiyasi va zararlangan sohaning dog'simon giperemiyasi adiponekroz uchun xos (Rasm 43-44).



Rasm 45




Rasm 46

**Davolash:** O'z vaqtida kompleks o'tkazish kerak. Antibiotiklar bemor axvoli va mahalliy jarayon bosqichiga qarab buyuriladi. Umumiy simptomlar bo'lmasa, sepsis belgilari bo'lmasa mushak orasiga Oksasillin 200000 YeD/kg massada buyuriladi. Og'ir holatlarda aminoglikozidlar bilan kombinsiyalash yoki mikrob sezgirligini aniqlab sefalosporinlar

buyuriladi. Bemorga immunoterapiya (antistafilokkok, gammaglobo'lin, giperimmun plazma, qon qo'yish, ko'rsatmaga binoan T-aktivin, dekaris, vitamin S,Ye), dezintoksikasiya, sindrom bo'yicha davolash o'tkaziladi.

Mahalliy davolash zararlangan sohada sog'lom teri chegarasida kesim o'tkazish bilan aniqlanadi (Rasm 45-46). Bu metod shishni kamaytirib jarayonni bir muncha chegaralaydi (Rasm 47).



Rasm 47

Operasiyadan keyin 6-8 soatda bog'lam qilinadi. Agar jarayon yana kattalashgan bo'lsa, zudlik bilan yana kichik kesmalar o'tkaziladi. Kesilgan joylarga antiseptik (1% xloramin, dioksidin gipertonik eritmaga) shimdirlgan ho'l bog'lama qo'yiladi. Kesmalar flegmonada 0,25% novokainli antibiotik bilan ukol qilingach o'tkaziladi. Terida nekroz rivojlangan bo'lsa, nekrektomiya qilinadi. Rasm

48. Agar jarayon orqaga qaytsa defekt sohasi granulyasiya bo'lib keyin epitelizasiya bo'ladi.

Buning uchun fizioterapevtik muolajalar, UZI, giperoksibaroterapiya o'tkazish kerak.

**Prognоз:** O'z vaqtida tashhis ko'yib adekvat davo o'tkazilsa yaxshi. Hatto nekroz bo'lganda qolgan chandiqlarda plastik operatsiya o'tkazish talab qilinadi.



Rasm 48

## CHAQALOQLAR MASTITI



Rasm 49.

Yiringli mastit infeksiya so't bezi yo'llari orqali kirganda yoki gemitogen yo'l bilan kirganda kelib chiqadi. Ko'zg'atuvchi stafilokkok. Chaqaloqlarda mastit ko'pincha so't bezi fiziologik burtish natijasida rivojlanadi. Bu jarayon 2 xaftagacha bo'lgan qiz va o'g'il bolalarda bir hil uchraydi. Rasm 49.

Bu plasenta orqali esterogenlarning tushishi bilan bog'lanadi. Bunda so't bezi

kattalashishi va undan maloziyvani eslatadigan suyuqlik chiqadi. So't beziga infeksiya kirganda so't bezi giperemiyalanadi, keyinchalik flyo'qtuasiya bo'ladi. Tana harorati ko'tariladi, bola umumiylahohi yomonlashadi. Infiltrasiya fazasida so'rilevchi davo muolajalari o'tkaziladi, antibiotikoterapiya, mazli kompresslar, UVCh o'tkaziladi.

Absesslanish fazasida radial kesma o'tkaziladi. Agar jarayon atrofga tarqalsa, ba'zan ko'krak qafasi flegmonasi rivojlanishi mumkin. Bu holatda kesmalar sog' to'qima chegarasida o'tkaziladi. Rasm 50-51.



Rasm 50



Rasm 51

**Prognоз:** yaxshi davo qachonki muolajalari o'z vaqtida o'tkazilsa.

## SARAMAS

Saramas (roja) – teri va shilliq pardalarning o'tkir seroz yallig'lanishi hisoblanadi. Ko'zg'atuvchi ko'pincha streptokokk, ba'zan stafilokokk. Bolalarda bu kasallik ko'p uchraydi. Infeksiya kirish yo'li – Butunligi buzilgan teri.

*Klinika va diagnostika:* kasallik terida, ko'pincha oyoklarda, yuzda, lablarda, shilliq pardalarda chegaralari aniq, qizil giperemiya sifatida namoyon bo'ladi. O'sha sohada mahalliy harorat ko'tarilishi, shish kuzatiladi. Bola umumiy ahvoli yomonlashadi. Bola holsiz, varaja qiladi, ko'ngil aynib, qayt qiladi, bosh og'riydi, tana harorati 38-40°C gacha ko'tariladi.



Rasm 52



Rasm 53

Saramasda yuz zararlanishi havfli bo'lib, jarayon bosh miyaga, ko'z kosasiga ta'sir qilib, og'ir meningit, kavernoz sinus trombozi, ko'ruv nervi atrofiyasiga olib kelishi mumkin. Rasm 52-53.

*Tashhis qo'yish* qiyinchilik tug'dirmaydi. Chaqaloqlar flegmonasi bilan differensial tashhis o'tkaziladi.

Chaqaloqlarda saramas yallig'lanishi kirish darvozasi maserasiya bo'lgan, Butunligi buzilgan teri hisoblanadi. Saramas ko'pincha kindik atrofidan yoki jinsiy a'zolar sohasida, ayniqsa anus sohasidan boshlanadi.

Kasallikning patomorfologiyasi teri va teri osti yog'' qavatini shishi va infiltrasiyasi bilan harakterlanadi.

Saramas ham xuddi flegmonadek tez kattalashish xususiyatiga ega. Klinik jixatdan shish, infiltrasiya, mahalliy haroratning oshishi, giperemiya kuzatiladi. Ba'zan «ok saramas» rivojlanadi. Bunda shish rivojlanib giperemiya kuzatilmaydi.

**Davolash:** massiv antibiotikoterapiya yoki mahalliy fizioterapeutik (UVCh, UFO) davo muolajalari yordam beradi.

## FURUNKUL. KARBUNKUL

Bolalarda teri bezlari soch xaltachasi va uning atrofidagi tomirlarning o'tkir yiringli nekrotik yallig'lanishi ko'pincha katta yoshlarda uchraydi. Qo'zg'atuvchisi ko'pincha stafilokokk hisoblanadi. Odatda o'chog' doimiy mikrotravmalar sohasida joylashadi: bo'yinda, belda, dumba sohalarida. Kasallikning kelib chiqishida asosiy rolni organizmning himoya kuchlarning zararlanishi o'ynaydi. Moyillik qiluvchi holatlar bo'lib gigiyena qoidalari buzilishi, yetarli oziqlanmaslik, avitaminozlar, surunkali infeksiyalar, qandli diabet xizmat qiladi. Zaralangan soch xaltacha bitta bo'lsa – furunkul deyiladi. Bunda nekrotik jarayonga tez nafaqat follikula balki artofdagi teri osti kletchatkasi ham, jalb etiladi. Tananing turli sohalarida chiqkan furunkullar – furunkulez deyiladi.

*Karbunkul* – bir necha furunkullarning bir vaqtida qo'shilishidan va yallig'lanishning bir follikuldan ikkinchiga o'tishidan, ba'zida jarayonga fassiya va yumshoq to'qimalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bunda nekrotik o'zgarishlar ustunlik qiladi.

**Klinika:** Furunkul odatda bola umumiyligi axvoliga ta'sir qilmaydi. Lekin subfibrilitet kuzatilishi mumkin. Zaralangan sohada odatda shish, giperemiya, og'riq, uning markazida kam miqdorda yiring yigilishi kuzatiladi. Yakkol ifodalangan mahalliy og'riq jarayonning burun va tashqi eshituv yo'li sohasida joylashganda kuzatiladi.

Karbunkul furunkuldan farqli ravishda juda tez ifodalanganadi. Umumiyligi axvoli og'irlashib, tana harorati  $38-39^{\circ}\text{S}$  gacha ko'tarilishi, varaja, bosh og'rishi, xushning buzilishlaridan to alahsirashgacha olib boradigan zararlanish kuzatiladi. Mahalliy ko'rganda ifodalangan va tarqalgan infiltrasiya, shish, kuchli og'riq, giperemiya kuzatiladi. Limfangoit va limfadenit ham kuzatiladi.

**Davolash:** furunkulda davolash yallig'lanish jarayonini bosqichiga bog'liq. Agar infiltrasiya va shish yiringlarsiz bosqichi ustun bo'lsa, ko'pincha mahalliy qonservativ davo o'tkaziladi. UFO, UVCh va spirtli kompresslar qo'yiladi. Mahalliy novakainli blokada antibiotiklar bilan ko'llanganda yaxshi effekt bo'ladi.

Yiring hosil bo'lganda nekrozlangan sterjen olib tashlanadi. Olib tashlashda kesmalar o'tkaziladi. Natriy xloring gipertonik eritmasi bog'lama qo'yiladi. Xirurgik davo yiring yo'q, yallig'lanish ifodalangan, og'riq kuchli, shish, limfangit, harorat yuqori bo'lganda ham qo'llaniladi.

Furunkul qandli diabet bilan og'riganlarda og'ir o'tadi. Furunkul yuzda joylashsa infeksiya ko'z kosasiga va miyaga tarqalishi havfi katta.

Bolalar yo'ziga furunkul chiqkanda gospitalizasiya qilib kompleks davolash o'tkazilishi kerak.

Bolalar furunkulez bilan og'risa, tez-tez faytalanaversa, bolaning immunologik holatini tekshirish kerak. Agar immun holatida o'zgarishlar kelib chiqsa davo o'tkazish kerak.

Karbunkulning davosi faqat xirurgik. Yiring to sog'lom teri chegarasigacha kesiladi. Nekrozlangan to'qima olib tashlanadi va natriy xloring gipertonik eritmasiga botirilgan bog'lama qo'yiladi. Antibakterial terapiya o'tkaziladi.

Karbunkul qandli diabet va semizlik bilan qo'shilib kelsa, og'ir o'tadi.

## LIMFADENIT

Limfatik tugunlarning yallig'lanishi – limfadenit deyiladi. Limfadenit ko'pincha kichik yoshdagi bolalarda uchraydi. Bu ularning limfatik apparati morfologik va funksional jixatdan rivojlanmagan. Ya'ni sinuslari keng, limfa tugunlari kapsulasi noziq, baryer funksiyasi past bo'ladi. Limfadenit ko'pincha 1-3 yoshli bolalarda jag ostidagi limfa tugunlari kattalashishi kuzatiladi.

Kam holatlarda qo'ltik ostidagi, tizza ostidagi, tirsak va chov sohasidagi limfa tugunlari kattalashadi.

Kasallikning patogenezida o'tkazilgan infeksiya va yiringli yallig'lanish kasalliklari natijasida organizmning sensibilizasiyasi yetadi.

Limfadenitning sabablari turlicha. Ko'pincha bolalarda jag' osti limfa tugunlari kattalashsa birlamchi emas. Bu ko'pincha yiringli kasalliklarning rivojlanishida organizmning javob reaksiyalaridir.

Odontogen limfadenit bolalarda kam uchraydi. Odontogen limfadenit sababchisi so't tishlari, kam holatlarda doimiy tishlar hisoblanadi. Noodontogen limfoadenitning sababchisi bolalarda O'RFI, gripp, angina, surunkali tonsillit, otit, eksudativ diatez, piodermiyadir.

**Klinika:** umumiy simptomlar holsizlik, varaja, tana haroratining ko'tarilishi  $38\text{-}39^{\circ}\text{C}$  gacha, puls tezlashishi, ishtaha tushishi, bosh og'rishi, uyqu buzilishi kuzatiladi.

Zararlangan limfa tugun qattiq, paypaslaganda og'riqli. Agar davo muolajalari o'z vaqtida o'tkazilsa, jarayon barham topadi yoki aksincha seroz limfadenit yiringli limfadenitga o'tadi. Agar limfa tuguni yumshasa yoki yiring yig'ilsa flyo'qtuasiya kuzatiladi. Agarda bemor antibakterial davo muolajalarini olayotgan bo'lsa, tashhis quyishga qo'yidagi holatlar qiyinchilik tugdiradi: tana haroratining tushganligi, shish va og'riqning kamayganligi, lekin kattalashgan limfa tugunlari saqlanib qoladi. Kattalashgan limfa tuguni ba'zan absesslanishi mumkin.

**Differensial diagnoz:** differensial diagnoz spesifik jarayonlar bilan o'tkaziladi. Limfatik tugunlar spesifik kasallikkarda, leykozlarda, o'smalarda ham limfa tugunlari kattalashadi. Silli limfadenitda kasallik asta-sekin boshlanib uzoq vaqt tana haroratining ko'tarilishisiz o'tadi. Bundan tashqari silda bir guruh limfa tugunlari zaralanadi.

Kichik bolalarda chov sohasidan limfa tugunlarining kattalashishi xudi qisilgan chov churrasini eslatadi. Ich kelmasligi, qayt qilishi limfadenit bilan churrani farqlashda yordam beradi.

Son suyagining epifizar osteomiyeliti kuzatilganda chanoq sohasi chuqur limfa tugunlari zararlanishini limfadenitdan farqlash kerak. Epifizar osteomiyelitda tana harorati yuqori, son suyagi bukilmasligi kuzatiladi. Qiyin hollarda son suyagini rentgenologik tekshirish talab qilinadi.

**Davolash:** davolash birlamchi o'choqdan boshlanandi.

Qonservativ davolashda antibiotiklar, desensebilllovchilar, umumiy qullab quvatlovchi preparatlar, proteolitik fermentlar, fizioterapevtik muolajalar qilinadi.

Yiringli limfadenitda kesmalar kesiladi. Limfadenit toksikoz bilan kechsa, ayniqsa yosh bolalarda infiltrat yumshashishi ko'tilmasdan kesim o'tkazish kerak. Kesmalar uchun 2-3 sm. qilinib, yiring to'la chiqib ketishi uchun sharoit yaratish kerak. Adenoflegmonada esa kesmalar keragicha katta o'tkaziladi.

## PANARISIY

Panarisiy – bu barmoqlarning yiringli yallig'lanishi. Jarayonning chuqurligiga ko'ra teri, teri osti, tiroq (paronixiya), pay, suyak, bug'im turlari farqlanadi. Qo'zg'atuvchisi ko'pincha stafilokokk, ba'zan streptokokk hisoblanadi.

Yallig'lanish jarayoni ko'pincha kaft yuzasida kuzatiladi, shish esa dorzal yuzada kuzatiladi. Bu terining kaft yuzasida, qalinligi, zichligi, biriktiruvchi to'qimaning esa ustunchasimon holatda yuqoridan pastga qarab joylashganligi bilan tushuntiriladi. Shunga asosan limfatik yoriqlar ham kaft yuzasidan dorzal yuzaga qarab yo'nalgan. Shish suyuqligi esa shu yo'nalishda harakat qilib, dorzal yuzada shish paydo bo'ladi. Shish odatda katta sohani egallaydi.

Yallig'lanish jarayoni payli formada toki pay qinlarigacha borishi mumkin. Agarda 1 va 5 barmoqlar zararlansa, jarayon «Pirogov bo'shlig'iga» o'tishi mumkin.

**Klinika va diagnostika:** Panarisiy barmoqning yaqqol shishishi va og'riши bilan harakterlanadi. Og'riq ko'pincha jarayon yiringli bo'lgani uchun pulsasiyalanuvchi harakterda bo'ladi. Barmoq, ba'zan tiroqlar va bilak sohasining ham funksiyasi buzilishi mumkin. Jarayon qancha yuzaki bo'lsa, giperemiya shuncha yaqqol namoyon bo'ladi. Shishning kattaligidan og'riqli nuqtani topish qiyinchilik tug'diradi. Bu og'riqli nuqtani topishda tug'machali zonddan foydalanish tavsiya etiladi. Barmoqning turli uchastkalarida zondni tegizganda og'riq bilinadi.


**Davolash:** kasallikning bosqichiga bog'liq. Infiltrasiya va shishli bosqichda UVCh, antibiotik – novokainli blokadada, kompresslar qo'yish tavsiya etiladi. Yiringli bosqichda yiring o'chog'i ochilib, drenajlanadi va antibiotiklar buyuriladi. Drenajlash yiringning to'liq chiqib ketishi uchun yetarli bo'lishi kerak. Agar jarayon boshqa falangalarga tarqalgan bo'lsa, albatta barmoqning ikki tomonidan kesim o'tkaziladi va drenajlanadi.

Pay panarisiyasida jarayon tendovaginit ko'rinishni olgan bo'lsa, yallig'lanish o'chog'i ochilib drenajlab, pay qini yuviladi. Suyak panarisiyasiga esa osteomiyelit sifatida karaladi.

## AMALIY KO'NIKMALAR

### Lukashevich-Oberst usulida o'tkazuvchan anesteziya

- ko'rsatmalar: barmoqlarda o'tkaziladigan turli operatsiyalar panarisiylar, jarojatlar, yod jismlar borligi;
- kerakli asbob va materiallar: mahalliy anesteziya uchun steril shpris va igna, 1%-novokain, steril shariklar, salfetkalar, 2% - yod va 70° spirt eritmasi;
- bemorning ota-onasiga operatsiya maqsadi va mohiyatini tushuntirish;
- kerakli instrument va materiallarning tayorligini tekshirish;
- qo'llarga ishlov beriladi (qo'llar iliq suv oqimi ostida sovun bilani yuviladi, steril salfetka bilan artilib 96% spirt bilan ishlov beriladi), steril perchatkalar kiyiladi;
- operatsiya maydoni 2% yod va 70° spirt bilan ishlov beriladi;
- barmoq asosiga jgo't qo'yiladi;
- jgo'tdan distal qismda barmoqning tashqi-medial yuzasiga igna va shpris yordamida 1% novokain eritmasi kaft tamonga qaratib sekinlik bilan yuboriladi (5 – rasm);
  - xudi shunday usulda barmoqning tashqi-lateral tamonidan ham anesteziya o'tkaziladi;
  - 3-5 mino'tdan so'ng to'lik anesteziya bo'ladi;
  - kerakli operatsiyalar o'tkaziladi;
  - tugatilgach – jgo't yechiladi.



Lukashevich-Oberst usulida anesteziya.

- asoratlar: qon-tomir va nervlarni shikastlanishi, anestetik moddani qonga qo'yilishi, anestetik moddaga anafilaktik reaksiya.

### **Absessni ochish**

- ko'rsatmalar: turli joylashgan teri osti chegaralangan yiringli o'chok – absess borligi;
- kerakli asbob va materiallar: mahalliy anesteziya uchun steril shpris va igna, 1%- novokain, skalpel, qiskiq, rezinali chiqarg'ich, antiseptik eritmalar, 10% xlorid-natriy eritmasi, steril shariklar, salfetkalar, 2% - yod va 70° spirt eritmasi;
- bemorning ota-onasiga operatsiya maqsadi va moxiyatini tushuntirish;
- kerakli instrument va materiallarning tayyorligini tekshirish;
- qo'llarga ishlov beriladi (qo'llar iliq suv oqimi ostida sovun bilani yuviladi, steril salfetka bilan artilib 96% spirt bilan ishlov beriladi), steril perchatkalar kiyiladi;
- operatsiya maydoni 2% yod va 70° spirt bilan ishlov beriladi;
- 1%- novokain eritmasi bilan mahalliy anesteziya yoki qisqa vaqtli umumiyoq'riqsizlantirish o'tkaziladi;
- teri burmalari bo'ylab yiringli o'choq ustidan kesma qilinadi;
- to'mtok yo'l bilan absess ochiladi va yiring chiqariladi;
- bo'shlik antiseptiklar bilan sanasiya qilinadi;
- bo'shliqga rezinali drenaj-chiqargich qo'yiladi;
- gipertonik eritmalar (10% xlorid natriy yoki 25% magneziya eritmasi) bilan aseptik bog'lam qo'yiladi;
- operatsiyadan keyingi davrda og'riqsizlantirish uchun analgin tabletkasi va ko'rsatmalar asosida antibiotiklar va har kuni bog'lov o'tkazish tavsiya qilinadi.

### **Omfalitning qonservativ davosi**

#### **Kataral shakli**

- yarani keltirib chiqargan sababini aniqlab, uning og'irlik darajasini aniqlash;
- asbob uskunalar mavjudligini va ularni tayyorligini tekshirish;
- bemorni orqaga yotqizish;
- qo'llarni yuvish (10 mino't davomida, oqar iliq suv ostida, sovun va shuyotka bilan yuvish, 96 % spirt bilan qo'lga berish, timoq orasini yod nastoykasi bilan artish);
- steril perchatkalarni kiyish;

- operatsiya maydonini 5% yod va 96 % spirt bilan 2 martadan ishlov berish;
- yara nektorik to'qimalardan tozalanadi;
- yara vodorod peroksidi va kaliy permanganat yoki "Betadin" bilan yuviladi;
- zararlangan yuzaga artish, antibiotiklarni novokainli eritmasi bilan kiritish (yoshiga mos dozirovkada), fizioterapiya qo'llanilishi;
- asseptik bog'lam qo'yiladi.

### **Flegmonoz shakli**

- yarani keltirib chiqargan sababini aniqlab, uning og'irlilik darajasini aniqlash;
- anestetiklarga va antibiotiklarga javoban allergik reaksiyani rivojlanishini, yomon sifatli gipertermiya asoratlarini onasidan aniqlab bilish;
- asbob uskunalar mavjudligini va ularni tayyorligini tekshirish;
- bemorni orqaga yotqizish;
- qo'llarni yuvish (10 mino't davomida, oqar illiq suv ostida, sovun va shyotka bilan yuvish, 96 % spirt bilan qo'lga berish, timoq orasini yod nastoykasi bilan artish);
- steril perchatkalarni kiyish;
- operatsiya maydonini 5% yod va 96 % spirt bilan 2 martadan ishlov berish;
- yara atrofi steril materiallar bilan yopiladi va mahalliy anesteziya ostida reviziya qilinadi yarani nekrotik to'qimalardan tozalanadi;
- yara vodorod peroksidi va kaliy permanganat yoki "Betadin" bilan yuviladi;
- zararlangan yuzaga artish antibiotiklarni novokainli eritmasi bilan kiritish (yoshiga mos dozirovkada), fizioterapiya qo'llanilishi;
- asseptik bog'lam qo'yish.

### **KLASTER**

(Klaster - to'tam, bog'lam, g'uncha)

Ma'lumot haritasini tuzish vositasi - barcha fikr qonstitusiyasini fokuslash va aniqlash uchun qandaydir asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish. (Ixtiyoriy muammo, mavzular xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi)


Bilimlar faollashishini ta'minlaydi, mavzu bo'yicha fikrlash jarayonida yangicha assosiasiya taqdim etishga erkin va ochiq kirib borishga yordam beradi.

Kalit so'zlar bilan assosiasiya bo'yicha yon tomonidan kichkina hajmdagi aylanaga "yo'ldoshlar" yoziladi – ushbu mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasi. Ular chiziq bilan "bosh" so'zga bog'laniladi.

Ushbu "yo'ldoshlar"da "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin va boshqalar. Yozuv ajratilgan vaqt tugaguncha yoki g'oya yo'qotilmaguncha davom ettiriladi.

Klasterni tuzish qoidalari bilan tanishadi. Sinf doskasi yoki katta kog'oz varag'i markazida kalit so'zlar 1 - 2 so'zdan iborat mavzu nomlanishi yoziladi.

Mulohazalar uchun klasterlar almashtiriladi.



## MUAMMONI ANIQLASH, UNI HAL ETISH, T AHLIL QILISH VA REJALASHTIRISH USULLARI VA VOSITALARI

*(Patogenezni tushuntirish uchun makbo'l.)*

«Nima uchun?» sxemasi «Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishiladi.

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi.


«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari.

1. Qanday piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri turtburchakdan foydalanishingizni uzingiz hal etasiz.

2. Mulohazalar sxema – zanjiri to'rni: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon bo'lislighini (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirishni) o'zingiz tanlaysiz.

3. Strelka sizning qidiruv yo'naliishingizni belgilaydi: dastlabki holatdan oqibatgacha.

Chaqaloqlar nekrotik flegmonasida nima uchun o'lim ko'p uchraydi?



### **«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari: (Aktiv talabalar uchun maqsadli).**

1. Ko'p hollarda sizga muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» xaqida o'ylashga xojat bo'lmaydi. Muammo asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

«Qanday?» iyerarxiya diagrammasi muammo haqida Butunligicha umumiylashtiruviga ega bo'lishga imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.

Ketma-ket ravishda “Qanday?” savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos keladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3. Diagramma hyech qachon tugallanmaydi: o'nga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi mumkin.


5. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda to'ting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyerlar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

6. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimistik bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.

**«QANDAY?» DIAGRAMMASI**



Venn diagrammasi yechimi :  
 Mazkur holatda uchlasiga o'xshashlik - quşish;  
 2- tasiga o'xshashlik : hansirash yoki ko'karish ...  
 va hakozo.



### **“QOR TO’PLASH USULI” USLUBINING BOLALAR XIRURGIYASIDA QO’LLANILISHI**

Bolalar xirurgiyasi tibbiyot Oliy ta’lim muassasalarida 4 kurs pediatriya va 5 kurs davolash fakultetlarida etiologiya, patogenez, xirurgik kasalliklarini umumiy simptomatikasini o’rganishidan boshlanadi. Differensial diagnostika, davolash, reabilitasiya va dispanser nazorat masalalari ko’riliши, yuqori kurslarda o’rgatish davom etiladi. Yangi texnologiyalarni o’quv jarayoniga interaktiv formada qo’llash - „Qor to’plash usuli” uslubi, bolalar xirurgiyasida tematik materiallarni o’zlashtirish va maxsus bilimni talabalar bilan egallash uchun zarur hisoblanadi.

### **INTERAKTIV O’YIN «DAVRA STOLI»**

Stol atrofida o’tirgan bir guruh talabalarga varakda yozilgan savol o’rtaga qo’yiladi, va shu savolga javobni har bir talaba o’zining varag’iga yozadi. Har bitta savol uchun 30 sek. vaqt ajratilib, shu tarzda talabalarga

5-ta savol beriladi. O'yin tugagandan keyin har bitta talabaning ushbu ishi ko'rilib, baholanadi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblar soniga qarab, baholanadi. Bu o'yinni ham yozma, ham og'zaki tarzda o'tkazish mumkin.

### **«QOPDAGI MUSHUK» KONKURSI**

Interaktiv ko'rinishdagi yangi texnologik usullardan biri – «Qopdagi mushuk» konkursidir.

Bu usul talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, mavjud bo'lган cheklanishlardan ozod qiladi, o'kitish intensevligini oshiradi, yangi informasiyalarni mustahkamlaydi, oraliq nazorati yoki bir mavzu bo'yicha bilimlarni tekshirish sifatida qo'llash mumkin.

O'kituvchi savollar yozilgan kartochkalarni maxsus qopchaga solib oldindan tayyorlab quyadi. Konkurs qatnashchilari qopdan kartochkalardan olib, cheklangan vaqt mobaynida savollarga javobni yozma tarzda beradi.

Talabaning ishining qonsultantlar tekshiradi. Mashg'ulotning so'ngida qonsultant tuplangan ballar va eng yaxshi ko'rsatgichga erishgan talabari e'lon qiladi.

### **«STOL O'RTASIDAGI RUCHKA» KONKURSI**

Interaktiv ko'rinishdagi yangi texnologik usullardan biri – «Stol o'rtasidagi ruchka» konkursidir.

Bu usul talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi, mavjud bo'lган cheklanishlardan ozod qiladi, o'qitish intensevligini oshiradi, yangi informasiyalami mustahkamlaydi, oraliq nazorati yoki bir mavzu bo'yicha bilimlarni tekshirish sifatida quo'lash mumkin.

### **«UCH POG'ONALI SUHBAT» USULIDA**

„Uch pog'onali suhbat” uslubi kichik guruhlarda talabalarni aktiv o'rgatish uslubiga ta'luqli. Ushbu uslub bo'yicha ishlash uchun 3 kishilik guruhlar tuzish, birbiriga ishonchni o'matish, ochiq muhokamaga to'sqinlik bo'layetgan psixologik bosimni yengish, vaqtini belgilash shart.

Har bir guruhda „vrach”, „bemor”, „ekspert-VOP” rollari taqsimlanadi. Baholay oladigan o'qituvchi yoki talaba „ekspert-VOP” rolida bo'lishi mumkin. „Bemorga” xirurgik kasallik nomi aytildi va

talaba og'zaki yoki yozma ravishda ma'lumot berishi kerak. „Vrach” berilgan malumotlarga qarab to'g'ri diagnoz ko'yishi kerak, „ekspert-VOP” – ishning tug'rilibini baholaydi. Guruh ishtiroqchilarini ishini baholanishi uch bo'limda yeziladi:

1. nima to'g'ri qilindi;
2. nima noto'g'ri qilindi;
3. qanday qilish kerak edi.

Hamma mashg'ulot ishtiroqchilari oldida har bir guruh o'z qonsultasiyasini ekspert hulosasi bilan namoysh etadi. Boshqa variant – talabalar ekspertlar rollarida poliklinikada vrach va bemor xakqoniq qonsultasiyasida Butun guruh va pedagog muhokama qiladilar.

## VAZIYATLI MASALALAR

1. 8 kunlik bolani umumiylahvoli yomonlashib qoldi. Kuchli toksikoz, tana harorati  $37,8^{\circ}\text{S}$ , emishi sust, qorni biroz dam, ahlati suyo'q. Bel sohasida  $8 \times 6$  sm. hajmidagi yumshoq to'qimalar giperemiyasi va infiltrasiyasi aniqlanmokda. Terisi issik, shishgan, og'riqli. Badanida yiringli o'choqlar aniqlanadi, kindik yarasi keng, fibrinoz qoplamlar bilan. Umumiylahvoli qon tahlili: leykositoz  $12,5 \times 10^9 /l$ , tayoqchasimon neytrofillar 8%, neytrofillar 28%, eozinofillar 2 %, limfositlar 52%, monositlar 10 %, EKT 6 mm/s.

Sizning taxminiy diagnozingiz, tekshirish rejasi, differensial diagnostika, davolash taktikasi?

2. 5 kunlik bolani umumiylahvoli yomonlashib qoldi. Kuchli toksikoz, tana harorati  $38,8^{\circ}\text{S}$ . Bola lanj. Qorinni pastki qismi va oraliq sohasida teri qizargan, issiq, taxtasimon taranglikda, og'riqli. Umumiylahvoli qon taxlili: leykositoz  $16,3 \times 10^9 /l$ , tayoqchasimon neytrofillar 32%, neytrofillar 51%, eozinofillar 0 %, limfositlar 11%, monositlar 6 %, EKT 6 mm/s.

Sizning taxminiy diagnozingiz, tekshirish rejasi, differensial diagnostika, davolash taktikasi?

## O'Z-O'ZINI SINASH UChUN TESTLAR:

1. Bolalarda mahalliy yiringli infektion jarayonning kechishida harakterli emas:
  - a. qon ketishi
  - b. nekroz va shishning tez yuzaga kelishi

- c. mahalliy fagositar reaksiyaning pasayishi
  - d. infeksiya tarqalishiga moyillik
  - e. yallig'lanish maxsulotlarining mahalliy uchokdan qon va limfalarga rezorbsiyasi.
2. Omfalitda qaysi klassifikasiya qo'llaniladi?
    - a. O'tkir, o'tkir osti, surunkali
    - b. Klinik oldi, klinik, post klinik
    - c. Oddiy, flegmonoz, nekrotik shakli
    - d. Chegaralangan, tarqalgan,
    - e. Asoratlangan, asoratlanmagan
  3. Yiringli infeksion jarayonlarni davolashda asosiy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi:
    - a. Dietoterapiya
    - b. Organizm himoya kuchlarini tiklash va stimullash
    - c. Antibiotiklar bilan kompleks davolash
    - d. Qoni ultrabinafsha nuri orqali nurlantirish, lazer davolash va immunizasiya
    - e. Og'riqsizlantirish
  4. Limfadenitning og'ir toksikoz va yuqori temperatura bilan kechishida qaysi davo choralari to'g'ri hisoblanadi?
    - a. Qonservativ davo
    - b. Zudlik bilan operatsiya qilish
    - c. O'tkir xirurgik infeksiyaga qarshi prinsip asosida
    - d. Antibakterial terapiya
    - e. Fizioterapevtik
  5. 25 kunlik chaqaloq kasallik o'tkir tana haroratining yuqori bo'lishi bilan ( $39-40^{\circ}\text{S}$  gacha) yuz terisida chegarlari aniq giperemiyapaydo bo'lishi, og'riqni ayniqsa periferiya bo'ylab og'riqli, tez tarqaldi. O'choqda teri rangi tuk asal rangida. Sizning tashhisingiz.
    - a. Chaqaloqlar flegmonasi
    - b. Maserasiya
    - c. Saramas
    - d. Omfalitning nekrotik formasi
    - e. Tananing psevdofurunkulyozi
  6. Yiringli yallig'lanish jarayonlarining bolalarda kechishida o'ziga xosligi
    - a. Tez tarqalish, nekrozning hosil bo'lishi va jadal kechishi
    - b. Tez tarqalish, tana harorati ko'tarilishi, ich ketishi

- c. Tana harorati ko'tarilishi, ich qotishi, tez-tez to'tqanok to'tishi
  - d. Sekin tarqalish, tana harorati ko'tarilishi, nekroz
  - e. Tana haroratining ko'tarilishi, yengil kechishi, nekroz
7. Chaqaloqlar flegmonasining asosiy qo'zgatuvchisini ayting.
- a. Virus
  - b. Soddaliylar
  - c. Stafilocokk
  - d. Chaqaloqlar saprofit florasi
  - e. Ichak tayoqchasi
8. Chaqaloqlar flegmonasining rivojlanishida anatomik husussiyati
- a. Ter bezlarining to'liq rivojlanmasligi
  - b. Infeksiya kirish yo'li kindik orqali
  - c. Derma muguz qavatining sust rivojlanganligi
  - d. Kichik qon aylanish doirasini qayta tiklanishi
  - e. Pishloqsimon massaning bo'lishi
9. Chaqaloqlar flegmonasining rivojlanishda anatomik husussiyati.
- a. Yaxshi funksiyalashgan ter bezlari
  - b. Teri osti yog'' qavati bilan qon tomirlar o'rtasidagi anastamozlar bo'lmasligi
  - c. Tirmok plastinkasining sust rivojlanganligi
  - d. Teri tuklarining erta to'qilishi
  - e. Issiqlik boshqarish markazining rivojlanmaganligi
10. Chaqaloqlar nekrotik flegmonasining birlamchi yallig'lanish jarayonining joylashish joyi.
- a. Teri
  - b. Teri osti yog'' qavati
  - c. Shilliq pardalar
  - d. Teri limfa tomirlari
  - e. Periferik venoz turi
11. Chaqaloqlar flegmonasida mahalliy jarayon uchun tipik joylashish joyi.
- a. Kindik oldi soha
  - b. Oldingi ko'krak qafasi
  - c. Yuz
  - d. Tananing orqa qismi
  - e. Tananing ochiq qismi
12. Bolalarda tanasining qaysi qismida chaqaloqlar flegmonasi kuzatilmaydi?

- a. Qulok oldi sohasi
- b. Bo'yin
- c. Qo'l va oyoqning kaft qismi
- d. Boshning sochli qismi
- e. Jinsiy a'zolar

13. Chaqaloqlar flegmonasida mahalliy yallig'lanish jarayoni uchun harakterli belgilarni ko'rsating.

- a. Qon qo'yilishi
- b. Giperemiyta
- c. Og'riqsizligi
- d. Terining ho'l bo'lishi
- e. Qon ketishi

14. Chaqaloqlar flegmonasi qo'yidagi qaysi kasalliklar bilan qiyosiy tashhis qilinadi?

- a. Psevdofurunkulez
- b. Epifizar osteomiyelit
- c. Saramas
- d. Gemangioma
- e. Terining dermoidli hosilasi

15. Chaqaloqlar nekrotik flegmonasi bilan og'rigan bemorda uchoqda manipulyasiya to'g'ri o'tkazish qoidasini ko'rsating.

- a. Jaroxatni rezin chiqargich bilan drenajlash
- b. Keyinchalik antibiotik kirgizish maqsadida mikroirrigator bilan drenajlash
- c. Gipertonik eritmali bog'lam
- d. Teri osti yog'' qavatidagi kur chuntaklarni asbob orqali ochish
- e. Jaroxatni kesgandan keyin tipiklashtarish

16. Chaqaloqlar flegmonasida optimal kesim davomiyligi qanaqa?

- a. To 0,5 sm
- b. 0,5 – 1,0 sm
- c. 1,0-1,5 sm
- d. 1,5-2,0 sm
- e. 2,0 smdan yuqori

17. Bemorda chaqaloqlar nekrotik flegmonasida operatsiyadan keyingi davrining asosiy choralari nima hisoblanadi?

- a. Jaroxatga bir so'tkadan keyin bog'lam qo'yish
- b. 1 so'tkadan so'ng har ko'ngi yuvish
- c. 6-8 soatdan keyin bog'lam qo'yish

- d. Drenaj holati
  - e. Gemodinamik qo'rsatkichlarni har soatda kuzatuv
18. Chaqaloqlar flegmonasi asoratini ko'rsating.
- a. Oldingi o'choq urmida yaqqol tasvirlangan qon tomir surati
  - b. Terining depigmentasiyasi
  - c. Yaqqol tasvirlangan chandiqli deformasiyasi
  - d. Teri osti yog'' qavatining bo'lmanligi tufayli uni cho'kishi
  - e. Teri va teri osti yog'' qavatining tez-tez yiringlashishi
19. Chaqaloqlar omfaliti uchun nima harakkerli?
- a. Kindik qoldig'inining infesirlashishi
  - b. Bakteriyalarga moyillik, kindik tomirlarining bitmasligi
  - c. Kattalashgan kindik tomirlarining paypaslanishi
  - d. Krasnabayev simptomining musbat bo'lishi
  - e. Yuqoridagilarning hammasi
20. Nospesifik yiringli yallig'lanish jarayonlarini chaqiruvchi mikroorganizmlar guruhi
- a. Stafilokokk, streptokokk, oqish treponema
  - b. Streptokokk, ichak tayoqchasi, Kox tayoqchasi
  - c. Ichak tayoqchasi, streptokokk, rekketsiya,
  - d. Stafilokokk, streptokokk, ichak tayoqchasi, protey
  - e. Protey, shigella, stafilokokk, streptokokk
21. Nekrotik flegmona bolalarda ko'pincha uchraydi
- a. Hayotining 1 kunida
  - b. Chaqaloqlik davrida
  - c. To 1 yoshgacha
  - d. Maktabgacha bo'lgan yoshda
  - e. Maktab yoshida
22. Nekrotik flegmonaning klinik formalarini ko'rsating
- a. Oddiy, toksikoseptik
  - b. Oddiy, nekrotik
  - c. Nekrotik, flegmonoz
  - d. Mahalliy, gangrenoz
  - e. Flegmonoz, gangrenoz
23. Nekrotik flegmonada operativ uslubni ko'rsating
- a. Yarim oysimon kesim
  - b. Keng lampas kesim
  - c. Radial kesim
  - d. Ko'p sonli kesimlar

e. Qontrapetur kesimlar

24. Nekrotik flegmonalarni bog'lamida qo'llaniladigan eritmalar

a. 40 % glyo'qoza

b. 40% sergozin

c. 10% kalsiy xlor

d. 25 magneziy sulfat

e. 40% urotropin

25. Qaysi barmoqlar yiringli jarayonida Pirogov bo'shlig'iga o'tish havfi bo'ladi?

a. 2-3 barmoqlar

b. 2-3-4 barmoqlar

c. 3-4 barmoqlar

d. 2-4 barmoqlar

e. 1-5 barmoqlar

26. 5 yoshli bolada qosh usti sohasida abszedirlanuvchi furunkul. Sizning taktikangiz

a. Malhamli bog'lam

b. Yiringni punksiyalash, so'rib olish

c. Operasiya, antibiotiklar

d. Kuzatuv

e. QuruQ bog'lam

27. Adenoflegmona bu.... yallig'linashi

a. Terini yallig'lanishi

b. Teri osti yog'' qatlami

c. Teri va yog'' bezlari

d. Limfa tugunlari

e. Limfa tugunlar atrof to'qimalar bilan birgalikda

28. Psevdofurunkulyoz bu... yallig'lanishi

a. Soch xaltasining

b. Teri osti yog'' qavatining

c. Limfa tugunlarining

d. Teri va yog'' bezlarining

e. Bir vaqt ni uzida bir nechta soch xaltasining

## **9 MAVZU: Bolalarda qorinning va qorin orti a'zolar shikastlanishlari .**

**Mavzuning dolzarbliji:** Bolalarda qorinning yopik shikastlanishlari bemor hayoti uchun jiddiy xavf to'g'dirishi mumkin. Bolalarda qorinning yopik shikastlanishlarini o'z vaqtida to'g'ri tashxislash va optimal davolash taktikasini qo'llash vrachlandan chuqur bilimni talab qiladi.

### **Mashg'ulot vazifalari:**

1. Bolalarda uchraydigan nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining etiologiyasi, patogenezi va klinikasi haqida bilim olish.
2. Tug'ma nuqsonlar va anomaliyalar bilan tug'ilgan bolalarni klinik ko'rik va tekshiruvdan o'tkazishni o'rganish.
3. Bola hayotiga xavf soluvchi nuqsonlar va rivojlanish anomaliyalarining diagnostik algoritmini o'rganish.
4. Rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari va ularning asoratlarini xirurgik davolash prinsiplari bilan tanishish.
5. Umumiy vrachlik yordami usullarini rivojlanish anomaliyalari va nuqsonlari bilan bolalarning operatsiyadan keyingi reabilitasiyasi protokoli va davolash diagnostik standartiga asoslab ishlab chikish.

**Mashg'ulot o'tkazish joyi:** rejali va shoshilinch xirurgiya bo'limi, operatsiya va kompyuter xonalari.

**Mashg'ulot maqsadi:** Xirurgik korreksiyani talab qiladigan tug'ma nuqsonlar va rivojlanish nuqsonlari klinik diagnostikasi, davolash va bolalar reabilitasiyasi uslublarini o'rganish.

## **BOLALARDA QORIN VA QORIN ORTI A'ZOLAR SHIKASTLANISHLARI**

Qorin bo'shlig'i a'zolarining yopiq shikastlanishlari bolalarda hamma shikastlanishlar orasida 3% tashkil qiladi va qorin, orqa sohalariga qattiq zarba bo'lganda, avtomobil travmasida, balandlikdan yiqilganda, ezilganda kuzatiladi. Abdominal travma 5 – 6 yoshdan 12 – 13 yoshgacha bolalar o'rtasida ko'proq uchraydi. Ichki a'zolarining deyarli har qanday shikastlanishi ham bola hayoti uchun xavf tug'diradi, shuning uchun qorin bo'shlig'i a'zolarining yopiq shikastlanishi bo'lgan bemorlar doimiy kuzatuv va davolash uchun xirurgik stasionarga yotqizilishi shart. Parenximatoz a'zolarning shikastlanishi (jigar, taloq) qorin bo'shlig'iga qon ketish bilan kechadi, kovak organlarning shikastlanishi esa

peritonitga olib keladi, shuning uchun bu patologiyani o'z vaqtida diagnostika qilish va samarali davolash usullarini tanlash juda muhim. Qorin bo'shlig'i a'zolarining yopiq shikastlanishi tashqi tomondan berilgan kuch ta'siri ostida yuzaga keladi. Bunga ko'pincha avtohaloqat sabab bo'lishi mumkin. Ichki a'zoning uzoq vaqt kuchayib boruvchi bosilishi natijasida ichki a'zoning yorilishi kuzatiladi. Qorinning old devoriga berilgan zarba natijasida yuza joylashgan a'zolar yoriladi. A'zolarining shikastlanishining darajasi va turi ularning travma vaqtidagi ahvoliga bog'liq. Qorin devorining mushaklarini aktiv taranglashishi ichki a'zolarni saqlaydi. Patologik o'zgarishlar bo'lган organda yengil travmalar ham og'ir shikastlanishlarga olib keladi.

Ichki organlarning har qanday shikastlanishi, deyarli hamma hollarda bola hayoti uchun xavf tug'dirib, shoshilinch yordam ko'rsatishni talab qiladi. Shuning uchun bu bemorlar xirurgik stasionar sharoitida doimiy kuzatuv va davoga muhtojdirlar.

**Klinika va diagnostika.** Ichki a'zolar shikastlanishining doimiy simptomlaridan biri bu og'riq, uning lokalizasiyasi ko'p hollarda shikastlangan o'choqni ko'rsatib beradi. Kovak organning shikastlanishida bolalar qorinning hamma sohalaridagi kuchli og'riqqa shikoyat qiladi, bunda aniq og'riq lokalizasiyasi yo'q. Parenximatoz organlarning shikastlanishida unchalik kuchli bo'limgan, chap (taloq) yoki o'ng (jigar) qovurg'a ostidagi og'riq kuzatiladi. Qon qorin bo'shlig'ining ichiga tarqalganda og'riq ham tarqalgan bo'ladi, ammo zararlangan organning sohasida kuchliroq bo'ladi. Bolalar og'riq yelka yoki ko'rak sohalariga irradiasiya qilishiga ham tez-tez shikoyat qiladi (Frenikus-simptom). Og'riq va uning irradiasiyasi chuqur nafas olganda va harakatlanganda kuchayadi.

Qo'sish va o'g'jish parenximatoz organlar jaroxatlanganda doimiy simptom hisoblanadi, ular travmadan bevosa keyin yoki bir necha soat o'tib kuzatilishi mumkin.

Parenximatoz organi shikastlangan bemorni ko'zdan kechirganda teri qoplamlarining oqimtiр bo'lishi, tilning quruqligi, qorin oldingi devorining nafas olishda sust ishtirok etishi kuzatiladi. Odatda bemor to'shakda majburiy holatni egallaydi. Travma olgan bola kamharakat bo'lib qoladi. o'ziga qulay joylashib, bemor o'z holatini o'zgartirishni xoxlamaydi va shikastlangan organi tomoniga yotishga harakat qiladi ("vanka-vstanka" simptomi).

Arterial qon bosimining dinamikada kuzatish ichki qon ketishning darajasini aniqlashda to'liq ma'lumot berolmaydi, chunki bolalarda uzoq vaqt davomida arterial bosim bir meyorda ushlanib turishi mumkin. Dinamikada puls tezligini oshishi ko'proq aniqlik kiritadi.

Jigar, taloqning alohidagi shikastlanishida qorin oldingi devori mushaklarining taranglashishi kuchsiz bo'lib o'ng yoki chap epigastral sohalarida kuzatilishi mumkin. Qorin bo'shlig'ida to'qilgan qonning tarqalishi bilan mushaklar taranglashishi ham tarqalgan bo'ladi. Щyetkin-Blyumberg simptomi parenximatoz organlarning shikastlanishida juda sust bo'ladi va bu holat qorin pardasining qonga bo'lgan reaksiyasi oqibatida kelib chiqadi. Organning kapsulasi Butunligi buzilmaganda yoki gematoma organning ichida joylashganda Щyetkin-Blyumberg simptomi aniqlanmaydi. Qorin bo'shlig'iga qon ketganda, qorinni paypaslaganda kuchli og'riq va shu vaqt ni o'zida kuchsiz mushaklar taranglashishi kuzatilishi mumkin – Kulenkamfa simptomi.

Qorin bo'shlig'i a'zolarining yopiq shikastlanishi bilan kelgan bemorlarda UZI va rentgenologik tekshirish o'tkazilishi shart. Kovak organ shikastlanganda qorin bo'shlig'i obzor rentgenogrammasida diafragma ostida erkin gaz aniqlanadi.

**Taloqning** shikastlanishi bolalar o'rtasida eng ko'p uchraydigan patologiya hisoblanadi. U qorin bo'shlig'i organlari shikastlanishining 50 % ni tashkil qiladi. Taloqning shikastlanishi jigar, buyrak va ichaklarning jarohatlanishi bilan birligida kechishi mumkin. Taloq yorilganda ichki qon ketish belgilari asosiy o'rinda turadi. Bemor oqarib ketadi, pulsi tezlashadi va sustlashadi. Qon bosimi va gemoglobin miqdori tushib ketadi. Esnash (kislorod yetishmasligi), qorin hajmining kattalashib ketishi kuzatiladi. Umumi simptomlar bilan birligida mahalliy simptomlar ham kuzatiladi. Agar bemor xushida bo'lsa, qorining chap tomonida og'riqqa shikoyat qiladi. Og'riq chap ko'rak sohasiga irradiasiya beradi. Ba'zan qorinning oldingi devori mushaklari taranglashadi. Teridagi tirmalangan, ezilgan, qon quyilgan yaralar va ularning joylashuvi diagnoz qo'yishda katta ahamiyatga ega.

Bemorning to'shakdag'i holati majburiy bo'lib, u shikastlangan tomonga qarab yotadi. Ichki qon oqishida og'riqning qorin oldingi devorining taranglashuvi bilan nomo'tanosibligi kuzatiladi. Bu Kulenkampf simptomining musbatligidan dalolat beradi.

Veynert belgisini tekshirish uchun xirurg bola bel sohasining yuqori qismini 4 ta barmog'ini umurtqa pog'onasiga qaratgan holda bosh

barmoqlari bilan qorinni qisadi, bunda chap tomonlama qorin mushaklarining qarshiligi seziladi. Bu belgi taloq shikastlanganda musbat bo'ladi.

Laborator tekshirish usullari diagnozni aniqlashga imkon beradi. Taloq shikastlanganda leykositoz harakterli hisoblanadi. Travmadan 8 – 12 soat o'tib leykositoz o'sib boradi. Taloq shikastlanganda va qorin bo'shlig'iga qon oqqanda obzor rentgenografiyada va rentgenosqopiyada qorin bo'shlig'inining gomogen qorayishi kuzatiladi.

**Jigarning** shikastlanishi qorin bo'shlig'i a'zolari shikastlanishining 5 – 25 % ni tashkil qiladi. Bu holat 6 – 12 yoshli bolalar o'rtasida ko'prok uchraydi.

Jigar shikastlanishi turli xil bo'lib, ular kapsula osti gematomasi, kapsulaning yorilishi, yuzaki yoriqlardan to chuqur yoriqlargacha bo'lishi mumkin. Ko'pincha jigarning o'ng bo'lagi shikastlanadi. Undan so'ng o'ng bo'lagi oldingi qismi va chap bo'lagi shikastlanadi. Jigar o'ng bo'lagining pastki qismi kamdan – kam hollarda shikastlanadi. Agarda shikastlanish shu sohada uchrasa, u yerda qon tomirlari ko'pligi sababli juda ko'p qon ketishi mumkin.

Jigarning shikastlanishi uchta guruhga bo'linadi:

1. jigar shikastlanishi kapsula ostida;
2. jigarning ham, kapsulaning ham shikastlanishi;
3. jigarning markaziy shikastlanishi;

Klinik belgilarning namoyon bo'lishi jigar shikastlanishining og'irlilik darajasiga bog'liq. Jigar shikastlanganda og'rik, qon ketish, shok holatiga (teri va shilliq qavatlarning oqarib ketishi, sovuq teri bilan qoplanishi, nafas olishning tezlashuvi va og'irlashuvi, pulsning tezlashuvi, arterial qon bosimining tushib ketishi, bemorning hushidan ketishi) tushishi kuzatiladi.

Kapsula osti yorilishlarida yoki chuqur gematomalarda kasallikning klinik kechishi ba'zan ikki bosqichli bo'ladi. Jarohat olgan vaqtida bemor jigar sohasida kuchli og'riq his qiladi. Vaqt o'tishi bilan og'riq kamayib, hatto yo'kolib boradi. Keyinchalik, ko'tilmaganda qorindagi og'riq kuchayib, bemor hushidan ketishi mumkin. Ichki qon ketish belgilari yuzaga chiqadi.

Agarda jigarning yakka o'zi shikastlansa bemor bola o'ng qovurg'a yoyi ostida va qorinning o'ng tomonidagi og'riqqa shikoyat qiladi. Nafas olganda va harakatlanib tana holatini o'zgartirganda og'rik kuchayadi. Kichik yoshdagagi bolalarda og'rik tarqalgan bo'ladi, katta yoshdagagi

bolalarda ko'proq jigar sohasida bo'ladi. Bemorning to'shakdagi holati majburiy bo'ladi: oyoqlari bukkan va qorniga tortgan holatda, "Vanka - vstanka" simptomi musbat bo'ladi.

Jigar shikastlanganda "kindik simptomi" harakterli hisoblanadi: kindikni bosib ko'rganda, jigarning yumaloq boylami tortilishi natijasida kuchli og'riq kuzatiladi.


Laborator tekshirish usullari diagnozni aniqlashga imkon beradi. Jigar shikastlanganda transaminazalarning ko'payishi harakterli.

*Kovak organi* shikastlangan bolani ko'zdan kechirganda: yuz ifodasi o'tkirlashgan, rangi biroz uchgan, tili quruq va qalin karash bilan qoplangan. Qorin nafas aktida qatnashmaydi, qorin oldingi devori muskullarining tarangligi oshgan, qorin parda yallig'lanish simptomi yaqqol aniqlanadi. Peritonit, toksikoz va eksikoz belgilari kuchayib borishi bilan bemorning ahvoli juda ham yomonlashadi. Tana harorati  $37,5 - 38^{\circ}\text{S}$  gacha oshadi. Uncha yuqori bo'limgan temperaturada puls 1 mino'tda 20 – 30 gacha tezlashadi.

Obzor rentgenosqopiyada kovak organ yirtilganda qorin bo'shlig'ida jigar va diafragma gumbazi o'rtasida erkin havo (o'roqsimon shaklda) borligi aniqlanadi.

Kovak organ jaroxatlanishi qorin parda yallig'lanishi bilan kechganda qonnning oq formulasida o'zgarishlar kuzatiladi (chap tomonga siljish, leykositoz, EChT balandligi). Bioximik tahlillar, kislotaishkor holati, suv-tuz almashinuvini aniqlash jarohatlangan bolada metabolik buzilishlar korreksiyasi va suv-tuz balansini tiklashni to'g'ri va nazorat ostida o'tkazishga imkon beradi.

Qorin bo'shlig'i organlari jarohati operativ davo o'tkazishni talab qiladi, vrach-pediatrning taktikasi bemor ahvoliga to'g'ri baho berib, o'nga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va o'z vaqtida xirurgik stasionarga gospitalizasiya qilishdan iborat. Bemorga to'liq tinchlik holati yaratilib beriladi. Jarohat sohasiga muz qo'yiladi. Ichki qon ketishga shubha bo'lganda vena ichiga 3 – 5 ml 10 % li kalsiy xlor eritmasi, 10 – 12 ml 40 % li glyo'qoza eritmasi, mushaklar orasiga vikasol eritmasi



Rasm 54

yuboriladi. Og'riqsizlantirish maqsadida narkotik moddalar yuborish mumkin emas. Suv va ovqat berish man etiladi.

**Davo.** Qorin bo'shlig'i a'zolarining shikastlanishi diagnozi qo'yilganda xirurgik davolash o'tkaziladi. Diagnozni aniqlash zaruriyati tug'ilganda qonservativ usullar qo'llanadi: mahalliy gipotermiya, shokka qarshi muolajalar, to'shak holati va doimiy kuzatuv. Agar o'tkazilayotgan tekshirishlar diagnoz qo'yishda aniqlik kiritmasa unda diagnostik laparosqopiyaga yoki laparosentez qo'llanadi.

## BUYRAK SHIKASTLANISHLARI

Bolalarning buyrak va siydik chiqarish yo'llari shikastlanishi nisbatan tez-tez uchraydi. Bular orasida birinchi o'rinni buyrakning yopiq shikastlanishi egallaydi. Ular avtohaloqatga uchraganda, yuqorida tushib ketganda va bel sohasiga olingan travmalar natijasida kelib chiqadi ikkinchi o'rinda siydik chiqarish kanali va yorg'oq a'zolari turadi. Nisbatan kam shikastlanish qovuqda, siydik naylarida esa onda-sonda kuzatiladi. Maktab yoshidagi o'g'il bolalar nisbatan ko'proq shikastlanadilar. Ko'chada shikastlanish birinchi o'rinda tursa, ikkinchi o'rinda esa kundalik turmushdagi va sport natijasida shikastlanishlar turadi. Keyingi yillarda avtomobil transporti harakatlari ko'paygani tufayli bu turdagagi shikastlanishlar ham ancha ko'paydi.

Bolalarda ko'pincha buyraklarning yopiq shikastlanishi kuzatiladi. Yopiq shikastlanishlar ko'krak, qorin va biqin soxalari shikastlangan bemorlarning 15—23% ini tashkil qiladi. Buyrakning yopiq shikastlanishi shikastlantiruvchi kuchning bel sohasiga bevosita ta'siri hamda yiqilganda yoki sakraganda keskin ravishda buyrak holatining o'zgarishidan kelib chiqadi. Buyrak shikastlanishi mexanizmida gidrodinamik ta'sirning ahamiyati bor. Ma'lumki, buyrak qon tomirlar bilan yaxshi ta'minlangan a'zolar qatoriga kiradi. Uning kosachalarida va jomida doimo siydik bo'ladi. To'satdan bo'lgan urilish, chayqalish natijasida suyuqlik ta'siridan radial yorilishlar yoki parchalanishlar yuzaga keladi.

Buyrak shikastlanishida urilishning kuchi, uning qaysi qismiga tegishi, buyrak atrofi biriktiruvchi to'qimasi, muskullarining rivoji katta ahamiyatga ega. Buyrakda avvaldan patologik o'zgarishlar bo'lsa (gidronefroz, pionefroz, o'sma, distopiya, taqasimon buyrak va h.k.),

kuchsiz urilishdan ham katta shikastlanish kelib chiqishi mumkin. Buyrakdagi yopiq shikastlanishlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Buyrak pardasi va atrof to'qimasining shikastlanishi.
- Kosachalar va jomiga yetmagan parda osti yorilishi.
- Kosachalar va jomga yetgan parda va parenximasining yorilishi.
- Buyrakning majaqlanishi.
- Buyrakning uzilishi.

**Klinikasi.** Buyraklar shikastlanishi uchta simptom bilan harakterlanadi: og'riq, gematuriya va bel sohasida shish bo'lishi. Ko'pincha og'riq, peritoneal belgilar va gematuriya kuzatiladi. Og'riq simillagan tusda bo'lib, yo'talganda, qimirlaganda, shikastlangan joy paypaslanganida kuchayadi. Ayrim hollarda o'tkir bo'lib, xuddi sanchiqli og'riqdek chov kanaliga, tashqi jinsiy a'zolarga berilishi ham mumkin. Bu hol ko'pincha siydiq yo'llariga ivigan qon laxtalari tiqilib qolganida aniqlanadi. Bemor shok holatiga ham tushib qolishi mumkin. Teri qoplamlari oqorgan,sovuk ter bilan qoplangan, pulsi tezlashgan va kuchsiz to'liqlikka ega. Arterial qon bosimi pasaygan. Bemor bezovta, chanqagan bo'ladi. To'mtoq travmalarda shikastlanishning tashqi alomatlari ko'rinxmaydi. Qorin va bel sohasidagi og'riq harakat vaqtida va chuqur nafas olganda kuchayishi mumkin. Paypaslaganda bel sohasi og'riqli va ba'zan bo'rtib turadi.

Og'riq ko'pincha muskullar taranglashuvi va qorin pardaning ta'sirlanishi tufayli ro'y beradi. Shikastlanishning 2-3 kunlarida muskullar bo'shashadi va buyrak sohasi bel tomondan bo'rtib chiqishi mumkin. Bu paranefral to'qimada gematoma to'planganining oqibatidir. Kichik yoshdagi bolalarda qon va ba'zan siydiq buyrak atrof to'qimasida to'planib, paranefrit belgisini berishi yoki qorin bo'shlig'iga o'tib, peritonitga sabab bo'lishi ham mumkin. Ko'pgina hollarda urogematoma biriktiruvchi to'qimani fibrozga aylantirib, piyelouretral zonaning deformasiya bo'lishiga va urodinamikaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bemorlarda ikkilamchi piyelonefrit boshlanib, ularning ahvoli ancha og'irlashadi.

Gematuriya asosiy simptomlardan bo'lib, u har xil intensivlikda (mikroge-maturiyadan to ko'p qon oqishigacha) namoyon bo'ladi. Bu buyrak shikastlanishining og'irligidan darak bermaydi. Buyrak majaqlanganda va uzilganda gematuriya juda arzimas yoki ivigan qon evaziga siydiq yo'lining obturasiyalanishidan umuman bo'lmasligi ham mumkin. Bunga buyrakda shikastlanish oqibatida reflektor oligoanuriya

va shok natijasida diurezning pasayishi ham asosiy sabab bo'lishi mumkin.

Buyrak shikastlanishiga shubha tug'ilganda shoshilinch tarzda ekskretor urografiya o'tkaziladi. Uning yordamida shikastlanish darajasi va harakteri aniqlanadi. Urogrammada buyraklar qontrasti bo'lmasa, buyraklar angiografiyasi o'tkaziladi. U buyrak arteriyasi trombozini aniqlashga imkon beradi.

O'TT yordamida organning joylashishi, uning razmeri, mikrostrukturasi, buyrak atrofida gematoma borligi aniqlanadi.

Buyraklarning funksional holatiga va patologik prosessning rivojlanish dinamikasiga baho berishda radioizotop renografiyadan foydalilaniladi.

*Siydik pufagining* qorin parda ichi va qorin pardadan tashqarida yirtilishi farqlanadi. Siydik qopi to'lgan holda shikastlangan bo'lsa, u holda siydik qorin bo'shlig'iga to'qiladi va buni qorin parda ichi yorilishi deb aytiladi. Bu holat qorinning pastki qavatining qisilishi, urilishi yoki yuqoridan tushib ketishi natijasida yuzaga keladi. Qorin parda ichi yirtilishida bemorning tili quruq, qorin taranglashgan, og'riq seziladi, Щyetkin-Blyumberg simptomi musbat. Eksikoz va toksikoz simptomlari tez rivojlanadi. Siydikning qorin bo'shlig'iga to'planishi natijasida siyish kuzatilmaydi. Qorin pardadan tashqarida yirtilganda qov ustida kuchli og'riq va shish kuzatiladi. Siydik qon aralash bo'lib, kam-kam ajraladi va siyganda og'riq seziladi.

Diagnoz quyishda sistografiyadan foydalilaniladi. Bu tekshirish usuli bevosita operatsiya oldidan o'tkazilishi kerak.

Davosi. Shoshilinch tarzda xirurgik davo o'tkaziladi.

## **OShQOZONNI ZONDLASH**

- zarur bo'ladigan asboblar va dori moddalarni tayyorligi tekshiriladi: salfetkalar, shariklar, spirt, oshqozon zondi;
- qullar oqar suvda sovun bilan yuviladi, sochiq bilan artilib, spirt bilan surtiladi;
- bemor ko'ruv stoliga yelkasiga yotqiziladi;
- oshqozon zondini zaruriy uzunligi o'lchanadi burundan to'sh suyagining xanjarsimon o'simtasigacha bo'lgan masofa;
- bolani boshini chap qo'l bilan ushlanadi, o'ng qo'l bilan ohista kateter bolani chap burun katagi orqali kiritiladi;

- kateter uchi burun, og'iz, halqum va qizilo'ngach orqali o'tib, oldindan belgilangan uzunlikda oshqozonga to'shadi;
- - kateter orqali oshqozon maxsuloti chiqa boshlaydi;
- - zaruriy muolaja bajarilgach kateter sekinlik bilan chiqarib olinadi.

## OShQOZONNI YUVISH

Ko'rsatma:

1. Davolash maqsadida.
2. Diagnostika maqsadida.
3. Oshqozondan sifatsiz ovqatlarni yuvib tashlash.
4. Organizmga zaharli ximikatlar og'iz orqali oshqozonga tushganda.
5. Dori vositalari bilan zaharlanganda.
6. Bakteriya toksinlari bilan zaharlanganda.
7. Zaharli o'simliklar bilan zaharlanganda (qo'ziqorin v.b.q.).

Taylorlash:

- bemor bolaning ota onasiga bo'ladigan muolaja hakida tushuntirish.


Kerakli sharoit va instrumentlar va dori vositalari:

1. Muolaja xonasi.
2. Kushetka yoki chaqolok yo'rgaklaydigan stol.
3. Oshqozonni yuvish uchun kerakli suyuqliklar (suv, 2 % bikorbanat natriy eritmasi yoki permanganat kaliyning och pushti rang eritmasi va ko'rsatmaga asosan antidot eritmalar).
4. Qalin zondlar har xil o'lchamdag'i va har xil diametr dag'i (katta yoshdagi bolalar uchun 70-100 sm. li diametri 10-12 mm., ko'krak yoshdagi bolalar uchun 3-5 mm. li zondlar).
5. Shishali shpris (20 gr.)
6. Voronka.
7. Tog'ora.
8. Vazelin malhami.
9. Oshqozonga yetarli bo'lishi kerak bo'lган zondni aniqlash uchun taxminiy o'lchamlardan foydalanish mumkin bu burun uchidan to'kindik chuqurchasigacha bo'lган masofani olish mumkin yoki aniqroq o'lchash uchun quyidagi formula orqali hisoblanadi : 20/- p, p- bola yoshi.

**O'tkazish texnikasi (aseptika qoidalariga rioya qilgan holda).**

1. Bemorning holati kichik yoshdagagi bolalarni yotqizib yonbosh holatda boshini ozroq yonboshga burilgan holatda, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni hamshira tamonidan tizzasiga o'tqizib bemorni oldini plyonka bilan yopib oyoqlarini o'zining ikki oyog''i orasiga olgan holda boshini yelkasiga keltirib o'tqaziladi.
2. Zondni o'tkazuvchanligini tekshirish kerak.
3. Zond uchini vazelin yog''i bilan moylash kerak.
4. Zondni o'ng qo'lga olib bemor boladan og'zini ochishni aks holda shpatel orqali til asosini bosib tamog'i tamon yuborib tez harakat bilan zond yo'naltiriladi.
5. Bemor boladan yutish harakatini qilish tavsiya etiladi va ohista harakat bilan zond qizilo'ngachdan o'tkaziladi (bu muolaja maktabgacha va maktab yoshidagi bemor bolalarga o'tkaziladi).
6. Oshqozonda zondning turganligin bilish uchun Quyidagi sinama o'tkaziladi ya'ni fonendoskop oshqozon proyeksiyasiga qo'yilib shpris orqali havo yuboriladi shunda havo puflangani eshitiladi, shuningdek quishish refleksi to'xtaydi.
7. Katta yoshdagagi bolalarni oshqozonini yuvish uchun bolani stulga o'tirg'izdirib oldini fartuk yoki choyshab bilan yopiladi.
8. Zond yuborilgandan so'ng tashqi teshigi varonkaga ulanadi va sifon prinsipi bo'yicha yuviladi.
9. Kichik yoshdagagi bolalarni oshqozonini yuvishda shishali 20 gr. li shprisdan foydalaniladi.
10. Oshqozon yuvilgandan keyin zond asta sekin tortib olib tashlanadi.





## KLASTER

(Klaster - to'tam, bog'lam, g'uncha)

Ma'lumot haritasini tuzish vositasi - barcha fikr qonstitusiyasini fokuslash va aniqlash uchun qandaydir asosiy omil atrofida g'oyalami yig'ish. (Ixtiyoriy muammo, mavzular xususida erkin, ochiq o'yplash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi)

Bilimlar faollashishini ta'minlaydi, mavzu bo'yicha fikrlash jarayonida yangicha assosiasiya taqdim etishga erkin va ochiq kirib borishga yordam beradi.


Kalit so'zlar bilan assosiasiya bo'yicha yon tomonidan kichkina hajmdagi aylanaga "yo'ldoshlar" yoziladi – ushbu mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasi. Ular chiziq bilan "bosh" so'zga bog'laniladi.

Ushbu "yo'ldoshlar"da "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin va boshqalar. Yozuv ajratilgan vaqt tugaguncha yoki g'oya yo'qotilmaguncha davom ettiriladi.

Klasterni tuzish qoidalari bilan tanishadi. Sinf doskasi yoki katta kog'oz varag'i markazida kalit so'zlar 1 - 2 so'zdan iborat mavzu nomlanishi yoziladi.

Mulohazalar uchun klasterlar almashtiriladi.

## KLASTER



## MUAMMONI ANIQLASH, UNI HAL ETISH, TAHLIL QILISH VA REJALASHTIRISH USULLARI VA VOSITALARI

(Patogenezni tushuntirish uchun maqbul.)

«Nima uchun?» sxemasi «Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishiladi.

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi.


«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari.

1. Qanday piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri turburchakdan foydalanishingizni o'zingiz hal etasiz.

2. Muloxazalar sxema – zanjiri to'rini: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon bo'lishligini (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirishni) o'zingiz tanlaysiz.

3. Strelka sizning qidiruv yo'nalishingizni belgilaydi: dastlabki holatdan oqibatgacha.

4. Jigar shikastlanganda nima uchun og'riq harakteri doimiy bo'ladi?



## **«Qanday?» diagrammasini qurish qoidalari: (Aktiv talabalar uchun maqsadli).**

1. Ko'p hollarda sizga muammolarni hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

«Qanday?» iyerarxiya diagrammasi muammo haqida Butunligicha umumiylashtirishiga ega bo'lishga imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ruyxatiga mos keladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3. Diagramma hyech qachon tugallanmaydi: o'nga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi mumkin.

5. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda to'ting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalari va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.


b. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimistik bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.

## «QANDAY?» DIAGRAMMASI



Vinn diagrammasi yechimi :

**Mazkur holatda uchallasiga o'xshashlik - quшив;  
2- tasiga o'xshashlik : hansirash yoki ko'karish ...va hakozo.**



## **USLUBNING UMUMIY HOLATI**

„**QOR TO’PLASH USULI**” uslubi - kichik guruhlarda talabalarni aktiv o’rgatish uslubiga ta’luqli. Ushbu uslub bo’yicha ikki guruh talabalari bitta savol yoki masalani yechadi, to’g’ri va to’liq javob bergen talabaga qor to’plash usulida ball qo’yiladi. Ko’p ball to’plagan talabaga a’lo baho ko’yiladi.

Ushbu uslub o’quv jarayonini tezlashtiradi, uning muhimligi o’tgan va yangi o’quv informasiyasini mustahkamlashdan iborat.

### **“QOR TO’PLASH USULI” USLUBINING BOLALAR XIRURGIYaSIDA QO’LLANILISHI**

Bolalar xirurgiyasi tibbiyot Oliy ta’lim muassasalarida 6 kurs pediatriya va 6 kurs davolash fakultetlarida etiologiya, patogenez, xirurgik kasalliklarini umumiylashtirishga o’rganishidan boshlanadi. Differensial diagnostika, davolash, reabilitasiya va dispanser nazorat masalalari ko’rilishi, yuqori kurslarda o’rgatish davom etiladi. Yangi texnologiyalarni o’quv jarayoniga interaktiv formada qo’llash - „qor to’plash usuli” uslubi, bolalar xirurgiyasida tematik materiallarni o’zlashtirish va maxsus bilimni talabalar bilan egallah uchun zarur hisoblanadi.

### **INTERAKTIV O’YIN «DAVRA STOLI»**

Stol atrofida o’tirgan bir guruh talabalarga varaqda yozilgan savol o’rtaga qo’yiladi va shu savolga javobni har bir talaba o’zining varag’iga yozadi. Har bitta savol uchun 30 sek. vaqt ajratilib, shu tarzda talabalarga 5-ta savol beriladi. O’yin tugagandan keyin har bitta talabaning ushbu ishi ko’rilib, baholanadi: noto’g’ri javoblar o’chiriladi, to’g’ri javoblar soniga qarab, baholanadi. Bu o’ynni ham yozma, ham og’zaki tarzda o’tkazish mumkin.

### **VAZIYATLI MASALALAR**

1. Og’ir bosh miya travmasi bo’lgan bemorda 3 soat kuzatuvdan keyin qorin bo’shlig’igi qon ketish gumoni bor. Sizning taktikangiz.
2. 11 yoshli bola qabul bo’limiga tez yordam avtomashinasida olib kelinda. Hushi o’zida. Ko’rganlarni gapiga qaraganda bola turnikdan qorni bilan yiqilib tushgan. Sizning taktikangiz.

3. 7 yoshli bola, qabul bo'limiga avtoavariya joyidan, xushsiz tez yordam avtomashinasida o'tkazildi. Sizning taktikangiz?

4. 5 yoshdag'i bolani ota onasi qabul bo'limiga qorinning yopiq shikastlanishi bilan olib kelishdi. Bemorning hushi o'zida, qorin bo'shlig'i obzor rentgenogrammasida erkin gaz. Sizning taktikangiz?

5. 13 yoshli bolani ota-onasi stasionarga chap bel sohasidagi shish va og'riqqa shikoyat bilan olib keldi.. Bemor so'ziga qaraganda trenirovka paytida sherigi oyog''i bilan tepgan. Laborator tekshirishlar vaqtida siyidik analizida eritrositlar chiqdi. Sizning taktikangiz?

6. 14 yoshli bola tez yordam mashinasida shifoxonaga yetkazildi. Bemor hushida, qorin chap yarmidagi og'riqqa shikoyat qilyapti. Bola chap yoniga yotyapti. Sizning diagnozingiz?

7.Qorininng yopiq travmasi qon ketish bilan asoratlangan, shoshilinch laparotomiya vaqtida xirurg taloqning ezilishini ko'rди. Ichaklar devorida gematomalar mavjud. Xirurgning taktikasi?

8.YTX joyidan tez yordam mashinasi bilan 6 yoshli bola olib kelindi. Hushi o'zida. Ko'rikda tananing har joyida tirmalishlar mavjud, qorin devorining oldingi tomonida gematoma bor. Palpasiyada qorin old devori muskullarining tarangligi va Щуэткин-Блюмберг simptomi kuzatiladi. Qabul bo'limi vrachining taktikasi?

9. Peritonit bilan 13 yoshli bolada shoshilinch laparotomiya vaqtida xirurg yonbosh ichak yirtlishini ko'rди. Xirurgning keyingi taktikasi?

10. Jigarning ikki lahzali yirtlishiga tushuntirish bering?

## TESTLAR

1. Qorin bo'shlig'idagi parenximatoz organning yirtlishida qaysi tekshirish olib boriladi.

- a. ezofagosqopiy
- b. gastrosqopiy
- v. torakosentez
- g. laparosentez
- d. Elefanta probasi

2. Kovak organ yirtlishida qaysi tekshirish olib boriladi.

- a. gastrofibrosqopiy
- b. kolonusqopiy
- v. qorin bo'shlig'i obzor rentgenografiyasi
- g. UZI

- d. Elefanta probasi
3. Qaysi organ yirtilishi atipik kechadi va qiyin tashxislanadi:
- 12-barmoqli ichakning qorin orti qismi
  - yonbosh ichak
  - sigmasimon ichak
  - ko'r ichak
  - oshqozon
4. Buyrak yopiq travmasida asosiy simptomlar:
- qorinda og'riq, gematuriya, harorat ko'tarilishi
  - bel sohasidagi og'riq va shish, gematuriya
  - bel sohasida og'riq, temperatura, dizuriya
  - zaporlar, oligouriya, qorindagi og'riq.
  - bel sohasida shish, dizuriya, makro gematuriya
5. Qorindagida og'riq sindromida ambulatoriyaning pediatri qilishi shart:
- og'riqsizlantirish
  - somatik stasionarga yuborish
  - uyga yuborish
  - xirurgik stasionarga yuborish
  - yuqoridagilarning hammasi
6. Og'ir bosh miya travmasidan keyin 3 soatlik kuzatishdan keyin qorin ichi qon ketishga shubha bo'ldi.:
- kuzatish
  - shoshilinch laparotomiya
  - laparasentez
  - qorin bo'shlig'i rentgenografiyasi
  - takroriy laborator tekshirishlar
7. Siyidik pufagi yirtilishining eng og'ir asorati:
- peritonit
  - sepsis
  - shok
  - gematuriya
  - anuriya
8. Bola hayotiga xavf soluvchi travmaning eng xavflisi
- ichki organlar kuchli travmasi
  - organning zaralanishi qon ketish asorati bilan
  - oldingi qorin devorining travmasi
  - bosh miya chayqalishi va ichki organlar travmisi
  - bosh miya chayqalishi boldir suyagi sinishi bilan.

9. Kovak organ yirtilishida harakterli asorat

- a. sepsis
- b. peritonit
- v. pnevmoniya
- g. anemiya
- d. qonli axlat

10.Qorin bo'shlig'i organlarining zararlanishida shokning sababi

- a. quish
- b. bosh og'rig'i.
- v. qon ketish
- g. yuqori temperatura
- d. talvasa

11.Kovak organ yirtilishida so'tkadan keyin quшивning harakteri

- a. fontanli quish
- b. zarda bilan quish
- v. bir martali quish
- g. hazm bo'limgan ovqat bilan quish

12. Jigar yirtilishida bemor holati.

- a. majburiy yarim o'tirgan
- b. chap yonboshda yotib, qo'li o'ng qovurg'a ostiga.
- v. o'ng yonboshga yotadi
- g. orqasi bilan yotadi
- d. qorinda yotadi

13. Taloq zararlanishida harakterli simptom.

- a. Gipokrat simptomi
- b. "vanka-vstanka" simptomi
- v. Щyetskina-Blyumberg. simptomi
- g. loy simptomi
- d. qum soat simptomi

14.Qorin bo'shlig'i parenximatoz organlarining zararlanishida harakterli belgi

- a. qon aralash axlat
- b. qon aralash quish
- v. o't aralash quish
- g. gipertermiya
- d. puls tezlashgan

15.Qorin bo'shlig'i organlarining shikastlanishiga shubha bo'lganda rentgenologik tekshirishda bemorning holati.

- a. gorizontal
  - b. Trendelenburg holati
  - v. Vangenstin holati
  - g. vertikal
  - d. yonbosh holati
16. Kovak organning shikastlanishida harakterli rentgenologik belgi
- a. Kloyberg kosachalari
  - b. ichaklar pnevmatozi
  - v. qorin bo'shlig'ida erkin gaz
  - g. total qarayish
17. Kovak organning shikastlanishida qaysi rentgenologik tekshirish o'tkaziladi
- a. irrigografiya
  - b. ekskretor urografiya
  - v. qorin bo'shlig'i obzor rentgenografiyasi
  - g. rentgenqontrast tekshirish
  - d. sistografiya
18. Ingichka ichak shikastlanishiga xos og'riq
- a. xurujsimon
  - b. xanjarsimon
  - v. doimiy bir meyordagi og'riq
  - g. spastik
  - d. sanchiqsimon
19. Me'da shikastlanganda og'riq harakteri
- a. xurujsimon
  - b. xanjarsimon
  - v. doimiy bir miyordagi og'riq
  - g. spastik
  - d. sanchiqsimon
20. Kovak organning shikastlanishida aniqlanadigan simptom
- a. Щуэткин-Блюмберг
  - b. Veyner
  - v. Ombredin
  - g. Koxxer
  - d. Kyummel
21. Taloq yirtilishida taktika
- a. shoshilinch laparosqopiyasi

- b. shoshilinch laparatomiya
  - v. shoshilinch splenografiya
  - g. kuzatuv
  - d. qon to'xtatuvchi vositalar, tinchlik holatini tug'dirish
22. Taloq yirtilishida simptom
- a. quish
  - b. Veyner
  - v. Щуэткин-Блюмберг
  - g. Voskresenskiy
  - d. «kindik» simptomi
23. Splenektomiyaga ko'rsatma
- a. taloq lat yeyishi
  - b. kichik yirtilish
  - v. taloq ezilishi
  - g. taloqning subkapsulyar yirtilishi gematoma bilan.
  - d. taloq kapsulasining yirtilishi
24. Jigar va taloq shikastlanishida diagnostikaning asosiy metodi.
- a. kolonosqopiyasi
  - b. laparosqopiyasi
  - v. qorin bo'shlig'i rentgenografiyasi
  - g. laparotomiya
  - d. qorin bo'shlig'i punksiyasi
25. O'roqsimon chiziq simptomi qaysi shikastlanishda kuzatiladi
- a. jigar shikastlanishlarida
  - b. ichak shikastlanishida
  - v. taloq shikastlanishida
  - g. oshqozon osti bezi shikastlashishida
  - d. buyrak zararlanishida
26. Kovak organ zararlanishida harakterli simptom
- a. jigar to'mtoqligini yo'qolishi
  - b. yonbosh soxada to'mtoqlik bo'lishi
  - v. Rovzing simptomi
  - g. Pasternadskiy simptomi
  - d. Sitkovskiy simptomi
27. Jigar va taloq shikastlanishada eng ko'p informativ tekshirish usul
- a. Qorin bo'shlig'i obzor R-grafiyasi
  - b. Duglas bo'shlig'i punksiyasi
  - v. skanerlash

- g. UZI
  - d. gastroenterografiya
28. Kovak organning shikastlanishining eng ko'p uchraydigan asorati
- a. eventrasiya
  - b. ichak bitishmali kasalligi
  - v. sepsis
  - g. peritonit
  - d. Duglas bo'shlig'i abscessi
29. Siydik pufagining qorin bo'shlig'i ichi yirtilishida davolash taktikasi
- a. siydik pufagining kateterizasiyasi
  - b. shoshilinch sistostomiya
  - v. shoshilinch laparotomiya
  - g. qon to'xtatuvchi terapiya
  - d. rejali operatsiyaga tayyorlash
30. Siydik pufagi qorin bo'shlig'iga yorilishida eng ko'p uchraydigan og'ir asorat
- a. sepsis
  - b. peritonit
  - v. anemiya
  - g. shok
  - d. anuriya

## MAVZULAR TESTLARI JAVOBLARI:

Mavzu 1.

1: 1- 1, 2- 1, 3- 4, 4- 2, 5- 1, 6- 3, 7- 3, 8- 3, 9- 1, 10- 4, 11- 3, 12- 2, 13- 2, 14- 4, 15- 3, 16- 1, 17- 3, 18- 1, 19- 3, 20- 5, 21- 5, 22- 1, 23- 3, 24- 1, 25- ?, 26- ?, 27- 3, 28- 2, 29- ?, 30- 5, 31- 1, 32- 1, 33- 1, 34- 1, 35- 5, 36- 1, 37- ?, 38- ?, 39- 1, 40- ?, 41- 1, 42- 2, 43- 5, 44- 5, 45- 5, 46- 5, 47- 1, 48- 1, 49-, 50-

Mavzi 2

1-5, 2-4, 3-5, 4-4, 5-5, 6-1, 7-3, 8-1, 9-2, 10-2, 11-3, 12-5, 13-4, 14-4, 15-3, 16-4, 17-1, 18-1, 19-4, 20-4, 21-3, 22-4, 23-2, 24-5, 25-1, 26-2, 27-1, 28-4, 29-, 30-1

Mavzu 3

1-1, 2-3, 3-1, 4-5, 5-3, 6-2, 7-3, 8-4, 9-1, 10-5, 11-1, 12-1, 13-1, 14-2, 15-2, 16-1, 17-2, 18-2, 19-4, 20-3, 21-1, 22-3, 23- 24- 25-1, 26-2,

Mavzu 4

1-3, 2-5, 3-1, 4-1, 5-1, 6-2, 7- 4, 8-2, 9-1, 10-2, 11-1, 12-2, 13-2, 14-5, 15-2, 16-5, 17-2, 18-3, 19-1, 20-4, 21-2, 22-3, 23-3, 24-1, 25-3, 26-4, 27-2, 28-4, 29-1, 30- 31- 32- 33 34-4 35-1, 36-2, 37- 38-4, 39-4, 40-3,

Mavzu 5.

- 3, 2-1, 3- 3, 4- ?, 5- 2, 6- 4, 7- 3, 8- 2, 9- 2, 10-2, 11-2, 12-4, 13-2, 14-5, 15-1, 16- 4

Mavzu 6

1-3, 2-2, 3-2, 4-2, 5-5, 6-1, 7-5, 8-3, 9-4, 10-4, 11-2, 12-1, 13-1, 14-4, 15-1, 16- 17-1, 18-1 , 19-1, 20-1

Mavzu 7

8: 1- ye, 2- s, 3- a, 4- d, 5- d, 6- ye, 7- ye, 8- a, 9- s, 10- ye

Мавзы 8

1-s 2-v 3-v 4-a 5-v 6-s 7-s 8-s 9-v 10-d 11-s 12-d 13 a 14-a 15-s 16-d 17-s 18- d 19- d 20- y

Mavzu 9

1-3 2- 3 3-5 4-3 5-3 6-1 7-2 8-4 9-1 10-5 11-1 12- 4 13-2 14-5 15-2 16-2 17-4 18-3  
19- 4 20-2 21-3 22-1 23-3 24-3 25- 3 26-3 27-1 28—4 29-3 30-2 31 -4

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Aliyev M.M. Bolalar xirurgiyasi. 1-2 том. Darslik. Toshkent. Yangi nashr. 2018 y.
3. Aliyev M.M. Detskaya xirurgiya. 1-2 том. Uchebnik. Toshkent. Yangi nashr. 2018 y.
4. Yu.F. Isakov, A.Yu. Razumovskiy. Detskaya xirurgiya. Uchebnik. Moskva. «GEOTAR-Media», 2016 g.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Razumovskiy A.Yu. Detskaya xirurgiya. Nasionalnoye rukovodstvo. Kratkaya versiya. Rukovodstvo. Moskva. «GEOTAR-Media», 2016 g.
2. George W. Holcomb III. Ashcraft's Pediatric Surgery 6 th Edition. Textbook. NY. 2014.
3. Bairov G.A., Roshal L.M. Gnoynaya xirurgiya detskogo vozrasta. Monografiya. Sankt-Peterburg. 1991 g.
4. A.S. Sulaymanov va b. Bolalar jarroxligi. Darslik. Toshkent, Sharq. 2000 y.
5. A.I. Lenyushkin. Rukovodstvo po detskoj poliklinicheskoy xirurgii. Rukovodstvo. Linengrad. Medisina. 1986g.
6. Detskaya xirurgiya. Nauchno-prakticheskiy журнал. M.
7. A.M. Shamsiev, D.O. Ataqulov, A.I. Lyonyushkin "Xirurgicheskie bolezni detskogo vozrasta", Tashkent. "Ibn-Sino" 2001.

### **Internet saytlari:**

1. [www.laparoscopy.ru](http://www.laparoscopy.ru)
2. <http://xvviw.medicalstud.ru/med-ge>
3. <http://www.mediasphera.aha.ru/surgery/surg-mn.htm>
4. <http://www.medobook.com/>
5. <http://www.velib.ru/book/1000284686>
6. <http://zivonet.uz/ru/> Uzbekistan ta'lif portalı.
7. <http://www.med-edu.ru/> Shifokorlar uchun ta'lif portalı.
8. <http://www.childsurgery.ru/> Yevropeyskoye obshchestvo detskix xirurgov.
9. <http://eduportal.uz/rus/info/information/schoolinfo/uzbekistoninformasion> ta'lif portalı.
10. [www.sammi.uz](http://www.sammi.uz)

Atakulov Jamshed Ostanakulovich., Yusupov Shuxrat Abdurasulovich  
Raximov Faxridin Eshmamatovich., Baymuradov Nemat Sadirdenovich

# **BOLALAR XIRURGIYASI**

**TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI  
PEDIATRIYA FAKULTETI BAKALAVR  
TALABALARI MUSTAQIL ISHI UCHUN**

**O'QUV QO'LLANMA**

*Guvohnoma raqami: 00019-2022*

**“SAMARQAND” nashriyoti**

*Mas’ul muharrir — Dildora TURDIYEVA*

*Musahhih — Anvar UMRZOQOV*

*Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV*

*Sahifalovchi — Zarina NUSRATULLAYEVA*

*Dizayner — Davron NURULLAYEV*

**“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.**

**Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.**

**Samarqand shahar, Mirzo Ulug’bek ko’chasi, 3-uy.**

Bosishga 27.04.2022 ruxsat etildi. Bayonnomma raqami: 9

Bichimi 60x841/16. “Times New Roman” garniturası. 15.11 bosma taboq.

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 60/2022

Tel/faks: +998 93 199-82-72, e-mail:[sarvarmexrojbaraka@gmail.com](mailto:sarvarmexrojbaraka@gmail.com)



9 789943 826595